

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*Yusupova Orziboni Sunnatovna*

**TILSHUNOSLIK VA TABIIY**

**FANLAR**

(O‘quv qo‘llanma)

Samarqand – 2021

UO‘K: 494.3:01

KBK : 81.3 Y<sub>3</sub>

Yu 91

**Yusupova O. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. O‘quv qo‘llanma.** – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 180 b.

*Mazkur o‘quv qo‘llanmada “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” fanini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan asosiy mavzular berilgan bo‘lib, bu tilshunoslikning boshqa fanlar bilan munosabati, fanlarning integratsiyalashuvi natijasida shakllangan tutash sohalar haqida talabalarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga, qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan ta‘minlashga mo‘ljallangan.*

*Oo‘llanmadan filologiya ta‘lim yo‘nalishi talabalari, magistrantlar, tadqiqotchilar hamda ushbu fandan dars o‘tuvchi prof-o‘qituvchilar va boshqa qiziquvchilar foydalanishi mumkin.*

**Mas’ul muharrir:**

filologiya fanlari doktori,  
professor **Suyun Karimov**

**Taqrizchilar:**

filologiya fanlari doktori,  
prof. **Dilbar O‘rinboyeva**  
filologiya fanlari doktori,  
prof. **Azamat Pardayev**

*Ushbu o‘quv qo‘llanma Samarqand davlat universiteti Kengashining 2021-yil 30 noyabrda 5-bayonnoma qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-6645-5-5

©Samarqand davlat universiteti, 2021.

## Kirish

XXI asr jahon tilshunosligida tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi natijasida shakllangan sotsiolingvistika, antropolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, areal lingvistika, onomastika, kognitiv tilshunoslik kabi qator sohalar rivojlanmoqda, yangidan yangi nazariyalar, yo‘nalishlar shakllanmoqda. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida ham qator tadqiqotlar olib borilib, tilimizning boyligi, kuch-qudrati, ifoda imkoniyatlari, o‘ziga xos jihatlari, qirralari har tomonlama ochib berilmoqda. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyevning sa’y-harakatlari bilan ona tilimiz rivoji, taraqqiyoti sari yangi qadamlar tashlanmoqda, tilimizning jahon arenasidagi o‘rniga e’tibor qaratilmoqda, gullab-yashnashiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir.<sup>1</sup>

Ushbu sohalar bo‘yicha dastlabki ma’lumotlardan filologiya ta’lim yo‘nalishidagi talabalar xabardor bo‘lishlari zarurligi bois, “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” fani fan sifatida o‘tilmoqda. Mazkur fan tilshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar, tabiiy fanlar bilan munosabatini yoritish bilan talabalarning boshqa umumkasbiy fanlarni o‘zlashtirishiga zamin bo‘lib xizmat qiladi, bu boradagi asosiy bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishda yordam beradi. Bu fan bilish bosqichlari, fahmiy billish va nazariy bilish, bilish haqida allomalarimizning fikrlari, fanlar tizimi va bu tizimda tilshunoslikning tutgan o‘rni, tilshunoslikning fiziologiya, nevrologiya, kimyo, fizika, matematika, kibernetika, geografiya bilan munosabati to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan aloqalari tufayli shakllangan neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi yo‘nalishlarning

---

<sup>1</sup> Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <http://xs.uz/uz/> –Toshkent, 2019.

shakllanish tarixi, maqsad va vazifalari, predmeti va obykti haqida zaruriy bilimlar hosil qiladi. Ushbu fanda tilshunoslikning, nafaqat tabiiy fanlar bilan munosabati, balki ijtimoiy fanlar: falsafa, mantiq, tarix, etnografiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, adabiyot bilan munosabatlari ham o'rganiladi. Tilshunoslikning tabiiy fanlarga ta'siri, tabiiy fanlar bo'yicha atamalarni me'yorlashtirish masalasi va lug'atlar tuzish, bu borada olib borilayotgan ishlar, tilshunos olimlarning xizmatlari haqida bilim va ko'nikmalar beradi.

Ushbu fan bo'yicha 2001-yilda A.Nurmonov, B.Yo'ldoshevlarning "Tilshunoslik va tabiiy fanlar" o'quv qo'llanmasi yaratilgan bo'lsa-da, bugungi kunda fanlar integratsiyalashuvi kuchayishi natijasida yangi tutash sohalarning rivojlanayotgani, bu sohalarda ko'plab tadqiqotlar yaratilyotgani, yangi nazariyalar shakllanayotgani ushbu fandan to'ldirilgan, mukammallashtirilgan yangi qo'llanmalarga zaruratni keltirib chiqarmoqda. Mazkur qo'llanma shu zarurat mahsuli sifatida fanning namunaviy dasturi, ishchi o'quv reja asosida tuzildi va "Tilshunoslik va tabiiy fanlar" fanidan asosiy bilim va ko'nikmalarni berishda manba vazifasini o'tay oladi, degan umiddamiz.

## I BOB.

### Tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan munosabati

#### 1-mavzu: Fan va uning paydo bo‘lishi. Fan tushunchasi. Fanlar sistemasi. Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o‘rni

##### Reja:

1. Bilishning mohiyati. Bilish shakllari.
2. Fan tushunchasi. Fan va uning paydo bo‘lishi.
3. Fanlar sistemasi. Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o‘rni.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Bilish, bilish shakllari, ilmiy bilish, fan, fanlar sistemasi, tabiiy fanlar, aniq fanlar, ijtimoiy fanlar, tilshunoslik*

1. **Bilishning mohiyati. Bilish shakllari.** Bilish insonning tabiat, jamiyat va o‘zi to‘g‘risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma’naviy faoliyat turidir. Inson o‘zini qurshab turgan atrof-muhit to‘g‘risida bilim va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo‘lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro‘y beradi. Shuningdek, bilish insonning xos bo‘lgan ma’naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatidir. Insoniyat ko‘p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o‘zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar hosil qiladi. Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo‘lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan, farovon hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita shug‘ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sotsial guruh vujudga keldi. Bular – ilm-fan kishilari bo‘lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shug‘ullanadilar. Bilim shakllari orqali inson o‘zini qurshagan olamni anglab yetadi, uni har xil usullar yordamida o‘zlashtiradi. Bu usullardan ikkita eng muhimini qayd etish

mumkin. Birinchi, moddiy-texnikaviy usul – tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish, mehnat, amaliyot. Ikkinchi – ma’naviy (ideal) usul.

O‘z navbatida, bilish jarayoni va unda olinadigan bilimlar amaliyot va bilishning tarixiy rivojlanishi mobaynida tabaqalanadi va o‘zining har xil shakllarida mujassamlashadi. Bilishning bu shakllari, garchi o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, lekin bir-biriga o‘xshamaydi va har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. N.Shermuxeimedovaning “Gnoseologiya – bilish nazariyasi” kitobida bilish shakllarining eng asosiy turlari va ularning mohiyati keltirib o‘tilgan.<sup>2</sup> *Kundalik amaliy bilim.* Bu bilim shakli tabiat haqida, shuningdek odamlarning o‘zlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar to‘g‘risida elementar bilimlar beradi. Kundalik amaliy bilimlar bilishning tarixan eng birinchi shakli hisoblanib, kundalik hayot, odamlar amaliy tajribasidan kelib chiqqan. Shu asosda olingan bilimlar garchi mustahkam bo‘lsa-da, biroq tartibsiz, tarqoq xususiyatga ega bo‘ladi, ma’lumotlar, qoidalar va shu kabilarning oddiy majmuini tashkil etadi. Kundalik bilish sohasi juda rang-barang. U sog‘lom fikr, e‘tiqodlar, belgi-alomatlar, shaxsiy tajribadan chiqarilgan xulosalar, ularning an’analar, rivoyatlar, o‘gitlar va hokazolarda ifodalangan ko‘rinishlari, intuitiv ishonch, sezgilar va shu kabilarni o‘z ichiga oladi. *Mifologik bilim.* Insoniyat tarixining dastlabki bosqichida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bilim shakllaridan biri bo‘lib, u borliqning fantastik in’ikosi hisoblanadi. Mifologiya doirasida tabiat, koinot va odamlar, ular mavjudligining shart-sharoitlari, aloqa shakllari va hokazolar haqidagi muayyan bilimlar shakllangan. So‘nggi vaqtda mifologik tafakkur – bu shunchaki fantaziyaning tiyiqsiz o‘yini emas, balki ajdodlar tajribasini qayd etish va keyingi avlodlarga berish uchun imkoniyat yaratadigan dunyoni o‘ziga xos tarzda modellashtirish ekanligi aniqlandi. Mifologik tafakkurga uning emotsiyalar sohasi bilan uzviyligi, bilish obykti va subyektini, predmet va belgini, narsa va so‘zni, hodisaning kelib chiqishi (genezisi) va mohiyatini aniq farqlamaslik xos. Unda tabiiy va ijtimoiy hodisalarni, shuningdek, butun dunyoni tushuntirish ularning kelib chiqishi va yaralishi haqidagi

---

<sup>2</sup> Shermuxeimedova N. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. –T., 2008. –B.21-34.

hikoyalarga bogʻlangan. Mif ibtidoiy odam tafakkurining tabiat hodisalarini tushunish va tushuntirishning oʻziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. *Falsafiy bilim.* Falsafa, sanʼat va din kabi, bilish vazifalarini yechish bilangina kifoyalanmaydi. Uning bosh vazifasi sanʼat va din bilan uygʻun holda – insonning dunyoda maʼnaviy moʻljal olishiga koʻmaklashishdan iborat. Falsafiy bilim ayni shu maqsadga boʻysundirilgan. Falsafa umuman dunyo, uning “birinchi” asoslari, hodisalarning universal oʻzaro aloqasi, borliqning umumiy xossalari va qonunlari haqida tasavvurni shakllantiradi. Meʼyorlar va ideallar, ilmiy bilimlar va sanʼat yutuqlari, insonning tashvishlari, ehtiyojlari, hayot mazmunini anglash yoʻlidagi izlanishlari faylasufning dunyo qarashini, falsafiy mushohada yuritish shaklini belgilaydi. Falsafa jamiyat ongi, jamiyat madaniyatining nazariy ifodasi sifatida amal qiladi. U tafakkur tarzi, qadriyatlar, ideallar, falsafiy muammolar va ularni koʻrib chiqish xususiyatini belgilaydigan madaniyat bilan uzviy bogʻliqdir. Falsafa umuman dunyoga va madaniyat subyekti sifatidagi insonga murojaat etadi. Falsafiy bilim donishmandlik sifatida tavsiflanadi. Donishmandlik – dunyoni va insonning undagi oʻrnini yaxlit tushunish andozasi. Falsafa barcha odamlar uchun muhim boʻlgan haqiqatlarning tagiga yetish uchun (ilmiy va noilmiy) bilimdan foydalanadi. Kant falsafa inson aqlining boshqa bilimlarga oliy qadriyat tusini beruvchi eng soʻnggi maqsadlarini anglab yetishni tushuntirishga, bu bilimlarning inson uchun ahamiyatini aniqlashga yordam beradi, deb hisoblagan. Falsafa inson faoliyatini yoʻlga soluvchi tamoyillar, yondashuvlar, qadriyatlar va ideallar tizimini, uning dunyoga va oʻz-oʻziga munosabatini belgilaydi. Dunyoning inson bilan mushtarak holdagi obrazini yaratib, falsafa muqarrar tarzda qadriyatlar dunyosiga murojaat etadi. Etika, estetika, aksiologiya – falsafiy bilimning qadriyatlar dunyosini oʻrganuvchi maxsus sohalardir. Falsafa sanʼatda oʻzining yorqin va ishonarli ifodasini topishi bejiz emas. Koʻpgina faylasuflar uning metaforalarga boy obrazli tilidan oʻz gʻoyalarini ifodalash uchun foydalanadi. Falsafiy bilimning bosh maqsadi – insonni kundalik tashvishlar sohasidan olib chiqish, unda yuksak ideallarga qiziqish uygʻotish, uning hayotiga chin mazmun baxsh etish, eng zamonaviy

qadriyatlar sari yo‘l ochishdir. Falsafiy bilimda ikki asos – ilmiy-texnikaviy va nazariy-ma’naviy asoslarning uyg‘unlashishi uning ongning betakror shakli sifatidagi o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi. *Ilmiy bilim.* Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o‘zining aniqligi bilan ajralib turadi. U borliqni moddiy va obyektiv o‘rganishga qarab mo‘ljalladi. Biroq bu olamning shaxsiy xususiyatlari, uning qadriyatlarini belgilashda, ilmiy ijodida rol o‘ynamaydi va uning natijalariga ta’sir ko‘rsatmaydi degan ma’noni anglatmaydi. Ilmiy bilim nafaqat o‘rganilayotgan obyektning o‘ziga xos xususiyatlari, balki ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo‘lgan ko‘p sonli omillar bilan ham belgilanadi. Bilishning eng oliy shakli fandır. Demak, har bir fan insonlarning olamni kuzatishi, bilishi jarayonida, uning natijasida paydo bo‘ladi. Fanning asosi bo‘lgan bilish uzoq vaqtlardan buyon mutafakkirlarni qiziqtirib keladi. Jumladan, bizning bobokalonlarimiz ham bu sohada o‘zlarining qimmatli fikrlarini bayon qilganlar. Dunyo allomalari ichida ikkinchi muallim nomi bilan mashhur bo‘lgan Farobiy bilishning ikki darajasini ajratadi. Xususan, u “Ilmlarning kelib chiqishli to‘g‘risida” (“Ixso al-ulum”) asarida ilmlarni keltirib chiqaradigan sabablar haqida fikr yuritib, quyidagilarni bayon qiladi: “Olamda substansiya (javhar) va aksidensiya (oraz) hamda substansiya va aksidensiyani yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo‘qdir”.<sup>3</sup> Forobiyning javhar va oraz haqidagi bu fikri bilish nazariyasida buyuk inqilob edi. Chunki bizni qurshab turgan olam va uning unsurlari javhar va orazlarning o‘zaro dialektik munosabatidan tashkil topgandır. Forobiy tilga olgan javhar va oraz tushunchalari ostida nima yotadi? Har qanday narsa dastlab bizning sezgi organlarimizga ta’sir qiladi. Ana shu sezgi organlarimiz yordamida his qilish mumkin bo‘lgan belgilar oraz sanaladi. Oraz Aristotel falsafasidagi aksidensiyani bildiradi. Forobiyning tushuntirishicha, orazni besh sezgi organlari yordamida his etamiz. Xususan, rang ko‘rish sezgi organi orqali; ovoz eshitish organi orqali; maza-ta’min maza sezgi organi orqali, predmetlarning holati: sovuq-issiqqligi, qattiq-yumshoqligi tana sezgisi orqali, hid hidlash organi orqali his etiladi. Bu sezgi organlari insondan

---

<sup>3</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент, 1983. –Б.151.



tashqari hayvonlarda ham mavjuddir. Demak, yuqoridagi sezgi organlari barcha jonzodlarga xos. Ular orqali har qanday jonzod o'zini qurshab turgan olamni amaliy biladi, unga moslashadi. Insonning sezgi organlari yordamida hosil qilgan bilimi hissiy yoki amaliy bilim sanaladi. Bulardan tashqari inson xayol surish, nutq yordamida ham bilimga ega bo'lishi mumkin. Bilishning bu yo'li quvvai notiqa va quvvai mutaxayila deyiladi. Notiqa quvvati boshqa barcha quvvatlarning (sezgilarning) yetakchisi, raisasidir. Hissiy bilim bilishning asosi, tayanch nuqtasi sanaladi. U insonni qurshab turgan olam uzvlaridan har birini alohida ko'rish, ushlab, eshitish, mazasini tatish, hidlash orqali hosil qilinadi. Hissiy bilim bilish jarayonining markaziy nuqtasi sanalsa ham, lekin u ko'pincha aldab qo'yishi mumkin. Masalan, Quyosh Yer atrofida aylanayotganday ko'rinadi. Aslida esa aksincha. Shuning uchun bizning ajdodlarimiz hissiy bilish bilan idrokiy bilishni ajratganlar. Idrokiy bilish hissiy bilimlarni solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish, hissiy bilimlarning hosil bo'lishiga asos bo'lgan orazlar (aksidensiyalar) zamirida yashiringan mohiyatni-jovharni aniqlash orqali hosil qilinadi. Masalan, tanada isitmaning ko'tarilishini aniqlash hissiy bilim sanaladi. Lekin har qanday harorat o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uning ma'lum ichki sabablari bor. Ana shu sababni aniqlash isitmaga o'xshash, u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha hissiy bilimlarni solishtirish, qiyoslash, umumlashtirish orqali amalga oshiriladi va isitma nimaning tashqi alomati ekanligi aniqlanadi. Solishtirish, qiyoslash, mantiqiy umumlashtirish orqali hosil qilingan bilim idrokiy, nazariy bilim sanaladi. Bu bilim orqali orazlar zamiridagi javhar belgilanadi. Har qanday fan ana shu bilimlarni keltirib chiqaradi. Bundan ko'rinadiki, hissiy (fahmiy) bilim tajriba, amaliyot, bevosita kuzatish bosqichi sanalib, haqiqiy nazariy (idrokiy) bilim amaliy bilimlarning o'zaro munosabatini o'rganish, umumlashtirish orqali hosil qilinadi va bu bilimga ega bo'lish har qanday fanning bosh maqsadi sanaladi.

**2. Fan tushunchasi. Fan va uning paydo bo'lishi.** Fan amaliy faoliyat predmetlarning (boshlang'ich holatdagi obyektning) tegishli mahsulotlarga (pirovard holatdagi obyektga) aylanish jarayonini oldindan ko'ra bilishni o'z oldiga pirovard maqsad qilib qo'yadi. Bu

o'zgarish har doim obyektlarning o'zgarish va rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi, faoliyat shu qonunlarga muvofiq bo'lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu sababli fanning asosiy vazifasi obyektlarning o'zgarish va rivojlanish qonunlarini aniqlashdan iborat. Fanning bevosita maqsadi o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning jarayon va hodisalarni ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir. O'zbek tilining izohli lug'atida fan tushunchasi haqida quyidagicha izoh beriladi: Fan [a] "Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda atrofdagi muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar sistemasi". *Fan asoslari. Fan yutuqlari*. Shunday bilimlar sistemasining alohida tarmog'i. *Aniq fanlar. Ijtimoiy fanlar. Tabiiy fanlar. Fizika fani*.<sup>4</sup> Inson paydo bo'libdiki, o'zini qurshab turgan olamni va shu olamning tarkibiy qismi bo'lgan o'zini ham bilishga qiziqib keladi. Shuning uchun fanning ilk kurtaklari mifologiya sifatida kishilik jamiyatning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda maydonga kelgan, deyishimiz mumkin. Dastlabki bilimlar amaliy xarakterga ega bo'lgan. Keyinchalik qadimgi Sharq mamlakatlari va Yunonistonda tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunlarini amaliy asosda kuzatib, bashorat qiluvchi maxsus kishilar –mutafakkirlar yetishib chiqqan. Mifologiya fanga o'tish bo'sag'asida ma'lum bosqich vazifasini bajargan bo'lsa, rivojlanish davom etishi bilan mifologiya o'rnini naturfalsafa egallagan. Zenon, Demokrit, Aristotel va boshqa qadimgi zamon mutafakkirlari tabiat, jamiyat va tafakkurni gohi birgalikda, gohi ayri ravishda bayon etishga urina boshlaganlar. Dunyoni bir butun, deb ifodalovchi tushunchalar, isbotlash usuli paydo bo'lgan. Ellinizm davrida Yevklid, Arximed, Ptolemey tomonidan dastlabki nazariy sistemalar yaratilgan. Keyinchalik yangi davr deb ataluvchi zamonda fanning ijtimoiy roli yanada oshdi. U madaniyatning muhim tarmog'i va texnikaning nazariy asosiga aylana boshladi. 16-17-asrlarda klassik fizikaning poydevori qurildi. Fanning nazariya darajasiga ko'tarilganligi tafakkurning induktiv va deduktiv rivojlanishiga yo'l ochib berdi. Ayrim alohida narsalar orasida juda katta miqdorda tabiiy

---

<sup>4</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. II томлик, 2-том. –М.: Рус тили, 1981. –Б.294.

o‘zaro bog‘lanishlar mavjudligi ilm-fanning alohida yo‘nalishlarga ajralishiga sabab bo‘ldi.

Fanlarning kelib chiqishli haqida bir qancha fikr-mulohaza, ma’lumotlar berilgan. Bu fikrlar orasida Abu Nasr Forobiy tomonidan berilgan ma’lumot e’tiborga molikdir. Uning fikricha, har bir fan javhar (substansiya) va oraz (aksidensiya)larni o‘rganish asosida kelib chiqadi. Xususan, sonlar to‘g‘risidagi ilmning paydo bo‘lishi haqida quyidagilarni yozadi: “...birliklardan vujudga keluvchi sanoqsiz va juda ko‘p miqdorni tashkil qiluvchi son substansiyaning turli usullar bilan qismlarga ajratish va uning turli birliklardan iboratligi natijasida kelib chiqqandir. Substansiya o‘z tabiati jihatidan cheksiz darajada bo‘laklarga ajratib keta olishligi sababli, son ham o‘z tabiati jihatidan cheksizdir. Son to‘g‘risidagi ilm – bu substansiya bo‘laklarini bir-biriga ko‘paytirish, birini ikkinchisiga bo‘lish, birini ikkinchisiga qo‘shish, birini ikkinchidan ayirish, agarda bu bo‘laklarning negizi bo‘lsa, negizini topishga va ularning muvozanatini aniqlashga qaratilgan ilmdir. Sonning qanday kelib chiqqanligi, uning vujudga kelishi va ko‘payishi, uni u mavjudlik darajasiga olib kelgan, imkoniyatdan voqelikka hamda yo‘qlikdan borliqqa aylantirgan sabab nimadan iborat ekanligi yuqorida aytilganlardan aniq ko‘rinib turibdi. Bu ilmni yunon donishmandlari arifmetika deb ataydilar”.<sup>5</sup> Substansiyaning ko‘p bo‘laklarga ajrala boshlashi va ulardan har birining ma’lum figuralarga (uchburchak, to‘rtburchak va h. k) ega bo‘lishi figuralarni o‘rganadigan ilmga ehtiyoj tug‘dirdi. Ana shu ehtiyoj tufayli geometriya fani vujudga keldi. Substansiyaning harakatchanligi ta’kidlanishi bilan birga, osmon harakatini o‘rganuvchi ilm vujudga kelganligini aytadi. Bu ilm oldingi ikki ilm: arifmetika va geometriyaga asoslanishi, bu ilmlarsiz mavjud bo‘lmasligi ta’kidlanadi va bu ilmning nomi astronomiya ekanligini yozadi. Substansiya harakatdan tashqari ovozga ham ega bo‘lishi va bu belgini o‘rganuvchi musiqa fani vujudga kelganligini aytadi. Substansiya qizarish-oqarish, uzayish-torayish, ko‘payish-kamayish, tug‘ilish-o‘lish, kasallanish-sog‘ayish kabi belgilarga ham ega bo‘ladi.

---

<sup>5</sup> Abu Nasr Forobiy. Фозил одамлар шахри. – Тошкент, 1983. –Б.174-175.

Substansiyaning bunday o'zgarishlarini o'rganishga ehtiyoj tufayli tabiat to'g'risidagi fan paydo bo'lganligini bayon qiladi. Bulardan so'ng ilohiyot ilmining, undan keyin til haqidagi ilm va grammatikaning, shuningdek, mantiq va poetikaning qanday amaliy ehtiyoj bilan vujudga kelganini asosli dalillar bilan ko'rsatib beradi. Ilohiyot ilmi haqida fikr yuritar ekan, "bu ilmning tabiatdan yuqori turgan ilm - metafizika ilmi" ekanligi va u barcha ilmlarning yakuni va oxiri ekanligi, undan so'ng biror narsani tekshirishga zaruriyat qolmasligi aytiladi. Ko'rinadiki, barcha fanlar obyektiv borliqdagi javhar (substansiya) va uning orazlari (aksidensiyalari)ni o'rganish asosida vujudga kelganligi ta'kidlanadi va til haqidagi ilm bilan grammatika fanlar ichida alohida o'rin tutishi ko'rsatiladi. Bu fikrlar bundan ming yillar oldin bayon qilingan bo'lsa ham, lekin hanuzgacha o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

Hozirgi kunda ilm-fanning ko'pgina sohalari bizga ma'lum. Tabiiy fanlar atrofimizni qurshab turgan narsalar va hodisalarni o'rganadi. Ijtimoiy fanlar esa inson hayoti va faoliyatini o'zi uchun bosh tadqiqot masalasi deb biladi. Bu ilm-fan sohalari poydevor, asos, ya'ni ular sof ilmdir. Ular narsalar mohiyatini o'rganadi va ilmiy qonuniyat-qoidalarni yaratadi. Amaliy fanlar bu anglangan mohiyat va ilmiy qonun-qoidalarni inson faoliyatining turli sohalariga tatbiq etadi. Dorishunoslik, tibbiyot, qurilish muhandisligi va boshqa ko'pgina sohalar amaliy fanlar turiga mansub.

**3.Fanlar sistemasi. Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o'rni.** Sistema nima? Bu savolga hozirga qadar turlicha javoblar beriladi. Sistema nima ekanligiga javob berishdan oldin buning qanday muhim belgilardan iborat ekanligiga e'tibor bermoq lozim. Avvalo, har qanday sistema ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega. Demak, sistema muayyan ichki tuzilishga ega bo'lib, ikki va undan ortiq qismlarning o'zaro munosabatidan tashkil topali.

Masalan, bir tup daraxtni olsak, bu daraxt sistema sifatida ichki tuzilish birliklarining o'zaro munosabatidan iborat. Uning ichki tuzilish birliklari ildiz, tana va shox hamda ularning munosabatidan tashkil topgan. Sistemaning ikkinchi jihati shundan iboratki sistemani tashkil

etgan uzvlar o‘zaro shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi ko‘p pog‘onali munosabatda bo‘ladi. Masalan, ildizsiz tananing, tanasiz shoxning bo‘lishi mumkin emas. Ularning har qaysisi bir-birini taqozo etadi, bir-biri bilan shartlangan. Sistemaning uchinchi jihati shundaki, har qanday sistema ichki bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lganligi tufayli, sistemani tashkil etgan qismlar bilan sistema o‘rtasida ham munosabat bo‘ladi. Bu munosabatni olimlar “...dan tashkil topadi”, “...ning tarkibiga kiradi” ifodasi bilan ko‘rsatadi<sup>6</sup>, boshqacha aytganda, u butun va bo‘lak, tur va jins munosabatini o‘z ichiga oladi. Masalan, daraxt va uning ildizi, tanasi, shoxi, barglari o‘rtasida butun va bo‘lak munosabati bo‘lsa, daraxt bilan olma, o‘rik, shaftoli o‘rtasida tur va jins munosabati mavjud. Sistemaning to‘rtinchi jihati uning ichki tuzilishining pog‘onaviyligidir. Ya’ni butun va bo‘laklik, tur va jinslik munosabati nisbiy xarakterga ega. Ma’lum jinslarga nisbatan tur, bo‘laklarga nisbatan butun bo‘lgan qism boshqa butun yoki tur tarkibiga kirib bo‘lak yoki jins bo‘lishi mumkin. Masalan, olma bir necha navlarning umumlashmasi sifatida navlarga nisbatan tur, har qaysi nav esa jins bo‘lib kelsa, daraxtga nisbatan olma jins rolini o‘ynaydi. Sistemaning beshinchi jihati substansionalligidir. Ya’ni substansiya va uni bevosita kuzatishda tazohirlar orqali voqelanishi, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasining o‘zida namoyon qilishidir. Shunday qilib, bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o‘zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik sistema sanaladi. Bu jihatdan fan ham sistemadir. Chunki u ham ichki bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega. Shu bilan fanni tashkil etgan har bir uzv o‘zaro shartlangan munosabatda. Bir fan turining mavjud bo‘lishi ikkinchi fanning bo‘lishini taqozo etadi. Masalan, geometriya arifmetika bilan uzviy aloqada. Geometriya va arifmetikasiz astronomiyaning bo‘lishi mumkin emas va h.k. Fan sistema (butunlik) sifatida ichki bo‘linish xususiyatiga, ya’ni ichki tuzilishga ega. Uning ichki tuzilishi pog‘onalidir. Fan avvalo, yo‘nalishlarga, yo‘nalish tarmoqlarga, tarmoqlar yana kichik ixtisosliklarga bo‘linadi. Bu bo‘linishning har biri

---

<sup>6</sup> Nurmonov A., Usmonova H., Boboxonova D. Tilni system sifatida o‘rganish. – Namangan, 2011.–B.9.

bir pogʻonani hosil qilib, keyingi boʻlinishlar uchun kichik sistema vazifasini oʻtaydi. Masalan, fan, avvalo, tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, texnika fanlari kabi yoʻnalishlarga boʻlinadi. Tabiiy fanlar fanlar sistemasida oʻzaro munosabatda boʻlgan bir necha boʻlaklarning bittasi sifatida sistema elementi sanalsa, keyingi bosqichida, tabiiy fanlarning oʻzi fizika, matematika, kimyo, biologiya, mexanika, texnika kabi fan tarmoqlarni oʻz ichiga olib, bu fanlar uchun sistema rolini oʻtaydi. Fizika va matematika ham yana ichki boʻlinishga ega. Masalan, matematika: matematik tahlil, geometriya, ehtimollar nazariyasi, algebra va sonlar nazariyasi kabi ixtisosliklarga boʻlinadi. Har bir boʻlinishda boʻlinuvchi sistema boʻlsa, boʻlinma uning aʼzosi vazifasini bajaradi. Sistema tarkibidagi har bir aʼzo shu sistema doirasida oʻzaro shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi munosabatda boʻladi. Masalan, matematika tarkibiga kiruvchi barcha ixtisosliklar oʻzaro ana shunday munosabatdadir. Fanlar sistemasida maʼlum fan tarmogʻi bilan munosabatda boʻlmagan biror bir tarmoq mavjud emas. Bir obyekt hozirgi kunda bir necha fanlarning oraligʻida oʻrganilishi lozim boʻladi. Demak, maʼlum bir fan boshqa tutash fanlarsiz toʻlaqonli muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Shu bois, hozirgi kunda barcha fanlarda sistemaviy tadqiqotlarga katta eʼtibor berilayotgan va buning natijasida jiddiy yutuqlarga erishayotgan bir paytda fanlarning oʻzaro munosabatini oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Xoʻsh, tilshunoslikning fanlar sistemasida tutgan oʻrni qanday? Tilshunoslik fanlar sistemasida deyarli barcha fanlar bilan uzviy aloqada. Buning sababi tilshunoslik fanining oʻrganilish obyekti boʻlgan tilning mohiyati bilan bogʻliqdir. Avvalo, til kishilar oʻrtasidagi eng muhim aloqa vositasi sifatida ijtimoiy xarakterga ega. Demakki, u boshqa ijtimoiy hodisalar bilan uzviy aloqadadir. Masalan, til egasi boʻlgan xalqning tarixi, madaniyati, ruhiyati va boshqalar. Bu shuni koʻrsatadiki, oʻzaro munosabatda boʻlgan barcha ijtimoiy hodisalarni oʻrganuvchi ijtimoiy fanlar ham oʻzaro munosabatdadir. Xususan, tilshunoslik falsafa, tarix, etnografiya, sotsiologiya, psixologiya singari fanlar bilan uzviy aloqada. Shu bilan birga tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan aloqasi ham uning fanlar sistemasida boshqa fanlar bilan aloqasining bir qismini oʻz ichiga oladi.

Masalan, tilshunoslikning fonetika bo‘limida nutq tovushlarining akustik tomoni fizikaning akustika bo‘limi ma’umotlari asosida o‘rganiladi. Nutq tovushlarning paydo bo‘lishida ishtirok etadigan nutq organlarining vazifasini fiziologiya materiallarisiz bayon qilish mumkin emas. Yoki nutq patologiyasi muammolari tibbiyot fani bilan uzviy aloqada hal qilinadi. Tilshunoslikda lisoniy birliklarning boshqa lisoniy birliklar bilan birikish imkoniyatlari va ushbu imkoniyatning yuzaga chiqish masalalari bilan shug‘ullanuvchi valentlik nazariyasining vujudga kelishi bevosita kimyo fanining ta’siri bilan bog‘liqdir. Keyingi davrlarda avtomatikaning rivojlanishi tilshunoslik faniga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Tilshunoslikda lingvistik modellashtirish, avtomatik tarjima muammolari paydo bo‘ldi. Ana shunday muammolar tilshunoslik fanining matematika, kibernetika kabi fanlar bilan aloqasini kuchaytirdi. Bu omillarning barchasi tilshunoslikni fanlar sistemasida boshqa fanlar bilan munosabatda o‘rganilishini taqozo etadi. Ana shundagina yosh mutaxassis bu fanning fanlar sistemasida tutgan o‘rnini to‘g‘ri payqay oladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Fan nima? Fan va ilmning farqi nimada ko‘rinadi?
2. Misr, Hindiston, Xitoyda fan shakllanishi haqida gapiring.
3. Abu Rayhon Beruniy, Bahouddin Naqshband, Forobiyning ilm haqidagi qarashlarini gapirib bering.
4. Tilshunoslik mustaqil fan sohasi sifatida nechanchi asrda ajralib chiqdi?
5. Tilshunoslikning falsafa, psixologiya, mantiq fanlari bilan uzviy aloqadorligi nimalarda ko‘rinadi?
6. Tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan uzviy aloqadorligi nimalarda ko‘rinadi?
7. Hissiy bilim tilshunoslikning qaysi sohalarida qo‘llanilishi mumkin. O‘z fikringizni izohlang.

## 2-mavzu: Tilshunoslik va falsafa. Kognitiv tilshunoslik

### Reja:

1. Tilshunoslik va falsafa. Tilshunoslikda falsafa kategoriyalarining voqelanishi.

2. Kognitiv tilshunoslik. Kognitiv tilshunoslik fanining maqsadi va vazifalari.

**Tayanch soʻz va iboralar:** *bilish, falsafa, nazariy falsafa, I. Kant, falsafiy yoʻnalish, tadqiqot metodologiyasi, Vilgelm Gumboldt, Gegel, kognitiv tilshunoslik.*

**1. Tilshunoslik va falsafa. Tilshunoslikda falsafa kategoriyalarining voqelanishi.** Ijtimoiy fanlar tarkibiga falsafa, mantiq, iqtisodiy nazariya, pedagogika, psixologiya, tarix, adabiyot kabi bir qancha fanlar kiradi. Tilshunoslik ham ijtimoiy fanlar sistemasiga mansub boʻlib, bu sistema tarkibidagi barcha fanlar bilan muayyan munosabatdadir. Shuningdek, tilshunoslik falsafa fani bilan uzviy bogʻliqdir. Chunki falsafa insonning oʻz mohiyatini anglashi, borliqning turli sohalariga oid hodisa va voqealar haqida ularning tub mohiyatini ifodalaydigan umumiy xulosalar chiqarishi demak. Falsafiy tafakkur olamdagi narsa va hodisalarni fikrda umumlashtirib, oʻzaro bogʻliqlikda va rivojlanishda oʻrganish, ularning mohiyatini chuqurroq va toʻlaroq bilishdir. Falsafaning markazida borliq va uni bilish muammosi yotadi. Til ham borliqdagi kishilarning aloqa vositasi sifatida inson bilimiga beriladi. Shunday ekan, har qanday fan, jumladan, tilshunoslik ham falsafa bilan uzviy bogʻlanadi.

“Falsafa” atamasi qadimgi yunon tilidagi “filosofiya” soʻzidan olingan boʻlib lugʻaviy maʼnoda “*donishmandlikni sevish*” (“*phileo*”- sevaman, “*sopia*” - donolik) degan mazmuni anglatadi. Bu soʻz dastlab taxminan eramizdan oldingi VI asrda yashagan taniqli matematik olim Pifagor tomonidan ishlatilgan va Yevropa madaniyatiga qadimgi yunon faylasufi Aflotun (mil.avv.427-347 y.) asarlari orqali kirib kelgan. Abu Nasr Forobiy “Falsafaning maʼnosi va kelib chiqishi haqida” nomli asarida “falsafa” atamasi yunon tilidan kelib chiqqanligini tasdiqlaydi.



Demak, “falsafa” va “filosofiya” atamalari bir xil ma’noga ega bo‘lib, uning kelib chiqishi qadimgi Yunoniston hisoblanadi. Ular barcha ilm-amal sohalarini filosofiya deb atashgan va “barcha fanlarning otasi” sifatida e’tirof etishgan.

Tilshunoslik fani XIX asrda mustaqil fan sifatida falsafadan ajralib chiqqan. Biroq barcha fanlar kabi tilshunoslik uchun ham u yoki bu falsafiy yo‘nalish tadqiqot metodologiyasi bo‘lib xizmat qiladi. Tilshunosning o‘z tadqiqoti yuzasidan qanday xulosaga kelishi, ilmiy haqiqatni qay darajada obyektiv ochib berishi uning qanday falsafiy yo‘nalishga asoslanishiga bog‘liq. Shuning uchun har bir tilshunos muayyan falsafiy yo‘nalishga asoslanmog‘i lozim.

Masalan, G‘arbiy Yevropada umumiy tilshunoslikning otasi hisoblanuvchi Vilgelm Gumboldt tadqiqotlari uchun I.Kant va Gegel falsafasi metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Mashhur nemis faylasufi A.Gegelning “Ruh fenomenologiyasi” asarida bayon qilingan mutloq ruh haqidagi g‘oyasi ham V.Gumboldtga katta ta’sir qildi. Gegelning fikricha, dastlab olam va tafakkur ayniyati bo‘lgan va bu ayniyat dunyoning substansional (zotiy) asosini tashkil etgan. Tafakkur faqat subyektiv inson faoliyatigina emas, balki obyektiv mohiyat, barcha mavjudotning birlamchi manbai bo‘lgan. Tafakkur modda, tabiat holida o‘zini “begonalashtiradi”, “absolyut g‘oya”ning oliy taraqqiyot bosqichi “absolyut ruh”, ya’ni insoniyat, insoniyat tarixi sanaladi. Gegelning bu g‘oyasi ta’sirida V.Gumboldt tilning “xalq ruhi” deb ifodalaydi.

O‘zbek tilshunosligida qanday ta’limot metodologik asos qilib olingan? Bu savolga olimlarimizning quyidagi fikrlarini keltiramiz: “Istiqlol qo‘lga kiritilgandan so‘ng milliy madaniyatimiz, milliy an’analarimiz, boy ma’naviyatimizni tiklashga jiddiy e’tibor berila boshlandi. Shunday ekan, ilmiy tadqiqotlarning kompassi vazifasini bajaruvchi metodologik asosni ham qayta ko‘rib chiqish payti keldi. Bizning mafkuramiz fikrlar xilma-xilligi, erkin fikrlashga keng yo‘l ochgan mamlakatimiz istiqloliga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimidan iborat bo‘lishi kerak. Chunki fikrlar xilma-xilligi rivojlanish asosidir. Shuning uchun birorta falsafiy sistema bizning yagona mafkuramiz manbai bo‘lolmaydi. Ajdodlarimiz uchun ulkan kashfiyotlar qilish

imkoniyatini yaratib bergan va Gʻarb fanining ravnaqi uchun ham jiddiy taʼsir koʻrsatgan metodologiyani tiklash va undan oʻrinli foydalanish payti keldi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy qoʻllagan tadqiqot metodologiyasi bilan Ovrupo olimlari tayangan falsafiy asoslarning eng yaxshi jihatlaridan ijodiy foydalanish lozim”.<sup>7</sup> Ularning umumiy jihatlari quyidagilar:

1) obyektga substansional (zotiy) yondashuv. Bunda umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasini hisobga olish;

2) obyektning ziddiyatli tabiatini ochish. Har qaysi tadqiqot obyektini ichki ziddiyatlardan iboratligini, ana shu ziddiyatlar obyektning uzluksiz rivojlanishi asosi ekanini koʻrsatish;

3) obyektning sistemaviy xususiyatini yoritish. Buning uchun har qaysi obyekt muayyan katta butunlikning uzviy bir boʻlagi ekani, ayni paytda, u muayyan ichki unsurlarning oʻzaro munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik ekanini namoyon qilish;

4) shakl va mazmun dialektikasini eʼtiborga olish. Ularning oʻzaro munosabatini yoritish;

5) teng qimmatli elementlar oʻrtasida va turli qimmatli birliklar (butun bilan boʻlak, tur bilan jins) oʻrtasidagi munosabat turlarini yoritish va h.k.

**2. Kognitiv tilshunoslik. Kognitiv tilshunoslik fanining maqsadi va vazifalari.** Tilshunoslikda lisoniy hodisalar tahliliga kognitiv yondashuv til va tafakkur, soʻz maʼnosining oʻzaro munosabati muammolarini kategoriyalash va konseptlashtirish orqali bilimning turli strukturalarini shakllantirish va ularning tilda namoyon boʻlish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Kognitologiya – bilim va tafakkur, borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini oʻrganish, anglash, idrok qilish natijalari haqidagi fan boʻlib, u toʻplangan maʼlumotlarning muayyan tizimiga aylanganki, bizning ongimizda maʼlum tarzda joylashgan va oʻz tabiatiga koʻra tafakkurning kognitiv jarayonlaridan tarkib topgan. Shuningdek,

---

<sup>7</sup> Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшunoslik va tabiiy fanlar. –Тошкент: Шарк, 2001.–Б.27-28.

kognitiv fan bilim tuzilishi jarayonlarini o'rganish, turli xil axborotlarni qayta ishlash, saqlash, foydalanish, tashkillashtirish va to'plash hamda bu tuzilmalarning inson miyasida shakllanishini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Kognitiv tilshunoslikning o'rganish obyekti til hisoblanadi. Bu fan tilni "inson ongida fikrlarni shakllantiruvchi va ifodalovchi, bilimlarni saqlovchi va tashkil qiluvchi vosita" sifatida tadqiq etadi.<sup>8</sup> Zero, til kognitiv faoliyatning asosini tashkil qiladi. A.V.Kravchenko to'g'ri ta'kidlaganidek, til "bilishning ajralmas qismi bo'lib, madaniy, ruhiy, aloqaviy, vazifaviy omillarning o'zaro aloqasini aks ettiradi".<sup>9</sup> N.N.Boldirev fikrlariga asoslanib aytish mumkinki, kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi "tilni tadqiq qilish orqali bilimlarning har xil tuzilmalariga kirib borish hamda til va ular o'rtasidagi aloqadorliklarni izohlash" hisoblanadi.<sup>10</sup>

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi til sistemasining insonlarni o'rab turgan muhitni, insoniyat tarixi va madaniyatini, urf-odatlarini o'rganishda, anglab olishdagi ishtirokini aniqlash, inson ongidagi mavjud tajribaga suyanib, to'plangan bilimni ma'lum tartibga tushirish, uni boshqalarga uzatishda vositachilik qilayotgan tilning rolini tadqiq etishdir.<sup>11</sup> O'zaro bog'liq bo'lgan, biri ikkinchisini to'ldiruvchi bu yo'nalishlarning maqsadi inson nutqi va uning aloqaviy sifatlarini, aloqa, xabar, ta'sir etish kabi ijtimoiy vazifalarning voqelanishida lisoniy vositalarning o'rni va imkoniyatlarini aniqlashdir.

Tilshunoslarning e'tirof etishicha, mazkur fan inson miyasi mental jarayonlarining umumiy tamoyillari, boshqaruv haqida bahs yuritib, u idrok qilish jarayonlarining tafakkurlanishi, kategoriyalarga bo'linishi,

---

<sup>8</sup>Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. – С.18.

<sup>9</sup>Кравченко А.В. Когнитивная лингвистика сегодня: интеграционные процессы и проблема метода // Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. – С.37.

<sup>10</sup>Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики//Вопросы когнитивной лингвистики. –Тамбов, 2004. –С.23.

<sup>11</sup> Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. –B.175.

tasniflari, bilim o‘sishi qanday kechishi, axborot bilan bog‘liq faoliyat sistemalarini o‘rganadi.<sup>12</sup>

Shunday qilib, kognitiv fan – bu bilimning mustaqil sohasi bo‘lib, u insonning axborotni qabul qilishi, qayta ishlashi va foydalanishini o‘rganadi.

Ye.S.Kubryakova ta’kidlaganidek, kognitiv fan fikrlash, bilish, axborotni saqlash va qayta ishlash muammolari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy yo‘nalishlar uchun “soyabon” termin vazifasini o‘taydi. U kognitiv psixologiya, kognitiv tilshunoslik, kognitsiyaning falsafiy nazariyasi, tilning mantiqiy tahlili, sun’iy intellekt nazariyasi, neyrofiziologiya kabi sohalarni birlashtirishini va bugungi kunda kognitiv antropologiya, kognitiv sotsiologiya, hatto kognitiv adabiyotshunoslik shakllanib ulgurganligini qayd etadi. Bu fan maxsus dasturlar tatbig‘i uchun bilim va axborot bilan bog‘liq kognitsiya deb yuritiluvchi kognitiv jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi. Kognitsiya – subyektning bilish, idrok qilish, ta’riflash qobiliyatidir.<sup>13</sup> N.N.Boldirev fikricha: “Kognitsiya –bu ma’lumotlarni, bilimlarni olish, qayta ishlash, eslab qolish, xotirada tiklash va foydalanishning har qanday ongli yoki ongsiz jarayonidir. U o‘zida quyidagi psixologik jarayonlarni mujassamlashtiradi: 1) dunyoni qabul qilish; 2) kuzatish; 3) kategoriyalarga ajratish; 4) tafakkur; 5) nutq; 6) tasavvur va b.”<sup>14</sup>

Ko‘rinadiki, zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik tamoyil turli xil xususiy ko‘rinishdagi aniq ifodalarda namoyon bo‘ladi va so‘zlovchi lisoniy ongida aks etgan lisoniy hodisalarni keng doirada tadqiq etish bilan bog‘liq bo‘ladi. Inson omili, shaxs va til munosabatiga e’tibor kuchayib borayotganligi kognitiv tilshunoslik mazmun-mohiyatini voqelik faktlarini idrok etish, voqea-hodisalarning yuzaga kelish sabablarini bilish, tushunish, ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishga oid yangi tushunchalar va kategoriyalarning

---

<sup>12</sup> Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. -Тамбов, 2001. –С.8.

<sup>13</sup> Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика - психология - когнитивная наука // ВЯ № 4,1994.-С. 35.

<sup>14</sup> Болдырев Н. Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики / Вопросы когнитивной лингвистики. - 2004. - № 1 - С. 23.

hosil bo'lishiga zamin hozirlamoqda. Bu esa o'zbek kognitiv tilshunosligining mazmun mundarijasini aniq belgilab olish, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, o'ziga xos tadqiq va tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 1.Falsafiy asoslar deganda nimalarni tushunasiz?
- 2.Obyektga substansional yondashuvda nimalar hisobga olinadi?
- 3.Obyektning ziddiyatli tabiatini ochish deganda nimani tushunasiz?
- 4.Shakl va mazmun dialektikasini yoritib bering.
- 5.Kognitiv tilshunoslik nima, uning predmeti, maqsadi va vazifalarini tushuntiring.

### **3-mavzu: Tilshunoslik va mantiq. Mantiqiy kategoriyalarning tilshunoslikka tatbiq etilishi. Til birliklari va mantiqiy birliklar**

#### **Reja:**

- 1.Tilshunoslik va mantiq. Til va tafakkur, tilshunoslik va mantiq o'rtasidagi dialektik aloqa.
2. Til birliklari va mantiqiy birliklar.

*Tayanch so'z va iboralar: mantiq, tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa, so'z, so'z birikmasi, gap, subyekt, predikat, bog'lama*

**1.Tilshunoslik va mantiq. Til va tafakkur, tilshunoslik va mantiq o'rtasidagi dialektik aloqa.** Inson tafakkuri, zakovati – eng oliy ne'mat. Fikrlash qobiliyati esa insonning barcha muvaffaqiyatlari asosi. Tafakkur orqaligina u obyektiv borliqni taniydi, mantiqiy bilishga erishadi. Insonning ong va shuuri voqelikni idrok etish, qabul qilish jarayonini boshqaradi. Ong, tafakkur haqida fikr yuritar ekanmiz, bu murakkab insoniy hodisalarning nutq bilan, kishi, xalq tili bilan chambarchas bog'liq ekanligini, tilsiz tafakkur va tafakkursiz til mavjud emasligini yana bir karra ta'kidlash zarur. Ayni mana shu sabab

tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadordir. Tilshunoslik nazariyasiga oid manbalarda tilshunoslikning mantiq fani bilan aloqasi haqida quyidagicha fikrlar bildiriladi: “Til – fikr ifodalash quroli. Fikr esa mantiqda o‘rganiladi. Grammatikaning kategoriyalari mantiq kategoriyalarini ifodalaydi. Shunday ekan, grammatika va mantiq o‘rtasida ham bog‘liqlik bo‘lishi kerak”.<sup>15</sup> Mantiq faniga oid darsliklarda bu aloqadorlik haqida quyidagi fikrlar keltiriladi: “Fikrda ifoda qilinayotgan obyekt hamma vaqt ham unda chin fikr ko‘rinishida aks etmasligi mumkin. Uning sababi shundaki, fikrning chinligi muayyan darajada uni aks ettirayotgan til ifodasiga bog‘liq. Bu holat mantiqning lingvistika bilan aloqador ekanligini ko‘rsatadi. Mantiq mulohazalar implikatsiyasi bilan ish ko‘rar ekan, u bevosita fizikaviy yoki tarixiy hodisalar bilan bog‘liq emas. U faqat so‘zlar bilan ish ko‘radi. Va ana shuning uchun ham asosiy e‘tiborini so‘zning ma‘no-mazmuniga qaratadi. Bunday bo‘lishi tabiiy holdir”.<sup>16</sup>

Mantiq (logika) eng qadimgi fanlardan biri bo‘lib, uning asoschisi yunon faylasufi Aristoteldir. Logika (Logos) termini grek tilida “fikr”, “so‘z”, “aql”, “qonuniyat” kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Mantiq (logika) atamasi quyidagi ma‘nolarda qo‘llanadi: birinchidan, obyektiv olam qonuniyatlarini ifodalashda (masalan, “obyektiv mantiq”, “narsalar mantig‘i” kabi iboralarda; ikkinchidan, har bir insonning o‘ziga xos tafakkurlash usulini, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni anglatishda (masalan, “subyektiv mantiq” iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan ma‘nosida. Mantiq ilmining o‘rganish obyektini tafakkur tashkil etadi.<sup>17</sup> “Tafakkur” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi “fikrlash”, “aqliy bilish” so‘zlariga teng ma‘noli tushuncha sifatida qo‘llaniladi va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Tafakkur [a] - obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in‘ikosi jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati, fikrlash”, – deb ta‘riflanadi.<sup>18</sup> Tafakkur bilishning yuqori bosqichi -

<sup>15</sup> Баскаков Н., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979.–Б.10.

<sup>16</sup> Файзихўжаева Д. Мантиқ. Дарслик. –Тошкент, 2017. –Б.14.

<sup>17</sup> Файзихўжаева Д. Мантиқ. (Ўқув-услубий қўлланма) –Тошкент, 2011. –Б.7.

<sup>18</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II томлик, 2-том. –М.: Рус тили, 1981. –Б.133.

ratsional (lotincha ratio – aql) bilish bo‘lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlar aks ettiriladi. Manbalarda aqliy bilish, tafakkurlashning quyidagi asosiy xususiyatlari tilga olinadi:

1. Tafakkurda voqelik mavhumlashgan va umumlashgan holda in’ikos qilinadi. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o‘rtasidagi munosabatlar va bog‘lanish usullarini o‘rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o‘xshash va muhim belgilariga ko‘ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug‘iladi. Masalan, “o‘simlik” tushunchasida barcha o‘simliklar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ularga xos muhim, umumiy xususiyatlar (masalan, hujayradan tashkil topganligi) bilib olinadi.

2. Tafakkurda mavjud bilimlarga tayangan holda yangi bilimlar hosil qilinishi mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosa chiqarishda aniq namoyon bo‘ladi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, ob-havoning o‘zgarishiga qarab olinadigan hosil miqdori haqida fikr yuritish mumkin. Demak, tafakkurda borliq nafaqat bevosita, balki bilvosita ham aks eta oladi.

3. Tafakkur insonning ijodiy, konstruktiv faoliyatidan iborat. Bilish jarayoni borliqda real mavjud bo‘lmagan narsalarni fikrda yaratish, tushunchalarni shakllantirish, turli xil formal sistemalarni qurish orqali amalga oshadi. Natijada predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o‘rganish, hodisalarni oldindan ko‘rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tafakkur til bilan uzviy bog‘liqdir. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to‘lqinlari, grafik chiziqlari, qo‘l harakatlarida) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o‘zaro fikr almashish vositasiga aylanadi.<sup>19</sup>

---

<sup>19</sup> Файзихўжаева Д. Мантик. (Ўқув-услубий қўлланма) –Тошкент, 2011. –Б.7-8.

**2.Til birliklari va mantiqiy birliklar.** Tafakkur tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud bo‘ladi. Mana shu o‘rinda tafakkur til birliklari bilan bog‘liq, chunki tushuncha so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi. Til va mantiq o‘zaro zich bog‘langani sababli bir qator olimlar til kategoriyalarini mantiq kategoriyalariga qiyosan o‘rgandilar. Natijada tilshunoslikda mantiqiy yo‘nalish maydonga keldi va tilni mantiqiy kategoriyalar asosida o‘rganish, ayniqsa, XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha o‘z cho‘qqisiga ko‘tarildi. Bu davrda nutqning mantiqiy kategoriyalarga to‘la mos holda shakllanishini e‘tirof etgan holda, barcha tillar uchun umumiy, ratsional grammatika yaratish harakati kuchaydi. Bu yo‘nalish tarixi manbalarda berilgani bois, bu masalaga qayta to‘xtalishni joiz bilmadik.<sup>20</sup>

Aslida bu birliklar o‘zlariga xos xususiyatlarga ega. Mantiq shakllari tushuncha, hukm, xulosalar hamma xalqlar uchun umumiy bo‘lsa, ularning turli tillarda ifodalanish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun har bir tilning boshqasidan farq qiladigan o‘z grammatikalari mavjud. Mantiq fanining grammatika bilan bog‘liqligi shundaki, mantiq tafakkurning umumiy qoidalarini, tushuncha, hukm, ularning tarkibiy qismlari, o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi. Grammatika esa mantiq fani o‘rganuvchi hodisalarning shakliy ifodasini, tilning grammatik shakllarini o‘rganadi. Biz ularning farqini quyidagilarni qiyoslash orqali aniqlaymiz: a)mantiqiy kategoriya va lingvistik kategoriya; b)mantiqiy tushuncha va lingvistik so‘z; d) mantiqiy hukm va grammatik gap. Har qanday fanda kategoriyalar soni ko‘p, ammo hech qachon cheksiz bo‘lmaydi. Odatda har bir fan 10-15 tacha o‘ta umumiy kategoriyalar bilan ish ko‘radi. Bu kategoriyalar obyektiv va subyektiv tabiatga ega. Kategoriyalardagi obyektivlik shundan iboratki, har bir kategoriya borliqdagi biror elementning ma‘lum bir tomoni umumiyliги bilan uzviy aloqador, bog‘langan, belgilangan, shartlangan, asoslangan. Lekin bu aloqadorlik shu obyektivlikning ongdagi aksi, in‘ikosi orqali namoyon bo‘ladi. Bu fan

---

<sup>20</sup> Qarang: Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. –Тошкент: Шарқ, 2001.–Б.54-61; Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент, 2005. –Б.46-48.



kategoriyalaridagi subyektivlikni tashkil etadi. Har bir kategoriya, albatta, murakkab bo‘lib, ichki nisbiy butunlik va yaxlitlikka ega. U bir turli narsa, hodisa va munosabatlarning barqaror butunligidir. Shu asosda har bir fanda *kategorial ma’no* (vazifa/xususiyat kabi) tushunchasi mavjud. Kategorial ma’no deganda shu soha (masalan, til)ning ma’lum bir kategoriyasi uchun umumiy bo‘lgan, shu kategoriyaning ichki butunligini ta’minlaydigan umumiylik (mavjudot, belgi, xususiyat, munosabat, vazifa kabilar) tushuniladi. Kategorial ma’no har bir fanda faqat shu fan uchun xos bo‘lgan ifoda shakl va vositalariga ega bo‘lmog‘i shart. Agar shunday shakl va vositalar bo‘lmasa, demak, bu fanda shu kategoriya yo‘q yoki tamoman boshqa mohiyatga ega. Masalan, rus tilida morfologik rod kategoriyasi mavjud va bu tildagi ot turkumiga mansub har qanday so‘z uch roddan birining shakliga ega. Rod kategoriyasi maxsus qo‘shimchalar, aniqlovchi vazifasida kelgan so‘zlarning aniqlanmish ot bilan rod shakliga ko‘ra moslashuvi, kesim vazifasidagi so‘zning ega rodiga moslashuvi kabi shakllarda voqelanadi. O‘zbek tilida morfologik rod kategoriyasi yo‘q. Zarur bo‘lgan hollarda jins (biologik xususiyat) o‘ziga xos leksik (*erkak - ayol*) yoki leksik-sintaktik (*erkak o‘qituvchi - ayol o‘qituvchi*) yo‘l bilan ifodalanadi. Lekin o‘zbek tilida jinsni ko‘rsatuvchi vositalar ma’lum bir morfologik kategoriyaning tashkil etmaydi. Istalgan kategoriya butunlik va yaxlitlik bo‘lganligi sababli, albatta, murakkab – bir necha tashkil etuvchi – tarkibiy qism (element) lardan iborat bo‘ladi. Kategorial ma’no shu kategoriya elementlariga jins-tur (yoki tur-xil, yoki xil-ko‘rinish) obyektiv-mantiqiy aloqalari asosida bo‘linadi, lekin hech qachon kategoriya elementi kategorial ma’nodan butunlay tashqarida, unga nisbatan mutlaqo aloqasiz bo‘la olmaydi. Ko‘rinadiki, tilshunoslik fanining o‘ziga xos kategoriyalari – lingvistik kategoriyalarni to‘g‘ri aniqlash, ularning kategorial ma’nolarini belgilash, har bir lingvistik kategoriya uchun moddiy zamin (obyektiv asos) vazifasini o‘tovchi tegishli mantiqiy kategoriya bilan aloqadorligini tahlil etish usullari bilan tanishish tilshunos uchun zarur. Masalan, so‘z turkumlari kategoriyasi, egalik kategoriyasi, gap bo‘laklari kategoriyasi, kesimlik kategoriyasi kabi. Lisoniy kategoriya

birliklarining shakliy tomoni tilning ifoda tomoni xususiyatlari (segment va supersegment fonemalar, prosodik vositalar, o‘zak va qo‘shimchalarning xususiyatlari, agglyutinatsiya, fuziya, so‘z tartibi, imo-ishora kabi) bilan bog‘liq bo‘lsa, ularning semantik-funksional tomoni fanda mantiqiy kategoriyalar yoki tushunchaviy, mazmuniy kategoriyalar deb nomlanuvchi hodisa bilan aloqador. Dastlab atamaning o‘zi xususida to‘xtalish lozim. Mantiqiy (tushunchaviy, mazmuniy) kategoriya deganda, ma‘lum bir ma‘no, mazmunni atash bilan bog‘liq bo‘lgan shaklan rang-barang hodisalar tushuniladi. Mantiqiy kategoriya, odatda, grammatik ahamiyatga ega bo‘lgan (ya‘ni tilda o‘ziga xos fonetik, leksik, morfologik, sintaktik kabi vositalar bilan ifodalanuvchi) bir ma‘no – grammema asosida tuziladi. Bunday ma‘nolar xilma-xil bo‘lishi mumkin. Masalan, zamon, makon, jonli/jonsizlik, shaxs, inson/hayvon, egalik/qarashlilik, son/miqdor, daraja, yo‘nalish kabi. Til qurilishida bu ma‘nolar xilma-xil vosita bilan ifodalanadi. Deylik, o‘zbek tilida zamon ma‘nosi leksik (*kun, yil, oy ; endi, keyin*), morfologik (zamon shakllari, kelishiklar . . . ), leksik-morfologik (*urushda, kelganda. . .*), sintaktik (2016-yil 10-yanvar) kabi yo‘llar bilan beriladi. Mantiqiy kategoriya tilda turli vosita bilan berilganidek, ayni bir mantiqiy kategoriyaning bir tilda leksik usul bilan beriladigan ma‘nosi ikkinchi bir tilda grammatik usul bilan berilishi mumkin. Masalan, bir tarkiblilik va shaxssizlik (gap qurilishida eganing bo‘la olmasligi va harakat/holat subyektining majhulligi) rus tilida asosan shaxssiz fe‘llar, kesim mavqeyida kelganda ega bilan birika olmaydigan har xil so‘zlar bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida bu mantiqiy kategoriya ma‘nosi leksik emas, balki morfologik usul bilan beriladi. Shuning uchun mantiqiy kategoriyalar va ularning tillarda ifodalanish xususiyatlari haqida fikr bildirganda, masalaga ehtiyot bilan yondashish zarur. Bundan tashqari, til va tafakkur uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli mantiqiy kategoriyalarning hajmi va hatto turlari har xil tillar uchun bir xil bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, jonli-jonsizlik mantiqiy kategoriyasi rus tilida barcha otlarni ikkiga jonli va jonsiz predmetga ajratadi. O‘zbek tilida esa bu bo‘linish boshqacha. O‘zbek tafakkur tarzi jonli-jonsizlikni emas, odam-odam emaslikni farqlaydi. Yana bir misol.

O‘zbek ongi modda, ma’dan, xom ashyolarni alohida bir mantiqiy kategoriyaga ajratishni talab qiladi. Chunki bularni atovchi so‘zlar tilimizda qator grammatik xususiyatga ega. Qiyoslang: *cho‘yan pech - cho‘yan pechi*. Hukm va gap. Tushunchalar munosabatni, ya’ni narsa va hodisalarning obyektiv borliqdagi ziddiyatli tabiatini, ularning dialektik munosabatini ifodalash natijasida fikr paydo bo‘ladi. Fikr hukm orqali voqelanadi. Hukm fikr bo‘lib, unda biror narsa haqida nimadir tasdiq qilinadi yoki inkor etiladi. Fikrning manbai – real borliq. Masalan, *barglar shitirladi*. Real borliqda barglar va ularning harakati mavjud, borliqdagi bu predmet va uning harakati ongda aks etib, ikki tushuncha (predmet - barglar haqidagi tushuncha va uning belgisi – harakati haqidagi tushuncha) shakllanadi va bu tushunchalarning qo‘shilishi hukmni, fikrni keltirib chiqaradi. Demak, hukm biror predmet, voqea yo hodisa haqidagi tasdiq yoxud inkor fikrdir. Hukm hamisha ikki a’zoli bo‘lib, subyekt va predikat qismlardan iborat. Ba’zi olimlar hukm tarkibini uchga - subyekt, predikat va bog‘lamaga bo‘ladilar. Bunda o‘zbek tilida bog‘lama sifatida kesimlik ko‘rsatkichi *-dir* nazarda tutiladi. Hukmning 2 yoki 3 qismdan iboratligi – mantiq fanining o‘z ichki muammosi. Lekin tilshunoslik nuqtayi nazaridan fikr ifodasini uch tarkibli deb sanash ma’qul. Zero, hukmning tildagi muqobili – gapning kesim tarkibi hamisha murakkab bo‘lib, eng kichik ko‘rinishi “atov birligi+kesimlik ko‘rsatkichi” qurilishiga ega. Hukmning tilda ifodalanish shakli – gap. U kommunikativ (aloqa-aralashuv vazifasini bajaruvchi) birlik, ya’ni fikrni ifodalash va uzatish, fikr almashish uchun xizmat qiladi. Gap mantiqiy-predikativ munosabatning lisoniy ifodasi bo‘lgan ega-kesimning sintaktik bog‘lanishi natijasida yuzaga keladi. Demak, gap hukmning tildagi shakli, tafakkur mahsulini tilda ifodalash uchun xizmat qiladi. Gap – tugallangan ma’no va tugallangan ohangga ega bo‘lgan nutqiy birlik. Hukm va gapning o‘zaro munosabatini o‘rganar ekanmiz, avvalo, ular orasida quyidagicha mutanosiblikka e’tibor berish lozim: *Otam o‘qituvchidir* hukmi va gapida *otam* birligi mantiqan subyekt, grammatik jihatdan egadir. *O‘qituvchi* qismi mantiqan predikat, grammatik kesim bo‘lib, *-dir* mantiqan bog‘lama, grammatik jihatdan kesimlik ko‘rsatkichi – affiksdir. Yuqorida

keltirilgan hukm-gapda mantiqiy va grammatik hodisalarning o‘zaro mutanosibligi voqelangan. Mana shunday mutanosiblikni *Karimjon uxladi*, *Bola yuguryapti*, *Qizcha o‘qiyapti* kabi hukm-gaplarda ham ko‘ramiz. Hukm va gap tarkibiy qismlari orasida o‘zaro mutanosiblik mana shunday holatlar bilan cheklanadi, xolos. Ammo *chiroyli qizcha baland ovoz bilan kitob o‘qimoqda* gapida yuqorida ko‘rilgan mutanosiblik bo‘lmaydi, chunki bu gapning grammatik bo‘linishida ega va kesim kabi gap bo‘laklaridan tashqari aniqlovchi va hol bor. Mantiqan esa bu hukm subyekt (*chiroyli qizcha*), predikat (*baland ovoz bilan kitob o‘qi-*) hamda bog‘lama (*-moqda*) qismlaridan iborat. Shu asosda biz hukm va gap orasidagi quyidagi farqlarni ajratishimiz mumkin. *Birinchi*dan, hukm hamisha ikki asosiy va bir bog‘lama qismdan iborat, gap esa ega, kesimdan tashqari boshqa bo‘laklarni ham o‘z ichiga oladi. *Ikkinchi*dan, bir gapda (masalan, *O‘zbekiston - mustaqil respublika* gapida) mantiqiy urg‘u qaysi bo‘lakka qo‘yilishi va gapning aktual bo‘linishiga bog‘liq ravishda subyekt (aktual tema) mavqeyida ham, predikat (aktual rema) mavqeyida ham shu gap tarkibidagi har qanday tushuncha kela oladi, gap bo‘laklari mavqeyi esa (o‘rni va shakli o‘zgarmasa) barqarordir. *Uchinchi*dan, ayrim *Toqqa chiqiladi*, *Bu ishni tezda bajarish lozim* kabi shaxssiz gaplarda ega mutlaqo yo‘q va bo‘lishi mumkin ham emas. Ular bir tarkibli gaplardir. Hukm esa hech qachon bir tarkibli bo‘lmaydi. Yuqorida keltirilgan gaplarda ifodalangan hukm majhul (noma’lum, noaniq, lekin mavjud) subyekтли hukm sanaladi. Demak, gap bir tarkibli ham, ikki tarkibli ham bo‘la oladi, hukm esa hamisha ikki tarkibli.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tilshunoslikning mantiq bilan munosabati deganda nimalar inobatga olinadi?
2. Tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari va tarkibiy qismlarini sanang.
3. Mantiqiy va grammatik kategoriyalarning umumiy jihatlari bormi?
4. Mantiqiy va grammatik kategoriyalarning farqli jihatlari misollar bilan ko‘rsatib bering.

#### **4-mavzu: Tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan munosabati.**

##### **Tilshunoslik va tarix. Tilshunoslik va etnografiya**

##### **Reja:**

1. Tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan munosabati. Tilshunoslik va tarix.

2. Tilshunoslik va etnografiya. Etnolingvistika.

**Tayanch tushunchalar:** *Tilshunoslik, tarix, til tarixi, etnografiya, etnolingvistika, antropolinvestika, lingvokulturologiya, folklor*

Tarix kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlarini o'rganuvchi fandır. Jamiyatimiz, xalqimiz qanday tarixiy jarayonlarni bosib o'tgan bo'lsa, til ham jamiyatning aloqa-aralashuv quroli sifatida ana shu taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan, tarixiy voqealarni, jamiyatdagi o'zgarishlarni o'zida aks ettirgan. Shu sababdan tilshunoslik va tarix sohasi bir-bilan chambarchas bog'liq. Bu fanlarning o'rganish obyekti, vazifalari har xil bo'lsa-da, shu vazifalar yechimida biri ikkinchisiga yordam beradi. Masalan, tarixning muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, tarixiy yodgorliklar ojizlik qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Ayni paytda, ma'lum lingvistik faktlarni tarixiy materiallarga suyanmasdan turib izohlash yetarli bo'lmaydi. Bu esa jamiyat tarixi bilan shu jamiyat tilining va ularni o'rganuvchi tarix fani bilan tilshunoslik fanining naqadar aloqador ekanini ko'rsatadi.

Tarix fani til tarixini, taraqqiyot bosqichlarini o'rganishda zarur bo'lib, til tarixi jamiyat tarixining tarkibiy qismi, shuning uchun til tarixini jamiyat tarixidan uzilgan holda o'rganish mumkin emas. Tilda mavjud bir qator hodisalar mohiyati jamiyat tarixi asosida ochiladi. Masalan, tilimiz tarixiy taraqqiyotini davrlashtirish muammolari, til birliklarining tarixiy shakllari, so'zlarning ma'no taraqqiyoti, so'zlar etimologiyasi, joy nomlari, millat, urug', qabila nomlarining ma'nosi, nomlanish tarixini o'rganishda tarixiy faktlarga tayanamiz: "Turkiy, xususan, o'zbek xalqining etnogenezi aniqlash tarixchilar, etnograflar, arxeologlar, tilshunoslar va adabiyotshunoslar shunga o'xshash soha

olimlarining birgalikda ish olib borishlarini talab qiladi. Masalan, hozirgi zamon Oʻrta va Markaziy Osiyo xalqlarining etnogenezini bilish – shu hududda qadimda yashagan xalqlar – saklar(skiflar), massagetlar, sugʻdlar, kushonlar (yoki toxarlar), xunlar hamda boshqa qoʻshni xalqlarning tarixini oʻrganish bilan bogʻliqdir”.<sup>21</sup> Yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy hodisalar, jamiyat hayotidagi turli xil yangiliklar shu jamiyat tilining lugʻat tarkibida oʻz ifodasini topgani tufayli til sistemasining leksik sathi boshqa sath birliklariga nisbatan koʻproq jamiyat tarixi bilan bogʻliq boʻladi. Agar eʼtibor bersak, har bir tarixiy evrilishlar tilga oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Masalan, Turk hoqonligi davri tili, qoraxoniylar davriga qadar juda katta oʻzgarishlarga yuz tutmagan boʻlsa, qoraxoniylar sulolasining Oʻrta Osiyoda yuqori mavqega ega boʻlishi, davlatimiz tarixida alohida oʻrin egallagani tilga ham taʼsir koʻrsatgan. Ushbu davrda tilimiz fonetikasi, leksikasi, grammatikasida katta oʻzgarishlar roʻy berib, qadimgi turkiy til eski turkiy tilga oʻz oʻrnini boʻshatib bergan. Buning asosiy sabablarini tushunishda bizga tarix fani koʻmak beradi. Arab, fors-tojik tilining taʼsiri, moʻgullar bosqini, etnik qavmlarning alohida millat boʻlib shakllanish jarayoni sabab tilimizning tarixiy taraqqiyotida yana bir bosqich “Eski oʻzbek tili” davri shakllandi, taraqqiy etdi. Ruslar istilosidan soʻng nafaqat tilimiz leksikasida, balki grammatikasida ham oʻzgarishlar yuz berdi. XX asrning 20-yillaridan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” shakllandi. Tildagi bu kabi oʻzgarishlarni sharhlashda, albatta, tarix fani yutuqlariga tayanamiz. Shu bilan bir qatorda tarix fani ham tilshunoslik materiallariga tayanadi va ayni damda til materiallarini oʻrganish tarixning uch xil muammosini hal qilishda yordam berishi mumkin: 1) xalqning kelib chiqishi 2) tarixiy taraqqiyotning turli bosqichida xalq madaniyati holati 3) boshqa xalqlar bilan munosabati. Quyidagi fikrlar mulohazalarimizni asoslaydi: “Tillar xalqning yozuv va sanʼat paydo boʻlgungacha yaratgan eng qadimgi yodgorliklari hisoblanadi. Tillar xalqlarning kelib chiqishi, qarindoshligi va joylashuvi toʻgʻrisida eng yaxshi guvohlik beradi”.<sup>22</sup>

<sup>21</sup> Abdurahmonov Gʻ., Shukurov Sh., Mahmudov Q. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. –Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –B.10.

<sup>22</sup> Туймабаев Ж. Становление и развитие алтайской теории и алтаистики. –Туркистан, 2006. –Б.46.

Xullas, tilshunoslik sohasi bilan tarix sohasi bir-biri bilan uzviy bogʻliq. Shu bilan barobarida til shu til egasi boʻlgan xalq bilan uzviy aloqadadir. Xalq tarixidagi har bir voqea, urf-odatlar, turmush tarzi uning tilida aks etadi. Tilshunos olim N.Mahmudov taʼkidlaganidek: “Xalq tushunchasining toyilmas tirgagi, uning tafakkur va taxayyul olamining ustuvor ustuni ona tilidir, chunki shu til, avvalo, olomon shaklidagi odamlarni yaxlit qavm oʻlaroq birlashtiradi, bu qavmning dunyoni bilish, anglash tarziga muntazam shamoyil beradi, shu tariqa uni tamaddun otligʻ buyuk neʼmatning oliy arshiga olib chiqadi. Biron-bir til va xalqni bir-biridan ayro holda tasavvur etish nomumkin yumushdir. Tilsiz xalq va xalqsiz til tushunchalari mohiyatdan mutlaqo mahrumdir. Xalq tilning tillo beshigida balogʻatga yetadi, til esa oʻz sohibi boʻlmish xalqning qalbidan kuch oladi, uning ardogʻida tarovat topadi. Til xalq birligining, xalq esa til barhayotligining poydor posbonidir”.<sup>23</sup> Shuning uchun til bilan shu til egasi boʻlgan etnos oʻrtasida qanday mustahkam aloqa mavjud boʻlsa, ularni oʻrganuvchi tilshunoslik bilan xalq tarixi va etnografiya oʻrtasida ham shunday aloqa bor.

Tilning shu til egasi boʻlgan etnos madaniyatiga munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida til bilan etnomadaniyat, etnopsixologik omillar oʻrtasidagi aloqani oʻrganishga ehtiyoj tufayli etnolingvistika yoʻnalishi vujudga keldi. Sohaning oʻrganish obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari xususida manbalarda quyidagicha fikrlar bildirilgan: Etnolingvistika – makrolingvistikaning til bilan xalq oʻrtasidagi munosabatlarini, tilning faoliyati va taraqqiyotida lingvistik va etnik omillarning oʻzaro taʼsirini oʻrganuvchi boʻlimi.<sup>24</sup> Etno... (yun. ethnos — qabila, elat, xalq) — oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning birinchi qismi; elat, xalq va ularga oidlik maʼnolarini bildiradi (mas, etnogenez, etnografiya). ...Etnolingvistika (etno... va lingvistik) — tilshunoslikning til va til egasi boʻlgan xalq orasidagi bogʻliqlik hamda munosabatlarni, til rivoji, vazifaviy xususiyatlariga lisoniy, etnik

---

<sup>23</sup> Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. –Б.3

<sup>24</sup> Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. –Б.178.

omillarning birgalikdagi ta'sirini o'rganuvchi sohasi. Til bilan etnik xususiyatlarning o'zaro munosabati, bir-biriga ta'siri ikki tomonlama bo'ladi: etnik omillar (etnosning urf-odatlarini, milliy an'analarini, falsafiy, diniy qarashlari va b.)ning tip rivojiga ta'siri va, aksincha, til vazifaviy imkoniyatlarining etnos va etnik xususiyatlarning shakllanishiga ijobiy ta'siri. Etnolingvistika til va uning rivojiga turli etnik guruhlarining qanchalik hissa qo'shganini, bu jarayonda etnoslar orasidagi yaqinlik, mushtaraklik yoki ularning bir-biridan ajralish, uzoqlashish xususiyatlarini tadqiq qiladi. Tilshunoslikning etnik onomastika, areal lingvistika, lingvistik geografiya, dialektologiya, til tarixi, sotsiolingvistika, xaritashunoslik sohalari etnolingvistika erishgan ilmiy natijalardan foydalanadi. Etnolingvistika ayniqsa, yozuvga ega bo'lmagan xalqlarning etnografiyasini o'rganishda, ularning tillaridagi etnik xususiyatlar bilan bog'liq lisoniy materiallarni to'plash va tadqiq qilishda qo'l keladi.<sup>25</sup>

Etnolingvistika mustaqil lingvistik yo'nalish sifatida XIX asrning 70-yillarida Shimoliy, keyinroq Markaziy Amerikadagi hindu qabilalarining tili, madaniyati, urf-odatlarini o'rganishning kuchayishi bilan paydo bo'ldi. Lekin mazkur yo'nalishning ilk davrida ko'proq etnografiya masalalariga diqqat jalb qilindi, faqat asrimizning 20-yillarida lingvistik tomoniga e'tibor kuchaytirildi. Etnolingvistikaning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanishida Amerika tilshunosi va etnografi F.Boas va uning o'quvchilarining xizmati katta bo'ldi. Tilshunoslikda etnolingvistika o'g'id qarashlar, ya'ni til va madaniyat, til va inson omili, til va tarix masalalari bilan dastlab Yevropa va rus tilshunoslari V.fon Gumboldt, A.Vaysgerber, L.Blumfeld, E.Sepir, Boduen de Kurtene, A.Potebnya, A.Shaxmatov, N.Xomskiy, U.Cheyf, B.Serebrennikov, L.Shcherba, Yu.Stepanov, I.Galperin, N.Karaulov, N.Jinkin, A.Leontev, J.Lakoff, T. van Deyk, A.Vejbitskaya, E.Kubryakova, E.Rosh, V.Belyanin, V.Demyankov, V.Maslova, T.Dridze, K.Sedov, o'zbek tilshunoslari A.Nurmonov, N.Mahmudov, E.Begmatov, S.Mo'minov, Sh.Safarovlar shug'ullanishgan.

---

<sup>25</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 10-жилд. Шарқ – Қизилқум. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2005. –Б.285.



Etnolingvistika sohasining predmeti dastlabki davrlarda tillar tasnifi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tillarning va madaniyatlarning o'zaro ta'siri, bilingvizm masalalari, til taraqqiyotiga ijtimoiy madaniyatning ta'siri kabi muammolar ham etnolingvistikaning o'rganish doirasiga kiritilgan. Shuningdek, turli etnik guruhlarda qo'llaniladigan paralingvistik vositalar, folklor materiallarini o'rganish ham etnolingvistika obyekti sanaladi. Xususan, asrimizning 70-80-yillarida folklor materiallariga e'tiborning tortilishi til va madaniyat o'rtasidagi aloqaning yangi turlarini ochishga imkoniyat yaratdi va bu bilan etnolingvistikaning o'rganish doirasini kengaytirdi. Hozirgi kunda etnolingvistika dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida tilshunoslikning bir yo'nalishi sifatida e'tirof etildi va bu yo'nalish bo'yicha keng tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarix fani va tilshunoslikning o'zaro bog'liqligini tilshunoslikning qaysi sohalarida kuzatasiz?
2. Tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar til tarixini yoritishda xizmat qilishi mumkinmi?
3. Etnolingvistika fani nechanchi asrda shakllandi? Uning shakllanishida qaysi olimlarning xizmati bor?
4. Etnolingvistika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

## **5-mavzu: Tilshunoslik va sotsiologiya. Sotsiolingvistika**

### **Reja:**

1. Sotsiolingvistika. Sotsiolingvistika fanining shakllanish tarixi.
2. Sotsiolingvistika fanining o'rganish obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.

*Tayanch so'z va iboralar: til, inson, jamiyat, til siyosati, diskurs tahlili, til me'yori, variantlilik, diglossiya, bilingvizm*

**1. Sotsiolingvistika. Sotsiolingvistika fanining shakllanish tarixi.**  
Har qanday jamiyat hayoti va taraqqiyotida tilning o'zini katta

ahamiyatga ega ekanligi, har qanday jamiyatning ilmiy asoslangan til siyosatiga ehtiyoji barchaga ma'lum. Shu bilan bir qatorda tilning yashashi va rivojlanishi shu jamiyat bilan uzviy bog'liq. Chunki til o'zining muloqot, bilish, ifoda vazifalarini bajarishi uchun uning o'z hududi, bu hududda yashovchi jamiyat, jamiyatning iqtisodiy bazasi bo'lishi kerak, zero, bu hudud, sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ma'naviy-mafkuraviy siljishlar tilga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bundan tashqari fan-texnika taraqqiyoti, globallashuv jarayoni ham tilga ta'sir qiladi. Mana shu kabi tilning jamiyat bilan bog'liq jihatlarini o'rganuvchi soha sotsiolingvistika sohasi bo'lib, sotsiolingvistika termini lotincha *socialic* – jamiyat va lingua – til so'zlaridan tashkil topgan. Bu termin fanga birinchi marta 1952-yilda amerikalik sotsiolog G.Karri (Currie 1952) tomonidan kiritildi. J.A.Fishmanning “Til jamiyatidagi ma'ruzalar” (“Readings in the Society of Language”) nomli to'plamiga kirgan. 50-yillarning lingvistlari, sotsiologlari, madaniyatshunoslari, dialektologlari va kommunikatsiya (muloqot) sohasi mutaxassislarining maqolalarida sotsiolingvistikaga oid muammolar ko'tarib chiqildi.

Sotsiolingvistika o'z o'rganish obyekti bilan “sof” lingvistikadan farqlanadi. “Sof” lingvistika lisoniy belgilarni, chunonchi, tovush va uning yozma ifodasini, uning boshqa belgilar bilan o'zaro munosabatini, vaqt va zamonda o'zgarishini tahlil qilish bilan shug'ullansa, sotsiolingvistika insonlar mazkur lisoniy belgilarni ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, bilimi va madaniyatlilik darajasiga ko'ra qanday qo'llashlarini, ya'ni ijtimoiy muhitning ularning nutqiy muomalasiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Masalan, “sof” lingvistikada *tomi ketmoq* iborasi ot va fe'ldan tarkib topgan frazeologik birlik sifatida talqin qilinsa, sotsiolingvistikani mazkur ibora qaysi tabaqa vakilining so'zlashuv nutqida qo'llanilgani qiziqtiradi.

Sotsiolingvistika sohasi shakllanishi va bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borilishi XX asrning 50-yillariga tog'ri kelsa-da, tilning jamiyatdagi o'рни, ijtimoiy turli-tumanligi haqidagi fikrlar qadimdan bo'lgan. Bu haqida sharq mutafakkirlari, jumladan A.N.Forobiy,

A.R.Beruniy, M.Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, A.Navoiy kabi allomalarimiz o'z qarashlarini bayon qilgan va o'z asarlarida til odobi, nutq madaniyati, tilning kommunikativ xususiyatlari haqida fikr-mulohazalarini bildirganlar.<sup>26</sup> Tilning jamiyatdagi o'rni haqida "Kultegin" bitiktoshida ham o'ziga xos qarash bor, ya'ni unda turkiy xalqning Tabg'ach xalqiga aldanib qolishida ularning shirin so'ziga ishonganliklari ham sabab etib ko'rsatiladi va dushmanning tiliga ishonib, aldanib qolmaslik uqtiriladi: Tabg'ach budun so'zi chuchuk, og'izi yumshoq ermish, suchuk so'zi, yumshoq qiliq-la aldab, yiroq budunni ancha yaqinlatar ermish.<sup>27</sup> Abu Nasr Forobiy tilning ijtimoiy mohiyati xususida: "Inson insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlashga muhtojdir, har bir insonning tabiatida boshqa bir kishi yoki ko'pchilik bilan fikrlashish, o'zaro lisoniy aloqa qilish xususiyati bor", - degan fikrlarni keltirsa, Abu Rayhon Beruniy: "Til so'zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir. Shuning uchun til zamonning bir onidek, turg'un qismi kabi cheklanib qoladi", - deydi.<sup>28</sup>

Алишер Навоий "Muhokamatul-lug'atayn" asarida tilning ijtimoiy vazifalarini juda to'g'ri belgilagan: "Va bu so'zning (Alloma til ma'nosida so'z atamasini qo'llagan) tanavvui taaqquldin nari va tasavvurdin tashqaridadur. Agar mubolag'asiz ijmol yuzidin qalam surulsa va ixtisor jonibidin raqam urulsa, yetmish ikki nav' bila taqsim toparida xud hech so'z yo'qturki, yetmish ikki firqa kalomig'a dalolat qilg'ay; ammo ulcha tafsiliydur. Uldurki, rub'i maskunning yetti iqlimidan har iqlimda necha kishvar bor va har kishvarda necha shahr va qasaba va kent va har dashtda necha xayl-xayl sahronishinin ulus va har tog'ning qo'llarida va qullalarida va har bahrning jazoyirida va savohilida ne tavoyif bor. Har jamoat alfozi o'zgaridid va har guruh iborati yonalaridin mutag'ayyir va bir necha xususiyat bila mutammayizdurki, o'zgalarda yo'qtur".<sup>29</sup> Tillarning turli-tumanligi, milliy tillardan tashqari sheva, jamoa, guruh tillari mavjudligi haqidagi

---

<sup>26</sup> Исломов Ў. Алишер Навоий асарларида нутқ маданияти талқини: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2011. –Б.7-12.

<sup>27</sup> Қаюмов А. Қадимият обидалари. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –Б.135.

<sup>28</sup> Абу Райҳон Беруний. Ҳикматлар. –Тошкент: Ёш гвардия, 1973. –Б.22.

<sup>29</sup> Алишер Навоий. Муҳокамату-л-луғатайн. –Тошкент: Akademnashr, 2017. –Б.29-30.

Navoiyning ushbu fikrlari Yevropa olimlarining bu boradagi fikrlari bilan hamohangdir. Jumladan, Ispaniya Salaman universiteti professori Gonsalo de Korreas tilning ijtimoiy turli-tumanligi xususida shunday yozgan: “Tilda viloyatlardagi dialektlardan tashqari, mazkur viloyatlarda yashovchilarning yoshi, mavqeyi, mol-mulki bilan bog‘liq ayrim shakllar ham mavjud bo‘ladi. Bular: qishloq aholisi, avom xalq, shaharliklar, zodagonlar, saroy ahli, tarixchi olimlar, din arboblari, qariyalar, erkaklar, ayollar va hatto, bolalarning tillaridir”.<sup>30</sup>

Yuqorida keltirilganidek, bu soha ildizlari tarixga borib taqalsada, fan sifatidagi rivoji o‘tgan asrga borib taqaladi. Bu sohaning alohida yo‘nalish sifatida shakllanishida rus tilshunoslari I. A. Boduen de Kurtene, Y.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, A.M. Selishev, G.O.Vinokur, fransuz tilshunoslari F.Bruno, A.Meye, P.Lafarg, M.Koen, shved tilshunoslari Sh.Balli, A.Seshe; belgiyalik tilshunos J.Vandries, chex tilshunoslari B.Gavranek, A.Mateziuslarning ilmiy g‘oyalari turtki bo‘ldi. Binobarin, A. Meyening til – jamiyat hayoti bilan bevosita aloqada bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lgani uchun uning rivojlanishida differentsiatsiya va unifikatsiya jarayonlari mavjudligi; Sh.Ballining tilning barcha vositalari muloqot doirasiga ko‘ra taqsimlanishi, bunday taqsimlanishda ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlikning salmoqli o‘rin tutishi; rus va chex tilshunoslarining yagona milliy til egalarining ijtimoiy mavqeyiga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy differentsiatsiya; Y.D.Polivanovning jamiyatning tilga ta’siri to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lmasligi, jamiyatdagi o‘zgarishlarning til evolyutsiyasini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkinligi haqidagi, shuningdek, hududiy dialektologiya bilan birga, ijtimoiy dialektologiyaning ham muhimligini asoslash; B.A. Larin, V.M.Jirmunskiy, D.S.Lixachevlarning milliy til ichki tizimini tushunishda jargonlar, argolar va tilning boshqa kodlashmagan sohalarini o‘rganishning muhimligi to‘g‘risidagi g‘oyalari shular jumlasidandir.<sup>31</sup>

---

<sup>30</sup> Степанов Г. В. Типология языковых состояний и ситуаций в странах романской речи. -М., 1976. –С. 22.

<sup>31</sup> Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. –М., 2001. – С. 7.

XX asrning birinchi yarmidagi sotsiolingvistika diaxron jihatdan talqin qilingan bo'lsa, ya'ni unda til evolyutsiyasi bilan jamiyat rivojlanishining bog'liqligiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmidagi sotsiolingvistik tadqiqotlar sinxron xarakterga ega bo'lib, ularda til strukturasi unsurlari bilan jamiyat strukturasi unsurlari orasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.

**2. Sotsiolingvistika fanining o'rganish obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.** Sotsiolingvistikaning obyektini belgilashda tilshunoslarni ikki guruhga ajratish mumkin. Tilshunoslarning bir guruhi butun tilga tegishli bo'lgan ijtimoiy jarayonlarni, til va jamiyat munosabatlarini o'rganishadi. Biroq nutq so'zlovchisiga, tilning kelib chiqishiga, uning umumiy xususiyatlariga munosabat bildirishmaydi. Boshqa bir guruh tilshunoslar esa turli tillarning individual variantlilikiga va mikrojarayonlar (shaxslararo muloqot, kichik guruhlar muloqoti)ga e'tibor qaratishadi.

U.Brayt fikriga ko'ra, sotsiolingvistik tadqiqotlar til va jamiyat munosabatlari bilan bog'liq bo'ladi. Biroq bunday qarash ham noaniqlikni keltirib chiqaradi. Agar biz bunga aniqlik kiritadigan bo'lsak, unda til va jamiyat shunchaki qandaydir birliklarning majmuyi emas, balki ular struktura hisoblanadi. Mazkur holatda sotsiolingvistning vazifasi til strukturasi va ijtimoiy strukturadagi o'zaro munosabatlar tizimini ochib berish bo'ladi. Ya'ni sotsiolingvistlarning vazifasi lingvistik strukturaning sistematik qo'shma variatsiyalashuvini ko'rsatib berish, hatto, u yoki bu yo'nalishning tasodifiy aloqasini ochib berishdan iboratdir. Sotsiolingvistikaning asosiy vazifalaridan biri mazkur variatsiyalarning haqiqatan ham "erkin" emasligi, ularni sistematik, sotsial farqlar bilan o'zaro aloqada ekanligini ko'rsatib berishdir. Til farqliligini ana shunday keng planda tushunish sotsiolingvistikaning asosiy obyekti sanaladi.<sup>32</sup>

Fransuz tilshunoslarining fikricha, diskurs tahlili, til me'yori, variantlilik, diglossiya kabi muammolar sotsiolingvistikaning obyekti hisoblandi.

---

<sup>32</sup> Брайт У. Введение: параметры социоллингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. - М., 1975. - С. 34-41.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy funksiyalarini, shuningdek, ijtimoiy omillarning tilga ta'sirini o'rganadigan fandır. Ikki yoki uch til amal qilayotgan jamiyatlarda sotsiolingvist quyidagi savollarga javob olishi uchun bir necha til funksiyalari mexanizmini ularning o'zaro ta'sirida tadqiq qilishi lozim. Ular ijtimoiy hayotning qaysi sohalarida qo'llaniladi? Mavqeyi va funksiyalariga ko'ra ular orasidagi o'zaro munosabat qanday bo'ladi? Qaysi til "hukmronlik qiladi", ya'ni qaysi til davlat tili yoki asosiy muloqot vositasi sifatida rasman qabul qilingan va qaysi tillar so'zlashuv tili hisoblanadi? Ikki tillilik qanday sharoitlarda va qaysi shakllarda yuzaga keladi? Bunga o'xshash savollarga javob berish sotsiolingvistikaning vazifasiga kiradi.<sup>33</sup>

Demak, sotsiolingvistikaning obykti til yoki tillarning ijtimoiy faoliyatidir. Til muayyan ijtimoiy strukturaga ega bo'lgan jamiyatda faoliyat ko'rsatadi, shunga ko'ra, sotsiolingvistikani tilni ijtimoiy kontekstda o'rganadigan fan deyish mumkin. Hozirgi kunda soha o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi? Bu haqida quyidagi fikrlar diqqatga molikdir: "O'z mustaqilligiga erishgan davlatlarning o'z milliy adabiy tillarini yaratish, yozuvni asoslash, uni mukammallashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti, xalqaro savdo-sotiqning kengayib borishi, bir tomondan, tillarda baynalmilal so'zlar sonining oshib borishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy tillar bilan xalqaro til vazifasini o'tayotgan tillar o'rtasidagi to'qnashuvlarga, til chatishuvlariga (kreollashtirish, pijinlashtirish) sabab bo'lmoqda. Bu masalalar bilan ijtimoiy tilshunoslik shug'ullanishi, mazkur hodisalarning qonuniyatlarini ilmiy ravishda ochib berishi zarur".<sup>34</sup> Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, sotsiolingvistikaning predmetini qisqacha "inson va jamiyat", deb belgilash mumkin hamda ushbu soha bugungi kunda davr talabidan kelib chiqqan holda katta odimlar bilan taraqqiy etayotgan soha ekanligini ta'kidlab o'tish zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

---

<sup>33</sup> Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. –М., 2001. –С. 9.

<sup>34</sup> Аликулов З., Боймирзаева С. Социоллингвистика. –Самарқанд, 2010. –Б.75.

1. Tilning ijtimoiy mohiyati xususida allomalarimizning fikrlaridan namuna keltiring.

2. “Sotsiolingvistika” fani qachondan boshlab shakllangan?

3. “Sotsiolingvistika” fanini rivojida kimlarning hissasi bor?

4. “Sotsiolingvistika” atamasi kim tomonidan kiritilgan?

5. “Sotsiolingvistika” fanining predmeti, obykti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

## **6-mavzu: Tilshunoslik va madaniyatshunoslik. Lingvokulturologiya**

### **Reja:**

1. “Madaniyat” tushunchasi. Jamiyat, madaniyat va inson.

2. Til va milliy madaniyat mushtarakligi.

3. Lingvokulturologiya insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fan sifatida.

*Tayanch soʻz va iboralar: til, madaniyat, inson, jamiyat, tamaddun, madaniyatlilik, olamning lisoniy manzarasi, muqobilsiz leksika va lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, maqol va matallar, frazeologik birliklar, oʻxshatishlar, ramzlar, stereotiplar, metafora va obrazlar, nutqiy muomala madaniyati*

**1. “Madaniyat” tushunchasi. Madaniyat va inson.** Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli koʻrinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va maʼnaviy boyliklarda ifodalanadi. “Madaniyat” tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (oʻzbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining oʻziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qoʻllaniladi. Tor maʼnoda “madaniyat” termini kishilarning faqat maʼnaviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

“Madaniyat” arabcha madina (shahar) so‘zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini *badaviy* yoki *sahroi* *turmush*; ikkinchisini *madaniy turmush* deb ataganlar. Badaviylik – ko‘chmanchi holda dasht-u sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik – shaharda o‘troq holda yashab, o‘ziga xos turmush tarziga ega bo‘lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.<sup>35</sup>

“Madaniyat” (arabcha “madaniyat” – madinalik, shaharlik; ta’lim-tarbiya ko‘rganlik) so‘zi musulmonlarning aziz tutadigan joyi – Madina shahri nomidan kelib chiqqan, chunki ilk musulmonlar ta’lim-tarbiyani asosan Madinada olganlar.<sup>36</sup>

O‘zbek tilida *madaniyat* so‘zi (arab. – sivilizatsiya) quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi: 1) jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari; 2) biror ijtimoiy guruh, sinf yoki alqning ma’lum davrda qo‘lga kiritgan shunday yutuqlari; 3) o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik, ma’rifat; 4) madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit; 5) qishloq xo‘jaligida o‘simlik yoki ekin turlarini o‘stirish, yetishtirish.<sup>37</sup>

Yevropada “madaniyat” deyilganda, dastlab insonning tabiatga ko‘rsatadigan maqsadga muvofiq ta’siri, shuningdek, insonga ta’lim-tarbiya berish tushunilgan (lot. *cultura* - yerni ishlash, parvarishlash; tarbiya, rivojlanish, hurmatlash, ehtirom; ruschadagi “kultura” so‘zi ham shundan olingan).

XVIII asrdan e’tiboran *kultura* so‘zi bilan insonning faoliyati, uning aniq bir maqsadga yo‘nalgan fikrlashi tufayli yuzaga kelgan barcha narsalar tushunila boshlangan. Biroq mazkur so‘z dastlab “insonni tabiatga ta’siri, inson manfaatlari yo‘lida tabiatni o‘zgartirish, ya’ni yerni ishlash” ma’nosida qo‘llanilgan. *Kultura* – ijtimoiy-gumanitar bilishning fundamental tushunchalaridan biri sanaladi. Mazkur so‘z XVIII asrning ikkinchi yarmi (“Ma’rifat asri”)dan boshlab ilmiy termin sifatida iste’molga kirgan.<sup>38</sup> Madaniyat faqat mavjud

<sup>35</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 5-жилд. –Т.: ЎЗМЭ, 2003. – Б. 372-373.

<sup>36</sup> Абдуллаев М., Абдуллаева М., Абдураззокова Г. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. –Т.: Шарқ, 1998. –Б.104.

<sup>37</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II. – Т.: ЎЗМЭ, 2006. – Б. 521.

<sup>38</sup> Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М., 2001. –С.12.



me'yor va urf-odatlariga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag'batlantirishni ham o'z ichiga olgan. Demak, madaniyat biologik mahsulot emas, balki ijtimoiy mahsulotdir.

Madaniyat moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy va o'zaro munosabatlar, siyosat, oila, axloq, xulq, huquq, ta'lim, tarbiya, ijod, ilm-fan, xizmat ko'rsatish, turmush tarzi kabilar bilan bog'liq keng qamrovli voqeadir. Shuning uchun u jamiyat bilan birga rivojlanadi, jamiyatning taraqqiyot darajasini aks ettiradi. Jamiyatdan tashqarida madaniyat yo'q. Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday o'zgarish madaniyatga ta'sir ko'rsatadi va u bu munosabatlarning qanday natijalarga olib kelishidan xabar beradi. Shu boisdan madaniyat nafaqat o'tmish yoki bugunga, balki kelajakka munosabatdir.

Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichidir. Shu bilan birga insonning o'zi ham, pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Hatto, aytish mumkinki, madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi.

Madaniyatning ijodkori, eng avvalo, xalqdir. Xalq madaniyatida avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar jamlangan. Ularni o'zlashtirmay, bilmay turib madaniyatli kishi bo'lib yetishish qiyin. Shuning uchun barkamol insonni shakllantirishda madaniyatning o'rnini katta.

**2.Til va milliy madaniyat mushtarakligi.** Til madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi. Til madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi. Til – madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi. Agar tilga uning strukturasi, vazifalari va uni o'zlashtirish jihatidan qaraladigan bo'lsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning komponenti tilning tarkibiy qismi bo'ladi. Ayni paytda madaniyatning komponenti til orqali xabar qilinadigan qandaydir

madaniy informatsiya emas, u tilning barcha sathlariga tegishli bo'lgan ajralmas xususiyatdir. Til – kishilar oqimini xalqqa aylantiradigan, mazkur nutq jamoasining o'zini o'zi anglashi, madaniyati, an'analarini saqlashi va ularni meros qilishi orqali millatni shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vositadir. Olimlarning quyidagi fikrlari bu mulohazalarimizni asoslaydi: “Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o'rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo'yuvchi vosita bo'lishiga yordam beradi. Til – uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko'rsatadi. Xalqning o'ziga xos asosiy xususiyati bo'lgan tilga “ichki” va “tashqi” jihatdan yondashish mumkin. Tilga “ichki” jihatdan yondashilganda, u etnik integratsiyaning bosh omili sifatida namoyon bo'lsa, “tashqi” jihatdan yondashilganda, u xalqning etnik farqlarini ko'rsatadi. Bu ikki qarama-qarshi funktsiyani o'zida dialektik birlashtirgan til bir tomondan xalqning o'z-o'zini saqlash vositasi, ikkinchi tomondan uni “o'ziniki” va “begona”ga ajratish vositasi bo'lib xizmat qiladi”.<sup>39</sup>

**3.Lingvokulturologiya insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fan sifatida.** So'nggi yillarda til va madaniyat masalalarini o'rganuvchi fan sifatida lingvokulturologiya fani shakllandi. Lingvokulturologiyaning obyekti – madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir.<sup>40</sup> Lingvokulturologiyaning predmeti madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Bunda muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o'zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo'lishi mumkin, ma'lum bir odat frazeologizmga, maqolga, matalga aylanishi mumkin. Demak, muqobilsiz leksika va lakunalar (*palov, patir, sumalak,*

---

<sup>39</sup> Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. – Новосибирск, 1989. –С.75.

<sup>40</sup> Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр “Академия”, 2001. –С.35-36.

*ko'rpacha, belbog'*), mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi, frazeologik birliklar, o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar, metafora va obrazlar, nutqiy muomala madaniyati lingvokulturologiyaning predmeti sanaladi.

Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar mavjud bo'ladi. Bunday so'zlarga muqobilsiz leksika deyiladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos lingvistik birliklar: masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik kabi tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi. Muqobilsiz leksika boshqa tilga o'zlashtirilganda ularga ekzotik leksika (ekzotizmlar) deyiladi. Ekzotizmlar va etnografizmlar o'zga madaniyatning ramzi sanaladi. Jumladan, *spiker, kriket, shilling* – Angliya; *yaylov, qishloq, ariq, dehqon, cho'l* – O'rta Osiyo; *sakura, geyscha, ikebana, sake* – yapon madaniyatining belgilarini assotsiatsiyalaydi. O'zbek madaniyatining belgilarini *palov, patir, sumalak, ko'rpacha, belbog' (belida belbog'i bor), do'ppi (do'ppisi osmonda, do'ppi tor)* va h.k. so'zlarda ko'rish mumkin.

Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi. Lakunalar (lot. *lacuna* – bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy) – matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy, “tilning semantik xaritasidagi oq dog'lar”dir.<sup>41</sup> Muqobilsiz leksika singari lakunalar ham tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida “yurist, advokat” ma'nosini anglatgan *lawyer* so'zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan *attorney* “vakil”, *barrister* “oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan advokat”, *solicitor* “mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega”, *counsel* “yuriskonsult”, *counsellor* “maslahatchi”, *advocate* “oliy darajadagi advokat” kabi. O'zbek va rus tillarida qayd qilingan ifodalarga faqat bir *advokat* so'ziga muqobil bo'ladi. Bulardan ba'zilari maqol, matal, frazeologik birliklar, o'xshatishlar, ramzlar, metafora bizga tushunarli bo'lgani bois, ularning

---

<sup>41</sup> Степанов Ю.С. Французская стилистика. –М., 1965. –С. 120.

izohiga to'xtalmaymiz. Xullas, lingvokulturologiya jonli kommunikativ jarayonlarni – xalqning madaniyati va mentaliteti, ya'ni uning ongi, shuuri, ommaviy an'analari, urf-odatlari va h.k.bilan bog'liq til ifodalarining qo'llanilishini tadqiq etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Til va milliy madaniyat mushtarakligiga misollar keltiring.
2. Lingvokulturologiya insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fan sifatida deganda nimani tushunasiz?
3. Muqobilsiz leksika va lakunalarga misol keltiring.
4. Tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi, frazeologik birliklar lingvokulturalogik birlik bo'la oladimi?
5. Milliy o'xshatishlar, ramzlar, stereotiplar, metaforalarga misollar ayting.

## **7-mavzu: Tilshunoslik va psixologiya. Psixolingvistika**

### **Reja:**

1. Til va psixologiya. Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati.

2. Psixolingvistika. Psixolingvistikaning o'rganish obyekti, maqsad va vazifalari.

**Tayanch so'z va iboralar:** *psixologiya, hissiyot, kayfiyat, stress, psixolingvistika, N.Pronko, ruhiyat, nutqiy faoliyat, ichki va tashqi nutq*

Insonlarning ruhiy kechinmalari, hissiyotlar, insonda ro'y beradigan kuchli ruhiy zarbalar uning nutqiga ham ta'sir qiladi. Insonning ruhiy holati uning nutqiga ta'sir etgani kabi (o'z fikridan chalg'ish, adashish, gapirganda ovozning ko'tarilishi yoki, aksincha, duduqlanib, tutilib qolish, o'z fikrini erkin bayon etolmaslik, tortinish, qo'rquv va hk), ma'lum bir matn, gap inson ruhiyati (ruhiyatini ko'tarishi, tushirib yuborishi) o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun

xalqimizda bu xususda “O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir”, “Sevdirgan ham til, Bezdirgan ham til”, “Til bor – bol keltiradi, til bor – balo keltiradi”, “Tildan bol ham tomadi, og‘u ham”, “Shakar ham tilda, zahar ham tilda”, “Dunyoda eng chuchuk narsa ham til, eng achchiq narsa ham til”, “Til erni go‘rga solar, norni qozonga”, “Bir so‘z to‘rga eltar, bir so‘z go‘rga”, “Bir so‘z kuldiradi, bir so‘z o‘ldiradi”, “O‘q birni o‘ldiradi, so‘z – mingni”, “Suv toshni yoradi, so‘z – boshni”, “Tayoq etdan o‘tadi, so‘z – suyakdan”, “Oyoq yugurigi – oshga, Til yugurigi – boshga”, “Ochiq til osh yedirar, achchiq til tosh yedirar”, “Qo‘tir qo‘ldan yuqar, balo –tildan”, “Uzun til boshga to‘qmoq, bo‘yinga sirtmoq”, “Tili uzunning umri qisqa”, “Oyog‘idan qulagan turadi, og‘zidan qulagan turmaydi”, “Toqqa nima deb qichqirsang, shuni eshitasan”, “Achchiq savol berib, shirin javob kutma”, “G‘arazli savol bersang, g‘azabli javob olasan”, “Yaxshi so‘z bilan ilon inidan chiqar, yomon so‘z bilan pichoq qinidan”, “Yaxshi so‘z qaymoq, yomon so‘z to‘qmoq” kabi ko‘plab maqollar mavjud. Bundan tashqari inson ruhiyatini ifodalashda, tasvirlashda ham til birliklari: so‘zlar, parameologik birliklar, o‘xshatish, metaforalar faol ishtirok etadi. Masalan, *bahor havosiday o‘zgaruvchan, bezgak tutganday qaltiramoq, yosh boladay sevinmoq, bo‘zday oqarmoq, bo‘taday bo‘zlamok, vulqonday otilib chiqmoq, tilla topgan gadoyday xursand, to‘rvasini yo‘qotgan gadoyday kalovlamoq, gulday so‘lmoq, rangi dokaday oqarmoq, yetim qo‘ziday mo‘ltiramoq, igna ustida o‘tirganday bezovta bo‘lmoq, ilon chaqqandek to‘lganmoq, lavlagiday qizarmoq, loyday bo‘shashmoq, mixlangandek qotib qolmoq, suvga tushgan mushukdek shalviramoq, olovday yonmoq, sehrlangandek qotib qolmoq, ustidan sovuq suv quygandek seskanmoq, o‘tday kuymoq*<sup>42</sup> kabi o‘xshatishlarda insonlarning ruhiy holati ifodalangan. Mana shu jihatdan nutqiy faoliyat, nafaqat tilshunoslikning, balki psixologiyaning ham tekshirish obyekti hisoblanadi. Shunday ekan, psixologiya va tilshunoslikning kesishish nuqtasi mavjud. Ikki fan oralig‘idagi kesishish nuqtasi psixolingvistikaning o‘rganish obyekti sanaladi.

---

<sup>42</sup>Махмудов Н., Худайберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. - 320 б.

“Psixolingvistika” termini birinchi marta amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan 1946-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. “Psixolingvistika” *psixologiya* (yunon. *psyche* “ruh”) va *lingvistika* (lotin. *lingua* “til”) soʻzlaridan hosil qilingan. 1953-yilda AQShning Blumington shahridagi Indiana universiteti huzuridagi Lingvistika va psixologiya qoʻmitasi tomonidan tashkil etilgan universitetlararo seminarda psixolingvistika mustaqil fan sifatida eʼlon qilingan. Mazkur seminar mashhur amerikalik psixologlar Charlz Osgud, Djon Kerroll hamda tilshunos, etnograf va adabiyotshunos olim Tomas Sibeoklarning tashabbusi bilan tashkil qilingan edi. 1954-yilda nashr qilingan “Psixolingvistika. Nazariya va tadqiqot muammolari ocherki” kitobida seminar jarayonida qabul qilingan psixolingvistikaning asosiy nazariy masalalari, eksperimental tadqiqotlarning asosiy yoʻnalishlari belgilandi va u qator fanlararo psixolingvistik tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim rol oʻynadi. Asrimizning 50-yillarida maydonga kelgan psixolingvistika psixologik yoʻnalishning eng yaxshi jihatlarini davom ettirdi va uni yangi bosqichga olib chiqdi.

Hozirda bu fan mustaqil soha sifatida oʻz xususiyatlariga, maqsad va vazifa, predmet va obyektiga ega. Psixolingvistikaning predmeti lingvistikaniqidan farq qiladi. Psixolingvistikani lisoniy belgilar tizimining ishlash jarayoni, xususan, belgilarning yaratilish va qabul qilinish jarayonlari qiziqtiradi. Psixolingvistika nutqiy faoliyat haqidagi fan boʻlib, uning obyektini u oʻrganadigan individual obyektlar majmuyi tashkil qiladi. Lingvistika nutq tuzilishini til qonunlariga koʻra oʻrganadi. Psixolingvistika esa nutq hosil qilish, nutqni qabul qilish, shuningdek, ona tili va chet tilini oʻzlashtirish jarayonlariga murojaat qiladi. Hozirgi kunda koʻp tilshunoslar til faktlarini toʻliq tushunish uchun lingvistika ramkasidan chiqib, individning psixik jarayonlari doirasiga kirish lozimligini tan olishadi. Binobarin, til materiali kishi miyasida tashkil topadi va kerak paytda chiqariladi. Bunday psixik jarayonlar psixolingvistikaning predmeti hisoblanadi. Psixolingvistika tilni psixikaning fenomeni sifatida oʻrganadi. Soha mutaxassislari fikricha, soʻzlovchi va tinglovchi, yozuvchi va oʻquvchining ichki dunyosi qanday boʻlsa, til ham shu darajada mavjud. Shu bois,

psixolingvistika faqat matnlardagina saqlanib qolgan, bu matn yaratuvchilarining psixik olamlari bo'lmagan o'lik tillar (masalan, eski slavyan yoki yunon tillari)ni o'rganish bilan shug'ullanmaydi.

Inson tilni to'liq egallash imkoniyatiga ega bo'lib tug'iladi. Biroq bu imkoniyatni amalga oshirish kerak bo'ladi. Buni qanday yuz berishini tushunish uchun psixolingvistika bolalar nutqining rivojlanishini o'rganadi. Psixolingvistika, shuningdek, nutqiy faoliyat va uning harakatga kelish jarayonining me'yordan chiqib ketish sabablarini tadqiq qiladi. Kattalar va bolalar nutqidagi buzilishlarni o'rganadi. Psixolingvistika ba'zan til va tafakkurni o'rganadigan fan sifatida belgilanadi. Psixolingvistikaning asosiy maqsadi insonning so'zlash va tilni tushunish qobiliyati zahirida yotgan struktura va jarayonlarni aniqlashdir. Psixolingvistlarning kishilar orasidagi o'zaro til munosabatlari bilan qiziqishlari shart emas. Ular individning ichida kechayotgan hodisalarni tadqiq qilishga harakat qiladi.

Xullas, psixolingvistika tilni o'rgangani uchun tilshunoslik fanlariga, tilni alohida aspektida, xususan, psixikaning fenomeni sifatida o'rgangani uchun esa psixologiya fanlariga aloqador bo'lgan kompleks fan hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Psixolingvistika sohasining shakllanishi qaysi davrga borib taqaladi va qaysi olimlar faoliyati bilan bog'liq?

2. Psixolingvistika sohasining o'rganish obyektiga nimalar kiradi?

3. Inson ruhiyatiga ta'sir qiladigan ijobiy va salbiy buyoqdor so'zlarga misollar keltiring.

4. Inson ruhiyatini ifodalaydigan so'z, ibora va o'xshatish, metaforalarga misollar keltiring.

## 8-mavzu: Tilshunoslik va adabiyot. Lingvopoetika

### Reja:

1. Tilshunoslik va adabiyot. Tilshunoslikning badiiy adabiyot bilan munosabati. Lingvopoetikaning shakllanishi.

2. Badiiy tasvir vositalari. Fonetik poetika (FP), leksik poetika (LekP), morfologik poetika (MP), sintaktik poetika (SP) lingvopoetikaning qismlari sifatida.

*Tayanch soʻz va iboralar: Badiiy soʻz, badiiy adabiyot, lingvopoetika, emotsional-ekspressivlik, sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, boglovchilarning maxsus qoʻllanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik soʻroq, anafora, epifora, ellipsis, alliteratsiya, ritorik murojaat, sintaktik parallelizm, emotsional gaplar*

**Tilshunoslik va adabiyot. Tilshunoslikning badiiy adabiyot bilan munosabati. Lingvopoetikaning shakllanishi.** Tilshunoslik badiiy adabiyot bilan ham uzviy aloqadadir. Badiiy adabiyotning quroli soʻz boʻlganidek, soʻzning barcha maʼno tovlanishi, gapdagi imkoniyatlari, taʼsir qudrati badiiy matnda koʻrinadi. Badiiy matnda til goʻzallik kategoriyasini voqelantiradi. A.Navoiy tilning mana shu jihatiga alohida eʼtibor qaratib, “Saddi Iskandariy” dostonida tilga shunday taʼrif beradi: Soʻz inson tabiatining ishvgar dilbari, u koʻzga koʻrinmaydigan parisifat nozanindir. Soʻz – jahon-jahon diloroliqqa ega, goʻzallik va latofat uni koʻzga koʻrinmas qilib qoʻygan. Gʻazal mulking sultoni – A.Navoiyning ushbu taʼriflariga quyidagi fikrlar hamohangdir: “Tilning oʻzidan ham goʻzallik moddasi sifatida, xususan, qalamu soʻz ahli va umuman xalq foydalanadi. Chunki til yetuk hodisalardan boʻlib, unda goʻzallik uchun zarur boʻlgan hamma sifatlar mavjuddir. Birinchidan, tabiat va insondagi mavjud goʻzallikni aks ettirish vositasi boʻlsa, ikkinchidan, tilning oʻzi goʻzallikni vujudga keltiradi”.<sup>43</sup>

Buyuk shoir oʻz asarlarida tilning taʼsir koʻrsatish vazifasini alohida tavsiflaydi: Soʻz oʻlgan odamning tanasiga pok ruh bagʻishlaydi. Soʻzdan tandagi tirik ruh halok boʻlishi mumkin. Yaxshi soʻz bilan

---

<sup>43</sup> Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. –Тошкент: Маънавият, 2003. –Б. 17-20.



o'lganni tiriltira olgani uchun Iso payg'ambar o'zini "Jonbaxsh" degan laqab bilan atagan ("Hayrat ul-abror"). A.Navoiy aytganlaridek, til go'zalligi va ta'sir qudrati til estetikasining tub mohiyatidir. Ta'sirchanlik, go'zallik kabi estetik xususiyatlar tilning barcha shakllarida u yoki bu darajada mavjud. Biroq tilning estetik vazifasi butun o'ziga xosligi va murakkabligi bilan badiiy nutqda yorqin namoyon bo'ladi. Badiiy asar tili xuddi shu xususiyati bilan adabiy tildan farq qiladi. Bu haqida O.Sharafiddinovning quyidagi fikrlarini aytib o'tish o'rinlidir. "Badiiy til o'z vazifasiga ko'ra adabiy tildan ancha farq qiladi. Agar adabiy til birinchi navbatda aloqa quroli sifatida ko'rinsa, ikkinchidan haqiqatlar haqida kitobxonga informatsiya bersa, badiiy til bu vazifalardan tashqari o'quvchiga emotsional-estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini ham o'taydi. Badiiy asarning tili obrazli. Tilning obrazlilikiga esa uning ta'sirchanligida, rangdorligida, jilolarida ko'rinadi".<sup>44</sup> Haqiqatan ham badiiy asar tili kommunikatsiya vositasi emas, san'at asarining material sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyotda qo'llaniladigan barcha lingvistik vositalar til madaniyati talablariga javob bergan holda, badiiy nutqning estetik ko'lamdorligini oshirishga xizmat qiladi. Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo'lishi tarzida o'rganuvchi sohani "lingvistik poetika" – "lingvopoetika" deb nomlanishi adabiyotlarda qayd etilgan.<sup>45</sup> Lingvopoetikaning predmeti va obykti xususida quyidagi fikr ahamiyatga molikdir: "Filologiyaning alohida bo'limi sifatida lingvopoetikaning predmeti badiiy asarda foydalanilgan til birliklarining yig'indisi hisoblanib, ular yordamida yozuvchi o'zining g'oyaviy-badiiy niyatini amalga oshirish uchun zaruriy estetik ta'sirni ta'minlaydi; lingvopoetik tahlilning maqsadi muallif tomonidan u yoki bu til birligi (so'z, so'z birikmasi, sintaktik konstruktsiya) badiiy so'z ijodi jarayoniga qanday kiritilishi, til vositalarining u yoki bu o'ziga xos birikmasi

---

<sup>44</sup> Шарафиддинов О. Сўз мўъжизаси// Шарк юлдузи.1985. №3.176-б.

<sup>45</sup> Григорьев В.П. Поэтика слова. – М.: Наука, 1979; Ёўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Т.: Фан, 2008, 18-б.

mazkur estetik effekt yaratilishiga qay tarzda olib kelishini aniqlashdan iborat bo‘lishi lozim”.<sup>46</sup>

Y.Is’hoqovning “Klassik adabiyot poetikasidan ma’lumotlar” maqolasida tarixiy poetikada she’riyat uch yo‘nalishda (ilmi aruz, ilmi bade’, ilmi qofiya) o‘rganilganligi aytilgan. Mana shu uch yo‘nalish tadqiq etilgan bir qancha asarlar mumtoz adabiyotimizda vujudga kelgan bo‘lib, ularning ayrimlarida badiiy asar tiliga oid fikrlar aytib o‘tilgan.<sup>47</sup>

G‘arbda XIX asrning II yarmida filologiya tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlariga bo‘linib ketgach, poetik matnlar tahlilida mukammallikdan, tizimlilikdan yiroqlashish yuz beradi. Har bir yo‘nalish o‘z muammolarini hal etish, binobarin, matndan o‘zlariga tegishli bo‘lgan masalalarni hal etishda foydalanadilar. Shu sababli, matnni umumfilologik tahlil etish tarafdorlari bo‘lib maydonga chiqqan bir guruh olimlar Sankt-Peterburg shahrida OPOYaz – poetik til bo‘limini tuzadilar va uning har ikki yo‘nalishiga baravar xizmat qiladigan kuzatishlar olib boradilar. Ushbu til bo‘limining natijalari lingvopoetikaning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Badiiy asar tili va uslubini umumfilologik, stilistik, lingvistik o‘rganish o‘zbek tilshunosligida XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Badiiy asar tilini o‘rganish borasidagi dastlabki ishlar I.Sulton va A.G‘ulom nomlari bilan bog‘liqdir.<sup>48</sup> Biroq tilshunosligimizda badiiy asar tilini sof lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganish XX asrning 70-80-yillaridan boshlandi. Bugungi kunda bu borada anchagina tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu soha o‘z predmeti, maqsadi va vazifalarini aniqlagan, tutash sohalar orasida taraqqiy etgan sohadir.<sup>49</sup>

<sup>46</sup> Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дис. ...д-ра филол. наук. – М.: 1992.-С.59.

<sup>47</sup> Исҳоқов Ё. Классик адабиёт поэтикасидан маълумотлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1970. - №1. – Б.84-90.

<sup>48</sup> Султонов И. Бадий асарнинг тили // Ўзбекистон адабиёти ва санъати//. 1939. №5; Фуломов А. Бадий адабиётнинг тили ҳақида. Адабиёт ва санъат. 1941.-№1.

<sup>49</sup> Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси//Ўзбек тили ва адабиёти, 1985. - №6. – Б.34-36.; Махмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир//Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. - №4; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон 1992; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф.дис. ...д-ра филол. Наук. – Т.: 1992; Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари доктори...дисс. – Т., 2008. – Б.313.; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил

**2. Badiiy tasvir vositalari. Fonetik poetika (FP), leksik poetika (LekP), morfologik poetika (MP), sintaktik poetika (SP) lingvopoetikaning qismlari sifatida.** Badiiy nutqni o'rganuvchi lingvistik poetika ham til sistemasi barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo'g'inlarning takrorlanishi she'riyatda go'zallikni, ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sanaladi. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda "aynan" ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Aflotun va Arastu yashagan zamonlardayoq so'zning talaffuz tarzi va uni aynan yozuvga ko'chirish muammosi mutafakkirlar e'tiborini o'ziga jalb qilgan edi. Hatto bu notiqlik san'ati bilan bog'liq bo'lmagan ravishda, so'zning, so'zdagi harflarning talaffuzi bilan bog'liq ohanglar garmoniyasi buyuk faylasuflarga ilhom manbai bo'lgan edi. Ular so'z tarkibiga singib o'ziga xos ma'no va ohang kasb etib ulgurmagan tovushlarga ham o'zgacha

---

махорати: Филол. фанлари номз....дисс.автореф. – Т., 2000. –25 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари номз....дисс.автореф. – Т., 2004. –25 б.; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фанлари доктори....дисс.автореф. –Т., 2005. – 49 б.; Шодиева Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номз....дисс.автореф. – Т., – 26 б.; Ҳайдаров Ш. Бадий матнда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланилиши: Филол. фанлари номз....дисс.автореф. – Т., 2011. – 26 б.; Ибрагимова Ф. Бадий матнда эллипсис ва антиэллипсис: Филол. фанлари номз....дисс.автореф. – Т., 2011. – 26 б.; Жамолиддинова Д. Бадий нутқда парантез бирликларининг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Т., 2009. –26 б.; Йўлдошев Б. Шодиев З. “Уфқ” трилогиясининг лингвопоэтик тадқиқи масалалари. – Самарқанд, 2006. – 126 б.; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2017; Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. –Тошкент, 2017; Умирова С.Ўзбек шеърятининг лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърятининг мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019. – 48 б.; Собиров А. Шеърятда сўз тартиби: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 47 б.

mazmun berishga intilishgan edi. Masalan, “g” - tezlikning, shiddatning ramzi, “l” - viqorning, silliqlikning, yaltiroqlikning ifodachisi, “a” - kattaning, “e” - abadiyatning belgisi sifatida talqin qilingan. Keyinroq tovushlar tabiati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar *i, b, g* tovushlari dahshatni yodga solishi, *t, p, l* tovushlari nazokatning sirli ramzlari ekanligi haqidagi mulohazalarini bayon qilishgan.<sup>50</sup>

Leksik sathda leksemalarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishi (metafora, metonimiya va boshq.), mubolag‘a, meyozi kabi hodisalar ham ta’sirchanlikni oshiradi va leksik poetikaning tekshirish obyekti sanaladi. Bundan tashqari badiiy matnning leksik tahlilida badiiy asar tilidagi ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, ko‘p ma’noli, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bog‘liq holatlar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda maxsus so‘z formalari vositasida, shuningdek ma’lum bir grammatik ma’no va funksiyaga ega bo‘lgan so‘z formasini maxsus qo‘llash orqali ekspressivlik-emotsionallik ifodalanishi tushuniladi. Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma’no qirrasiga ega bo‘lgan so‘zlarda aniq ko‘rinib turadi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda dastavval ana shunday ma’no qirralariga ega bo‘lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qo‘llanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi. Odatda erkalash-suyish, hurmat-e’zozlash, ko‘tarinkilik, ulugvorlik, tantanavorlik kabi ma’nolarni bildiruvchi so‘zlar ijobiy ma’no qirrasiga ega bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi. Masalan, qizaloq, toychoq, o‘rgilay, girgitton bo‘lay, bolaginam, oppogim, do‘mbog‘im, arslonim, pahlavonim, shakarim, shirinim kabi. Salbiy ma’no qirrasiga ega bo‘lgan so‘zlar sirasiga jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibrlilik, masxara, nafrat, gazab, kinoya, kesatiq kabi subyektiv

---

<sup>50</sup> Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Т: Фан, 1983.

munosabatni ifodalovchi soʻzlar kiradi. Bunday maʼnolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. Oʻzbek tilida kichraytirish shakli *-cha, -choq, -chak* qoʻshimchalari bilan; erkalash shakli *-jon, -xon, -oy, - (a)loq* affikslari yordamida hosil qilinadi. Hurmat, mensimaslik, istehzo, umumlashtirish, tur-jinsga ajratish kabi maʼnolar *-lar* affiksi bilan hosil qilinadi. *-gina* qoʻshimchasi chegara, erkalash, yaqinlik maʼnolarini yuzaga chiqaradi. Tahlil jarayonida matnda qoʻllanilgan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq koʻrinib turadigan, yozuvchining badiiy niyati ifodalangan morfologik oʻzgachaliklar haqida soʻz yuritiladi. Masalan, eng koʻp ishlatiladigan badiiy tasvir vositalaridan biri takroridir. Morfologik birliklarning takrorlanishidan yuzaga keladigan uslubiy vosita - morfologik parallelizmning qoʻllanilish maqsadi lisoniy jihatdan tadqiq etilishi mumkin. Shuningdek, atoqli otlar sirasiga kiruvchi - antroponimlarning muayyan maqsad bilan qoʻllanishiga aloqador kuzatishlar olib borish mumkin. Chunki badiiy asarda qoʻllanilgan ismlar ichida alohida uslubiy maqsad yuklanganlari ham boʻladiki, ular yozuvchining goyaviy-badiiy niyatini aniqlashga yordam beradi.

Badiiy nutqning taʼsirchanligini taʼminlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, boglovchilarning maxsus qoʻllanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik soʻroq, anafora, epifora, ellipsis, alliteratsiya, ritorik murojaat, sintaktik parallelizm, emotsional gaplar kabilar sintaktik poetikaning oʻrganish obyekti sanaladi. Shuningdek, gap boʻlaklarining oʻrinlashishi, gap tarkibida bir xil boʻlaklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shunday qilib, lingvopoetika tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini oʻrganishiga qarab fonetik poetika (FP), leksik poetika (LekP), sintaktik poetika (SP) kabi qismlarga boʻlinadi.

Lingvopoetikaning har qaysi turini alohida-alohida oʻrganish va ularning oʻzaro munosabatini ochish hozirgi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asar tili deganda nimani tushunasiz?

2. Estetik ta'sirchanlik va emotsional-ekspressivlik faqat badiiy asarlarda xosmi?

3. Sharqda badiiy asar tiliga e'tibor qachondan boshlangan.

4. Yevropada nechanchi asrdan lingvopoetika shakllana boshlagan?

5. Alletratsiya, gradatsiya nima? Ularni fonopoetik vositalar deyish mumkinmi? So'zning o'z va ko'chma ma'nolari deganda nimani tushunasiz? So'zning ko'chish turlari leksik poetikaga misol bo'ladimi?

## II BOB. Tilshunoslik va tabiiy fanlar

### 9-mavzu: Tilshunoslik va biologiya. Nutq tovushining biologik aspekti

#### Reja:

1. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Tilshunoslik va biologiya.
2. Nutq tovushining biologik aspekti. Nutq organlari fiziologiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** *Tilshunoslik, biologiya, nutq tovushi, akustik, artikulyasion, funksional, nutq apparati.*

**1. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Tilshunoslik va biologiya.** Tilshunoslik biologiya fani bilan ham uzviy aloqadadir. Avvalo, tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan til tovushlar silsilasi yordamida moddiylashadi. Tovushlar esa nutq birligi sifatida muayyan nutq organlarining faoliyati natijasida yuzaga chiqadi. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan nutq organlari nutq apparati sanaladi.

Nutq apparati tarkibiga kiruvchi nutq organlari inson organizmining tarkibiy qismidir. Har qanday nutq organi ikki xil vazifa bajaradi: 1) birlamchi vazifasi insonning fiziologik a'zosi. Bunday a'zo sifatida ular inson organizmining normal yashashi uchun zarur tabiiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi; 2) ikkilamchi vazifasi nutq organi. Bu faqat homo sapiensga xos xususiyatlar bo'lib, birlamchi vazifasi ustiga qo'shimcha vazifa – ma'lum nutq tovushlarini talaffuz qilish vazifasi qo'shiladi. Shunday qilib, bu organlar ham biologiyaning, ham tilshunoslikning tekshirish obyekti bo'ladi.

Har bir nutq tovushi uch belgini o'zida mujassamlaydi: 1) akustik; 2) artikulyatsion; 3) vazifaviy (funksional).

Unli tovushlar ham, undosh tovushlar ham artikulyatsion belgiga ega. Unli yoki undosh tovushlarning yuzaga chiqishida ishtirok etadigan nutq organlari belgisi artikulyatsion belgi sanaladi. Mazkur belgiga ko'ra nutq tovushining tavsifi artikulyatsion (fiziologik) tavsif sanaladi. Masalan, unlilar tavsifida lab ishtiroki belgisi, og'izning ochilish

darajasi (tilning ko‘tarilish darajasi) belgisi fiziologik tavsif uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Undoshlar tavsifida esa undoshlarning paydo bo‘lish o‘rni belgisi (bo‘g‘iz tovushlari, til tovushlari – til orqa, til o‘rta, til oldi tovushlari, lab tovushlari, lab-lab, lab-tish tovushlari, tanglay va burun tovushlari) fiziologik jihatdan tavsif asosi bo‘ladi.

Unli va undosh tovushlarni talaffuz qilishda ishtirok etadigan nutq organlari qadimdan tilshunoslar diqqatini tortib keladi. Xususan, bobokalonimiz qomusiy olim Ibn Sino fonetikaga bag‘ishlangan maxsus risolasida tovushlarning fiziologik tomoni haqida batafsil ma’lumot beradi. Bunday aniq ma’lumot berishida olimga inson fiziologiyasini yaxshi bilgani katta imkoniyat yaratgan.<sup>51</sup>

**2.Nutq tovushining biologik aspekti. Nutq organlari fiziologiyasi.** Nutq tovushining biologik aspekti nutq organlari anatomiyasi, fiziologiyasi va vazifaviy kechimi kabilardan iboratdir. (Ushbu mavzuni yoritishda quyidagi adabiyotdan foydalanildi.<sup>52</sup>)

Nutq organlari anatomiyasi nutq organlari shakli va tuzilishi haqidagi tasvir bilim. Nutq organlari asosan to‘rtga bo‘lib o‘rganiladi: nafas yetkazuvchi organlar, tovush hosil qiluvchi, tovushni shakllantiruvchi, qo‘shma ton beruvchi organ.

Nafas yetkazuvchi organlar asosan troxeya, bronxlar, o‘pka va qo‘shimcha holda ko‘krak qafasi, plevra, diafragmalardan iborat. Troxeya 16-20 tog‘ay miqdordagi olveollardan iborat. Har bir olveolga bir bronxiol, bittadan arterial va vena tomiri kapilyar tolasi kiradi. O‘pka qovurg‘alar o‘rab turgan ko‘krak qafasi ichiga joylashgan. Qovurg‘alar muskullar vositasida o‘zaro tutashgan, elastik xarakterda. Ko‘krak qafasidagi o‘pka plevra bilan o‘ralgan bo‘ladi. Diafragma ko‘krak qafasi bilan qorin boshlig‘ini ikkiga ajratib turadi. Tovush hosil qiluvchi organlar hiqildoq deb atalib, u ustma-ust joylashgan uzuksimon, qalqonsimon, cho‘michsimon va shuningdek ponasimon, shoxsimon

---

<sup>51</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –Б.20-25.

<sup>52</sup> Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 2004. –Б.30-38.



togʻaylardan iborat trubasimon koʻrinishga ega. Ular oʻzaro pay va muskullar bilan birikkan boʻladi. Uning eng yuqorisi – tilning orqasida yaproqsimon togʻay joylashgan. Hiqildoq uzuksimon togʻay orqali troxeyaga tutashgan. Qalqonsimon togʻayning orqa tomonidagi tutashmagan ikki yoni oraligʻida bir juft choʻmichsimon togʻay joylashgan. Hiqildoqning ichki oʻrta qismida ustma-ust burma boʻlib, ular oraligʻi hiqildoq qorinchasidan iborat. Burmalarning pastkisi tovush burmasi, ustkisi soxta burma deyiladi. Hiqildoq trubkasi shu burmalardan yuqori va pastga konussimon holda kengayib boradi. Tovush burmasi ikki boʻlakdan iborat, hiqildoq ikki yon devoridan boʻrtgan boʻladi. Uning qirralari boʻylab pay qatlamlari tortilib, u tovush paylari deyiladi. Tovush paylarining bir uchi uzuksimon togʻay uchiga, ikkinchi uchi choʻmichsimon togʻay uchiga birikkan. Hiqildoqdagi ikki yon paylarning oraligʻi esa tovush yorigʻidir. Bularning hammasi boʻyin olmasi orqali joylashgan. Tovush paylari nafas yoʻlining eng tor joyi hisoblanadi. Hiqildoqning ichki yuzasi troxeyadagiga oʻxshash epiteliy qatlami bilan qoplangan. Bu qatlam yuzasi mayda tuklardan iborat boʻlib, ular yuqoriga yotqizilgandir. Tovushni shakllantiruvchi organlar asosan halqum va ogʻiz boshligʻidagi organlardan iborat. Halqum devori yuzasi epiteliy qatlamidan iborat boʻshliq boʻlib, 3 qismga boʻlinadi. Pastki qismi halqumning hiqildoq qismi deyilib, unga hiqildoq va qiziloʻngach tutashadi. Oʻrtasi halqumning ogʻiz qismi boʻlib, ogʻiz boʻshligʻiga ochilgan. Yuqorisi hiqildoqning burun qismi hisoblanib, unda xoana bor. Ular burun boshligʻi va eshituv naylariga birikadi. Ogʻiz boshligʻi old tomonda lablar, yoni lunjlar, tepasi qattiq va yumshoq tanglay osti til osti muskuli bilan chegaralanadi. U orqa tomonida tomoq orqali halqumga tutashadi. Ogʻizning old va yon tomonini duga shaklida tishlar qoplab, ular tepa va pastda oʻzaro qarama-qarshi oʻrnashgan. Tishlarni milk tutib turadi. Tish va lab oraligʻi ogʻiz dahlizi deyiladi. Ogʻiz boʻshligʻi tomoq orqali halqumga ochilar ekan, uning tepasida yumshoq tanglayning oʻsimtasiga oʻxshash kichik til osilib turadi. Ogʻiz boʻshligʻi ostini til qoplagan. Til ikki qismdan iborat: til ildizi va til tanasi. Til ildizi: til uchli muskuli, til osti muskuli, bagʻbaqa – til muskuli, til-

togʻay muskuli kabilardan tarkib topgan. Til tanasi esa boʻylama ustki muskul, boʻylama ostki muskul, enlama muskul, tiklama muskullardan iborat. Til oʻtmas uchli boʻlib, shu uchidan til ildizining oxirigacha til oʻrtasidan tepasi boʻylab til egati oʻtadi. Til oʻz egatiga muvofiq holda til devori bilan boʻyiga ikkiga boʻlingan boʻladi. Shuning uchun uning sakkiz muskuli sakkiz juft tutam holida shakllangan. Til ildizining tutash joyi bilan halqumning orqa devori oraligʻi boʻgʻiz hisoblanadi.

Qoʻshimcha ton beruvchi organ burun boshligʻi hisoblanadi. Burun boshligʻi burun katagi orqali tashqariga ochiladi va orqada xoanalar orqali halqumga qoʻshiladi. U burun katagidan boshlanuvchi burun devori bilan halqumgacha ikkiga boʻlingan. Har bir qismi chigʻanoqlar vositasida uch kanalga ajraladi. Yaʼni burun boshligʻi olti kanalchadan iborat. Burun devori asosan burun kataklarida togʻay bilan boshlangan boʻlsa ham, asosan, suyakdan tarkib topib, u xoanalargacha davom etadi.

Nutq organlari fiziologiyasi nutq organlarining hayotiy jarayonlari muhit bilan boʻladigan munosabatlaridir. Uning kishi organlari ichida oʻziga xos fiziologiyasi boʻlib, buni asosan bosh miya poʻstlogʻi boshqaradi. Ammo ularni boshqaruvchi nervlar yadrosi choʻzinchoq miyada joylashgan. Choʻzinchoq miyada ikki yonma yon nerv yadrosi boʻlib, biri ikki yoqlama yadro, ikkinchisi til osti nervi yadrosi hisoblanadi. Bu yadrolarning yonma-yon joylashuvi nutq organlari fiziologiyasidagi uygʻunlikni taʼminlaydi. Chunki ikki yoqlama yadrodan til halqum nevri chiqib, til, halqum va umuman nafas yoʻllarini nervlaydi. Undan yana adashgan nevr chiqib, nafas organi qovurgʻalararo muskullar va diafragmaning harakatlantiruvchi nervlariga impuls yuboradi. Qovurgʻalararo muskullar nervi orqa miyaning shu qismidan, diafragma nervi orqa miyaning boʻyin qismidan chiqqan boʻladi. Til osti nervi yadrosidan chiqqan nervi til osti va tagidagi muskullarni nervlaydi. Adashgan nerv impuls yuborishi uchun uning yadrosi oʻz refleksiga ega. Bu qondagi karbonat angidrid miqdoridir. Qonda u koʻpaysa, ikki yoqlama yadroda qoʻzgʻalish boʻladi va adashgan nervni impuls yuborish uchun qoʻzgʻaydi.

Harakatlantiruvchi nervlar ko'krak qafasini kengaytiradi, nafas olish-inspiratsiya kechadi. Keyin qon kislorodga to'yinadi va ekspiratsiya boshlanadi. Kislorod ayriboshlash bilan o'tadigan refleksiga asoslanuvchi bu kechim bir ritmda o'zgarishsiz davom etadi. Nutq kechimida bosh miya po'stlog'ining ta'siri kuchayib, inspiratsiya faqat og'iz orqali bo'ladi, odatdagidan 3-4 marta ortiq, tez o'tadi. Ekspiratsiya sekin-asta, ba'zan bo'linib -bo'linib kechadi. Bu, albatta, imkoniyat darajasida, kislorodga bo'lgan tashnalikni qondirib turish holatida ro'y beradi. Eng sog'lom odamda ekspiratsiya ko'pi bilan 30-40 sekund davom etishi mumkin. Nutq kechimidagi inspiratsiyaning katta hajmda bo'lishi ekspiratsiyada hiqildoq va troxeyada havo bosimining yuqori daraja to'plash imkonini beradi. U yumilgan tovush paylarida tutilib turadi. Ortgan havo bosimi tovush paylari tutashgan oraliqni ochib, uni tebratib, halqum tomonga o'tadi. Tovush paylarining tebranishi havo oqimiga o'tar ekan, u unning yuzaga kelishi bo'ladi. Nutq kechimida hiqildoq va troxeyada havo bosimining ortishi uchun diafragmaning va qovurg'a oralig'i muskullarining qisqarishi ahamiyat kasb etadi. U havoni tovush paylari yuzasiga bosib to'plab turadi. Tovush paylari esa goh ochilib, goh yumilib, ochiqlik darajasi goh kengayib, goh torayib, havoning turli bosim bilan halqum tomonga sizib o'tishini ta'minlaydi. Bu tovush paylarining turlicha kuch bilan tebranishiga sabab bo'ladi. Ammo tovushning turli balandlikda hosil bo'lishi havo bosimining bu kechimplari bilan uncha bog'li emas. U tovush paylari holatiga tobedir. Agar tovush paylari salqiroq holatni olsa, tovush nihoyatda past chiqadi. Chunki salqiroq tovush paylari bir-biriga kirishib yo'g'on tortadi. Yo'g'onlashgan tovush paylarining tebranish imkoniyati kam bo'ladi. Bunda qalqonsimon tog'ay bilan uzuksimon tog'ay orasi katta ochilib, qalqonsimon tog'ay bilan ko'tarilgan cho'michsimon tog'ayning ikkinchi shoxchasi pasayadi va tovush paylarini bo'shroq qo'yadi. Agar qalqonsimon tog'ay bilan uzuksimon tog'aylar orasi yaqinlashsa, tovush paylari taranglashib, unga zarb urilganda tebranish imkoniyati ortadi va tovush balandroq hosil bo'ladi. Bunday tovush obertonga ham boy, o'ziga xos chiqadi. Shu tog'aylar orasi nihoyatda yaqinlashib, ular o'zaro yopishib tursa, tovush paylari rezinka kabi cho'ziladi va yupqa

tortadi. Tebranish imkoniyati nihoyatda ortadi. Baʼzan choʻmichsimon togʻay tovush burmalari muskulini ishga solib, tovush paylari tebranuvchi qismi qirralarini qisqartiradi. Bunda hosil boʻlgan tovush falset tovush boʻlib, u nihoyatda baland, chinqiroq va obertonga nihoyatda qashshoq holda chiqadi. Odatda, past tovushlarda tovush paylari kam vazifa bajaradi. Uning vazifasini koʻproq tovush burmasi muskullari oladi. Shuning uchun bunday tovush vishillaganroq, ilon tovushiga oʻxshashroq holda eshitiladi. Ilonning ham tovush paylari boʻlmagani uchun, u nafas bosimini kuchaytirib, nafas yoʻli muskullarini zoʻriqtirish bilan vishillaydi. Tovush baland hosil qilinganda tovush paylarini faqat tarang holdagi qirralari ishlaydi. Uning vazifa bajaruvchi qismi bolalarning tovush paylari hajmi darajasiga yaqinlashgan boʻladi. Bunday holda oberton hosil qilish imkoniyati nihoyatda kamayadi. Baland tovush hosil qilinganda hiqildoq halqumda keng ochilib, yuqori koʻtariladi va til ildiziga nihoyatda yaqin keladi. Bunday holda halqum, ogʻiz va baʼzan burun boʻshligʻida rezonator ton hosil boʻlishi kuchayadi. Shuning uchun kishining boshi zirillab turadi. Tovush bosh qismida hosil boʻlayotgandek tuyuladi. Oʻrtacha tovush hosil boʻlishda hiqildoq pastda boʻlib, tovush paylari toʻlaligi bilan, barcha qismlarida tebranish boʻladi va hiqildoqning oʻzidan boshlab rezonator ton yuzaga keladi. Shuning uchun bunday tovush ichdan guldirib chiqayotganday tuyuladi. Odamlar uni, dildan chiqarilgan tovush, deb obrazli ifodalaydilar. Tovush paylari ishtirokisiz ham tovush hosil boʻladi. Ular xarakter eʼtibori bilan shivir, soxta burma uni, mingʻir nomlari bilan ataladi. Shivir faqat tovush burmasida hosil boʻladigan nihoyatda past tovushdir. Soxta burma uni esa soxta burma muskullari zoʻriqishidan hosil etiladigan oʻrdak gʻagʻillashiga oʻxshash tovush boʻladi. Mingʻir yaproqsimon togʻay baland hiqildoq ogʻzi deyarli yopiq holda tovush hosil qilinishiga aytiladi. Halqum tovush hosil qilmasligi bilan birga uni shakllantirmaydi ham. U faqat tovush hosil boʻlishida karnay trubasiga oʻxshash vazifa bajaradi.

Ogʻiz boʻshligʻidagi til, yumshoq tanglayning kichik til va lablar fiziologiyasi bilan bogʻli holda nutq tovushlari shakllanadi. Bu oʻrinda, ayniqsa, til fiziologiyasi muhim oʻrin tutadi. Til odam organizmidagi

eng qayishqoq, eng harakatchan va murakkab vazifalarni bexato bajaruvchi mexanizm hisoblanadi. Uning hazm qilish organizmi sifatidagi vazifalari bir qator, shuningdek nutq organi sifatidagi vazifalari ham juda katta. Bunda uning sakkiz juft muskul tutamining o'ziga xos ish vazifasi tilning murakkab xarakterlarini keltirib chiqaradi. Til ildizi, ya'ni suyak muskullari asosan tilning orqa qismi harakatlarini belgilaydi. Uning uchli muskuli tilning ildiz qismini yuqori va orqa tomonga tortish ishini bajaradi. Ostki muskuli til ildizini orqa va ostga tortadi. Buning natijasida og'iz bo'shlig'i kengayadi. Bag'baqa-til muskuli tilning old va pastga tortilishi uchun xizmat qiladi. Bu bilan og'iz boshlig'i yana ham kengayadi. Til tog'ay muskuli til osti muskuli bilan mutanosib vazifa bajaradi. Umuman bu muskullar tilning orqa va past tomonga tortilib, kurak tishlaridan nari tutilishiga xizmat qiladi. Tilning o'z, ya'ni tana muskullari uning turli shakllarga kirishi va turli shakllarda harakat qilishi uchun xizmat qiladi. Bo'ylama ustki muskuli til bo'yining qisqarishini ta'minlaydi. Bo'ylama ostki muskuli tilni qisqartirib, ustini yuqori ko'taradi va belini bukish vazifasini o'taydi. Enlama muskul til enini toraytirib, tepaga tomon yo'g'onlashtiradi. Tiklama muskul til qalinligini zichlashtiradi va og'iz boshlig'ining eni bo'yicha yoyadi. Enlama muskul yana tilning tepaga yoy shaklida egilishi uchun ham xizmat qiladi. Til devori tilning har bir tomoni, ya'ni o'ng yoki chap qismi o'zicha mustaqil harakatlanishi, til harakati yondoshligining ixtiyoriy buzilishi uchun sharoit yaratadi. Chunki til muskullarining juft tutamlari til devorining ikki tomonida bittadan mustaqil joylashib, mustaqil harakat qilish imkoniga ega. Til yuganchasi ham o'ziga xos vazifa bajarib, til uchini pastga va orqaga tortishda yordamlashadi.

Yumshoq tanglay bilan kichik til ham nutq tovushi hosil qilishda faol organ hisoblanadi. U artikulyatsiya kechimida ko'tarilib halqumga qarab cho'ziladi va havoning burun boshlig'iga ketadigan yo'li - xoana ustini yopadi. Natijada tovush artikulyatsiyasida burun rezanator toni aralashmaydi. Og'iz boshlig'i hajmi ortib, bu bo'shliqda rezanotor ton hosil bo'lishi uchun imkoniyat yaxshilanadi. Agar burun sonantlariga artikulyatsiya ekskursiyasi bo'lsa, yumshoq tanglay bilan kichik til

halqumning orqa devorlaridan narilashib, pastga tomon kengayadi va burun yoʻlini ochadi. Baʼzi tovushlarda u ogʻiz yoʻlini butunlay yopadi. Natijada tovush burun boshligʻidan aylanib, burun boshligʻi rezonator toniga toʻyinadi. Yumshoq tanglay yana til bilan tutashib, til orqa va chuqur til orqa artikulyatsiya oʻrinlarini shakllantiradi. Kichik til pastlashib, tomoqni toraytiradi va artikulyatsiya bajaradi. Biroq bu fransuz tiliga xos boʻlib, oʻzbek tilida nutq tovushi hosil qilmaydi.

Lab fiziologiyaning nutq tovushi hosil boʻlishda oʻz vazifasi bor. U oʻzaro tutashuvi yoki nihoyatda yaqin kelib, havo sirgʻalib chiquvchi uchun oraliq qoldirishi mumkin. U choʻchchayib havo sizuvchi oraliq boʻyini choʻzadi va ayrim hollarda kengayadi, katta hajmda ochiladi. Lunj ham artikulyatsiya kechimida oʻz oʻrni bilan jagʻ tishlariga yopishib, oraliq hosil qilib turishi mumkin. Bu ham oʻziga xos ahamiyatga ega. Halqum, qattiq tanglay, tish va burun boshligʻi nafaol organlar boʻlib, nutq tovushi hosil qilishda harakat qilmaydi. Lekin nutq tovushi hosil qilishda soʻzsiz oʻz oʻrniga ega. Til oldi va lab-tish tovushlari kurak tishi ishtirokisiz artikulyatsiya qilinmaydi. Qattiq tanglay til orqa tovushlarida rezonator ton bazasi boʻlib xizmat qiladi. Tovush hiqildoqdan chiqar ekan, togʻri halqum devorlari va yumshoq tanglay devorlariga uriladi, ogʻiz boshligʻi rezonator tonlari asosan shu oʻrinda hosil boʻladi. Burun boshligʻining asosan orqa qismigina rezonator ton manbai boʻlib, old devorlar bu vazifani bajarmaydi. Burun boshligʻining old qismida rezonator ton hosil boʻlishi faqat manqalargagina xosdir.

Nutq organlarining ijro kechimi nutq organlarining nutq tovushi hosil qilishdagi ishtiroki, holati va ish kechimi kabilardan iborat. Bu barcha nutq organlarining fiziologik imkoniyati bilan bogʻliq boʻladi. Nafas yetkazuvchi va tovush hosil qiluvchi organlar barcha xalqlarda va odamda bir xil fiziologik imkoniyat doirasida vazifa bajaradi va tovush hosil qiladi. Nutq tovushlarini hosil qiluvchi organlar hammada bir xil boʻlishiga qaramay, har bir xalq, millat va hatto sheva vakilida alohida, oʻziga xos vazifa bajaradi. Chunki artikulyatsiya oʻrni boʻla oluvchi barcha nutq organi ham hamma xalqda bir xil shakllanavermaydi.

Artikulyatsiya oʻrni tovush hosil qilishda bevosita ishtirok etuvchi bir yoki undan ortiq nutq organining uygʻunligidir. Kishida lab, til, kichik til kabi nutq organlari vazifa oʻtashda faol harakat qiladi. Ulardan lablar ikki, til toʻrt, kichik til bir, boʻgʻiz bir artikulyatsiya oʻrniga ega boʻlishi mumkin. Lekin barcha til vakillarida ham ular bir xil toʻlaligi bilan shakllanmaydi va ishga kirishmaydi. Masalan, oʻzbeklarning boʻgʻiz artikulyatsiya oʻrni bilan kichik til artikulyatsiya oʻrni shakllanmagan boʻladi. Lab-tish artikulyatsiya oʻrni ham faqat oʻzlashgan leksikada chegaralangan holda foydalaniladi. Til oʻrta va til orqa artikulyatsiya oʻrni ham toʻla ishlatilmaydi. Chuqur til orqa bilan til oldi artikulyatsiya oʻrni oʻzbek tili uchun eng faoldir. Rus tili uchun boʻgʻiz, kichik til, chuqur til orqa umuman artikulyatsiya oʻrni sifatida sanalmaydi. Nemis, fransuz, ingliz, arab tillarida boʻgʻiz artikulyatsiya oʻrinlari ham shakllangan boʻlib, fransuz tilida kichik til artikulyatsiya oʻrni ham bor. Lekin ularda ham chuqur til orqa artikulyatsiya oʻrni yoʻq. Buning ustiga turli til vakili turli artikulyatsiya oʻrnidan turli artikulyatsiya usulida foydalanadi. Artikulyatsiya usuli artikulyatsiya oʻrnining artikulyatsiya kechimida tutgan holati boʻladi. Oʻzbek tilida til oʻrta artikulyatsiya oʻrnidan faqat sirgʻaluvchi tovushlar, til orqa artikulyatsiya oʻrnidan faqat portlovchi tovushlar, lab-tish artikulyatsiya oʻrnidan faqat sirgʻaluvchi tovushlar hosil qilish uchun foydalaniladi. Qolgan artikulyatsiya oʻrinlari maksimum ishlatiladi. Rus tilida til oʻrta va til orqa artikulyatsiya oʻrinlari ham maksimum vazifa bajaradi. Ularda lab-lab artikulyatsiya oʻrnida sirgʻaluvchi tovush hosil boʻlmaydi. Ayrim hollarda ayrim tovushlar artikulyatsiya usuli darajasi yoki gs miqdoriga koʻra ham farqlanishi kuzatiladi. Masalan, *i* tovushi oʻzbek tilida ayni rus va tojik tillaridagining oʻzi emas. U oʻzbek tilida nisbatan kengroq artikulyatsiya usulida talaffuz etiladi. *r* sonanti oʻzbek tilida rus tilidagidan kam gsga ega va hatto tilning titrash miqdori oʻzbek tilida bittadan ortishi kam kuzatiladi, rus tilida 2-3 titrash miqdoriga ega boʻlishi oddiy bir holdir. Bularning barchasi ogʻiz boshligʻidagi nutq organlarining qanday shakllanganligi va qanday harakatlanishga koʻnikma hosil qilganligi bilan bogʻli holatda kechadi. Qaysi nutq organining qanday harakatlanish uchun shakllanishi kishida

go‘daklikdan, onaning nutq kechimiga taqlid qilishdan boshlab yuzaga keladi. U qayta-qayta mashq qilishlarning natijasi bo‘ladi. Bir tilda so‘zlashuvchi har bir kishi o‘zaro bir xil artikulyatsiya o‘rinlarini bir xil harakatlanadigan holda shakllantiradi. Hatto qo‘shimcha ton beruvchi organ bo‘lgan burunning ham ton hosil qilish kechimigacha milliy xarakterga ega. Uning ham bir til vakilida o‘ziga xos foydalanishi kuzatiladi. O‘zbeklar faqat to‘rtta sonant artikulyatsiyasidagina foydalansa, fransuzlar unlilar artikulyatsiyasida ham foydalanadi. Buning ustiga undagi rezonator ton manbai o‘zbek tilidagi o‘xshash burun bo‘shlig‘ining orqa tomoni devorlari emas, nisbatan birmuncha beriroq o‘rnidagi devorlari hisoblanadi. Ko‘rdikki, har bir til vakilining o‘z tilida so‘zlashishi uchun o‘ziga xos artikulyatsiya o‘rinlari shakllangan bo‘ladi. Mana shu artikulyatsiya o‘rinlarining bir butun holati artikulyatsiya bazasi deb ataladi. Ular artikulyatsiya bazasida talaffuz etadi va so‘zlashadi. Har bir tilda so‘zlashuvchi vakilning o‘z tiliga oid tovushlarni talaffuz etish uchun shakllantirilgan artikulyatsiya bazasida talaffuz etishi, so‘zlashishi o‘z tiliga xos aksenti deb qaraladi. Ma’lum tilda so‘zlashuvchilarga xos aksent ularning faqat mavjud artikulyatsiya o‘rinlari bilan bog‘liq emas. U artikulyatsiya o‘rinlarining harakat usuli, yani artikulyatsiya usuli, artikulyatsiya usulining me’yori, tempi, tembri, kuchi; leksik urg‘ulari tizimi, intonatsiyasi kabilar bilan ham o‘lchanadi. Biroq aksentning asosida hamma vaqt ham artikulyatsiya bazasi turadi. Aksent chet tilda so‘zlashganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Odam o‘z tili artikulyatsiyasi bazasida chet tiliga oid qurilmalarni talaffuz etar ekan, u o‘sha chet tiliga xos aksentni emas, o‘z tiliga xos aksentni yuzaga chiqargan bo‘ladi. Ma’lum tilni aksentsiz gapirish deyilganda, boshqa til vakiliga nisbatan olinib, so‘zlanayotgan tilga xos artikulyatsiya bazasida artikulyatsiya usullari va uning me’yorini o‘rniga qo‘yib, urg‘u va intonatsiyani buzmagan holda gapirish nazarda tutiladi. Artikulyatsiyaning o‘zi ham bir necha fazadan tarkib topadi. Ular: 1) artikulyatsion ekskursiya 2) artikulyatsion kechim 3) artikulyatsion rekursiyadan iborat. Artikulyatsion ekskursiya artikulyatsiya o‘rnining ma’lum tovush talaffuzi uchun uning artikulyatsion usuliga safarbar etilishi, tayyorlanishi bo‘ladi.



Artikulyatsion kechim o'sha tovushni unga xos artikulyatsiya usulida qayd etishdir. Artikulyatsion rekursiya esa artikulyatsiya o'rnining artikulyatsion kechimdandan keyin o'z o'rniga, ya'ni holatiga qaytishidan iborat. Mana shu uch fazaning qayd etilishi artikulyatsiya deb qaraladi. Nutq tovushlarining har biri qanday hosil qilinishi ham nutq organlarining ijro kechimi hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nutq tovushlariga xos bo'lgan 3 belgini ayting.
2. Nutq tovushining biologik aspekti nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Nafas yetkazuvchi organlarga nimalar kiradi?
4. Tovushni shakllantiruvchi organlarga qaysilari kiradi?
5. Nutq organlarining ijro kechimi deganda nimani tushunasiz?
6. Artikulyatsiyaning o'zi necha fazadan tarkib topadi.

## **10-mavzu: Tilshunoslik va logopediya**

Reja:

1. Tilshunoslik va logopediya. Logopediya fanining maqsadi, vazifalari.

2. Logopediyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

3. Bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari.

4. Nutq buzilishlarini tasniflash. Tibbiy-pedagogik tasniflashda ajratiladigan nutq buzilishlarining turlari. Psixologik-pedagogik tasnif.

**Tayanch tushunchalar:** *logopediya, sistemalilik, komplekslilik, rivojlanish tamoyilini, nutq buzilishi, faoliyatli yondashuv, ontogenetik tamoyil, etiologiya va mexanizmlarni hisobga olish tamoyili (etiopatogenetik tamoyil), nuqsonli nutqning buzilish alomatlari va tuzilishini hisobga olish.*

**1. Tilshunoslik va logopediya. Logopediya fanining maqsadi, vazifalari.** Logopediya bu – nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta’lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o’rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandır. Logopediya nutq faoliyati buzilishining sabablari, mexanizmlari, alomatlari, oqimlari tarkibini o’rganadi. Shuning uchun uni maxsus pedagogika sirasiga qo’shadilar. Ushbu mavzuni shakllantirishda pedagogika oliy bilimgohi “Defektologiya” ixtisosligi talabalari uchun mo’ljallangan “Logopediya” o’quv qo’llanmasidan foydalanildi.<sup>53</sup>

“Logopediya” termini grekcha *logos* (so‘z, nutq), *peydeo* (tarbiyalayman, o‘qitaman) so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, tarjimada to‘g‘ri “nutqni tarbiyalash” ma’nosini anglatadi. Fan sifatida logopediya nutq nuqsonini tuzatish, nutqiy faoliyati zaiflashgan shaxslarni o‘qitish va tarbiyalash jarayoni hisoblanadi. Logopediyani o‘rganish obyekti – nutq nuqsoniga ega bo‘lgan shaxs. Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bo‘lsa ham chetga chiqish – bu nutq nuqsoni deb hisoblanadi.

Logopediya fanining quyidagi vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyatining ontogenezini o‘rganish.

2. Nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, alomatlari va darajalarini aniqlash.

3. Nutqiy faoliyati buzilgan bolalarning o‘z-o‘zidan va biror maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek, nutqiy zaiflikni ularning shaxs sifatida yetishuviga, ruhiy rivojlanishiga, turli ko‘rinishdagi faoliyatlarini namoyon qilishga, o‘zlarini tutishlariga ta’sirini aniqlash.

4. Rivojlanishida turli xil farqlar bo‘lgan bolalarda (eshitish, ko‘rish, fikrlash qobiliyatining hamda tayanch harakat apparatining

---

<sup>53</sup> Филичева Т.Б., Волкова Л.С., Чиркина Г.В., Мүминова Л.Р., Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –Б.5-13; 28-34; 46-49.

buzilishi hollarida) nutqning shakllanishi va nutq buzilishlari xususiyatini oʻrganish.

5. Nutq buzilishining kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi va alomatlarini aniqlash.

6. Nutq buzilishlarining pedagogik tashxisi, metodlarini ishlab chiqish.

7. Nutq buzilishlarini tartibga solish.

8. Nutq buzilishini bartaraf etish tamoyillari, differensiyalashgan metodlari va vositalarini ishlab chiqish.

9. Nutq buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish.

10. Logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

Logopediyaning yuqorida koʻrsatilgan vazifalarida uning ham nazariy, ham amaliy yoʻnalishlari belgilab berilgandir. Uning nazariy tomoni – nutq buzilishlarini oʻrganish, hamda ularning oldini olish, aniqlash va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Amaliy tomoni – nutq buzilishining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishni oʻz ichiga oladi. Logopediyaning nazariy va amaliy vazifalari bir-biriga chambarchas bogʻlangandir. Qoʻyilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1) fanlararo aloqalardan foydalanish va nutq hamda undagi nuqsonlarni oʻrganuvchi koʻplab mutaxassislar (psixologlar, neyropsixologlar, neyrofiziologlar, tilshunoslar, pedagoglar, turli ixtisosdagi vrachlar va boshqa kishilar)ni hamkorlikda ish olib borishga jalb etish;

2) nazariya sohasidagi yangiliklarni amaliyotga tezroq tatbiq etish uchun fan va amaliyot oʻrtasidagi aloqalarni, nazariy va amaliy muassasalar orasidagi hamkorlikni taʼminlash;

3) nutqning buzilishini oʻz vaqtida aniqlash va bartaraf etish tamoyillarini amalga oshirish;

4) nutq buzilishining oldini olish uchun aholi oʻrtasida logopedik bilimlar targʻibotini olib borish.

Yuqoridagi vazifalarning bajarilishi logopediyaning taʼsir kuchini belgilaydi.

Logopedik ta'sir etishning asosiy yo'nalishi nutqning rivojlanishi, nuqsonli nutqni tuzatish va nuqsonlarning oldini olishdan iborat. Logopedik ish jarayonida sezuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish, uni harakatga keltiruvchi kuch, ayniqsa, nutqqa ta'sir etuvchi harakatlarni bilish, ayniqsa, tafakkur faoliyatini, xotira, diqqat jarayonlarini rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, yaxshilash bilan bir vaqtda bola shaxsini tarkib toptirish, ijtimoiy muhitga ta'sir etish nazarda tutiladi. Logopedik jarayonni tashkil etish nutq buzilishini to'g'rilash bilan bir qatorda psixofizik nuqsonlarni ham tugatish yoki yengillatish uchun sharoit yaratadi. U pedagogik ta'sir qilishning muhim maqsadi bo'lgan shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beradi.

Logopediyaning ahamiyati. Logopediya fan sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. U tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning nutqi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyatning chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi. Nutq vazifasi insonning muhim ruhiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So'zning ahamiyati o'z-o'zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o'zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o'xshash emas va ma'lum darajada bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanishi jarayonida murakkab, sifat jihatdan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo'ladi. Nutqiy muomala qobiliyatini o'zlashtirish o'ziga xos insoniy, ijtimoiy aloqalar uchun zamin hozirlaydi. U tufayli bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shakllandi va oydinlashadi, uni aks ettirish shakllari takomillashadi. Bolaning nutqni o'zlashtirishi uning xatti-harakatlarini anglash, rejalashtirish va tartibga solishga imkon beradi. Nutqiy muomala faoliyatning turli shakllarini rivojlantirish va jamoa mehnatida ishtirok etish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi. U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari (nutq buzilishlarining xususiyatiga bog'liq holda) bolaning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta'sir etadi, uning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Og'ir nutqiy buzilishlar aqliy rivojlanishga,

ayniqsa, bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga ta'sir etishi mumkin.

Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aslida bo'lmagan ruhiy buzilishlarni, hissiy-irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakteridagi salbiy fazilatlar (tortinchoqlik, qat'iyatsizlik, odamovilik, salbiylik, nomukammallik tuyg'usi)ning rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin. Bularning barchasi savodxonlikni egallashga, umuman o'zlashtirishga, kasb tanlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, logopediya fanining ahamiyati bolaning nutqiy buzilishini bartaraf etish, shu bilan birga uning mukammal, har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir.

**2. Logopediyaning boshqa fanlar bilan aloqasi.** Logopediya boshqa fanlar bilan chambarchas bog'langandir. Shaxsga har tomonlama ta'sir ko'rsatish, nutq buzilishini bartaraf etish va oldini olish bilan omilkorona shug'ullanish uchun nutqdagi nuqsonlarning belgilarini, ularning etiologiyasi, mexanizmlari, nutq faoliyati buzilishi tarkibidagi nutqiy va nutqsiz belgilar munosabatlarini bilish kerak. Bu logopediyaning boshqa fanlar bilan bo'ladigan aloqasini belgilaydi.

Tizimlar ichidagi va tizimlararo aloqalar bor. Tizim ichidagi aloqalarga pedagogika hamda maxsus pedagogikaning turli sohaları: surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika metodikasi, umumiy va maxsus psixologiya bilan bo'ladigan aloqalari kiradi. Tizimlararo aloqalarga esa tibbiy-biologik va tilshunoslik fanlari o'rtasidagi aloqalar kiradi.

Logopediya umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada tashkil etilishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning qurilishi va harakatga kelishi haqidagi bilimlardan foydalanadi.

Nutq buzilishi mexanizmlarini tushunish tuzatish jarayoni qonuniyatlarini aniqlash uchun oliy ruhiy funksiyalarning dinamik lokalizatsiyalanishi to'g'risidagi, nutqning ongda shakllanishi borasidagi bilimlarni egallash kerak bo'ladi.

Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til belgisi tartiblaridan qo'llanish yotadi. Tilning murakkab tizimi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o'zlashtirib olinadi.

Nutqiy tizim bosh miya a'zolarining faoliyatiga asoslanadi. Ulardan har biri nutq faoliyatining o'ziga xos vazifasini bajaradi.

A.R. Luriya miya faoliyatini uchta funksional blokka ajratadi.

Birinchi blok – bosh miya po'stlog'i osti (yuqori stvol va limbik oblast) haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. U bosh miya qatlami tonusining normalligi va uning tetiklik holatini ta'minlaydi.

Ikkinchi blok – orqa miya qatlami katta yarimsharlari bo'laklarini o'z ichiga oladi, tashqi dunyodan olingan sezgi axborotlarini qabul qiladi, qayta ishlaydi va saqlaydi. U bilish (gnostik) jarayonini amalga oshiradigan asosiy miya apparati hisoblanadi. Uning tuzilishi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi doiralarga ajraladi. Birlamchi doira – miya qatlamining proyeksion doiralari, uning neyronlari juda ham yuqori darajada o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularda alohida sezgi a'zolaridan sezgi axborotlarini qabul qilish hodisasi yuz beradi.

Miya qatlami apparatlarining birlamchi doiralari ustidan ikkilamchi doiralar qurilgandir. Ular birlamchi doira orqali olingan qo'zg'alishlarni tahlil qiladi. Ikkilamchi doiralar birlamchi doiralar kabi, o'zining ixtisosiy moddalligi (ko'rish, eshitish va boshqa doiralar)ni saqlaydi. Birlamchi va ikkilamchi doiralar u yoki bu analizator (ko'rish, eshitish va boshqalar)ning bosh miya qatlami birikmasini o'zida namoyon etadi. Uchlamchi doiralar analizatorlarning miya qatlami bo'linmalarini o'zgartirish doiralari hisoblanadi. Ular turli moddallikda olingan sezgi axborotlarini tahlil, sintez, integratsiya qilish vazifasini o'taydi. Ularning faoliyati asosida sintezlarning beqaror va tashqi darajasidan simvolik darajaga, e'tiborini qaratish munosabatlari, murakkab logik-grammatik so'zlar qurilishi haqidagi bilimlar bilan ish ko'rishga o'tish sodir bo'ladi.

Uchinchi blok katta yarim sharlar qobig'ining oldingi bo'limlari (motor, motor oldi va old frontal soha) doirani o'z ichiga oladi. Bu blok inson faoliyatini rejalashtirish, moslashtirish va nazorat qilishni ta'minlaydi. U, shuningdek, miya qobig'i ostidagi a'zolar faoliyati barcha tizimlarning tonusi va tetik holatini ular faoliyati oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq moslashtirishni amalga oshiradi.

Nutq faoliyati barcha bloklarning birgalikda ishlashi natijasida vujudga keladi. Shu bilan birga har bir blok nutq jarayonida alohida, maxsus o'ziga xos xususiyati bilan ishtirok etadi.

Nutqning akustik belgilarini ajratib ko'rsatish va differensiyalash nutq-eshitish analizatori kortikal apparatlarning analitik-sintetik faoliyati bilan ta'minlanadi. Bunga miya qobig'i markaziy va old motor quyi bo'linmalari sohasi bilan bog'liq bo'lgan bosh miya qobig'i (Vernike doirasi)ning so'l yuqori ikkilamchi qismlari kiradi.

Nutq aktining artikulyatsiyalashuvi, motor tashkil etilishi jarayoni nutq apparati muskullarining murakkab tuzatuv ishini maxsus muvofiqlashtirish asosida amalga oshiriladi. Nutq aktining motor quyi yig'indisi markaziy qismlarning ikkilamchi bo'limlari (kinestetik apparat) va chap o'ram qismining quyi bo'limlari (kinetik apparat) bilan ta'minlanadi. Markaziy qismda nutq apparati muskullaridan yuboriladigan kinestetik sezgilar analizi sodir bo'ladi. O'ram qismida esa nutq aktining motor dasturi tashkil etiladi, qator nerv impulslari, bir harakatdan ikkinchi harakatga yengil o'tish imkoniyatini ta'minlovchi kinestatik modellar yaratiladi.

Nutq birliklarini tanlanish va ularning kompensatsiyalashuvi, ma'noning nutq ko'rinishiga aylanish jarayoni bosh miya qobig'ining eng yuqori darajada shakllanishidir. U, ya'ni nutq bosh suyagi old va ustki qismi uchlamchi bo'linmalarining aralashuvisiz hosil bo'lmaydi. Bosh miya qobig'ining uchlamchi bo'limlari bir tekisda qabul qilinadigan akustik-motor axborotlarining fikrlash sxemasi va obrazlariga o'tkazilishini ta'minlaydi. Miya qobig'ining ustki qismida, keng aloqalarni anglatuvchi sxema ham shakllanadi.

Yozma nutq jarayonida ham bosh miya qobig'ining ensa va ensa-tepa qismlarining turli bo'limlari ishtirok etadi.

Shunday qilib, nutq jarayonida bosh miya qobig'ining turli qismlari turlicha ishtirok etadi. Bosh miya qobig'i qaysidir qismining jarohatlanishi nutq faoliyati buzilishining o'ziga xos alomatlariga olib keladi. Nutq jarayonining miyada amalga oshishi haqidagi ma'lumotlar nutq faoliyati buzilishining etilogiyasi va mexanizmlari to'g'risidagi tasavvurlarni aniqlashtirishga imkon beradi. Bu ma'lumotlar bosh miyaning lokal jarohatlanishidagi nutq buzilishlarining turli shakllarini (afaziya) differensial diagnostikasi uchun juda muhim bo'lib, bemorlar nutqini tiklash ustida samarali logopedik ish olib borish imkonini beradi.

Logopediya otorinolarinologiya, nevropotologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya bilan uzviy bog'langandir. Jumladan, nutq va eshitish a'zolarining patologiyasi (masalan, tovush buzilishida) nafaqat buzilishlar etilogiyasini aniqlashga, balki tibbiy ta'sir ko'rsatish bilan bo'ladigan logopedik ishlarni to'g'ri qo'shib olib borish uchun ham imkon beradi. Masalan, tovushning buzilishi qisman hiqildoq va tovush burishiqlari (g'urralar, tugunchalar, papillomalar, tovush burmalarining chandiqa aylanishi va boshqalar) ning turli organik jarohatlanishidan hosil bo'lishi mumkin. Bunday hollardagi tovush buzilishining tovush apparati fiziologik ishini normallashtirmay turib davolash mumkin emas. Bu dori-darmon, jarrohlik, fizioterapiya, psixoterapiya uslubida ta'sir etish bilan ta'minlanadi.

Nutq buzilishining ko'pgina turlari markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bilan bog'liq bo'lib, u logoped va nevropatolog-vrach yoki psixonevrologning hamkorlikda ishlashi bilan aniqlanishi mumkin. Nutq buzilishi hollarida ruhiy faoliyatning turli buzilishlari: ruhiy rivojlanishda orqada qolish, o'zini tutish va his-hayajon hollaridagi buzilishlar, diqqat-e'tibor, xotira, aqliy faoliyat buzilishlari ko'zga tashlanishi mumkin. Nutq buzilishlarini ularning paydo bo'lish mexanizmlari tahlili, markaziy asab tizimi buzilishlari bilan bog'liq bo'lgan, birlamchi va ikkilamchi ruhiy faoliyati ishlarining hammasi psixonevrolog-vrachning xizmat doirasiga kiradi. Psixonevrolog-vrach



bolaning aqliy jihati haqida xulosa chiqaradi, nutqiy kamchiligini tibbiy jihatdan aniqlaydi, talab etiladigan davo choralarini qoʻllaydi.

Nutq buzilishining koʻpgina koʻrinishlari miya rivojlanishining barvaqt sekinlashuvi bilan bogʻliq. Bunday hollarda logopedik ish markaziy asab tizimini maxsus dori-darmonlar bilan davolash orqaligina samara berishi mumkin. Bunday davoni psixonevrolog-vrach belgilaydi. Ayrim paytlarda nutq buzilishlari his-hayajonli qoʻzgʻolishning kuchayishi natijasida sodir boʻladigan harakatdagi notinchlik bilan qoʻshiladi. Bunda bola maxsus davolangunga qadar logopedning ishi samara bermaydi.

Nutqning alohida koʻrinishdagi buzilishlariga, masalan, duduqlanishning ayrim turlari, mutizmga yoki keskin ruhiy iztiroblar – qoʻrqish, hayajon, koʻnikkan muhitning almashinishi (yaqin kishilaridan ayrilish) va boshqalar sabab boʻlishi mumkin. Ularning paydo boʻlish vaqtida bola tegishli kun tartibi va davoga muhtoj boʻladi; faqat psixonevrolog-vrach va logopedning hamkorlikda ish olib borishi uning sogʻayib ketishiga zamin hozirlaydi. Bu maʼlumotlarning hammasi shundan dalolat beradiki, logopediya pedagogik fan hisoblangani bilan u oʻz oldidagi vazifalarini faqat tibbiyot fanlari va avvalo, nevropatologiya hamda bolalar psixologiyasi yordamida muvaffaqiyatli bajarishi mumkin.

Anomal bolalarni, shu jumladan, nutqi buzilgan bolalarni ham oʻqitish va tarbiyalash nazariyasi asab tizimi tuzilishi, uning rivojlanish xususiyatlari va vazifalari haqidagi bilimlar asosiga quriladi.

Logoped nutq buzilishining nevrologik asoslarini bilishi, bolalar psixopatologiyasi masalalarini tushunishi kerak. Unda oligofreniya va ruhiy rivojlanishning tormozlanishi, harakat va his-hayajonli buzilishlarda namoyon boʻladigan, bolalardagi ruhiy buzilishlarning eng koʻp uchraydigan shakllari haqida ham tasavvur boʻlishi lozim. Bu bilimlar unga nutq buzilishining sabablarini toʻgʻri aniqlashda, tuzatishning samarali metodlarini tanlashda, bolani oʻqitish va

tarbiyalash hamda uning nuqsonli rivojlanishini oldini olishda yordam beradi.

Nevropatologiya, psixologiya, oligofreniya klinikasi, eshitish, ko'rish, nutq a'zolari patologiyasi bilan aloqada bo'lish nutq buzilishini farq qilgan holda tashxis qilish uchun zarurdir. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, sensor alaliya va eshitishning pasaygan hollaridagi nutq buzilishlarini aniqlash, eshitish faoliyatini chuqur tekshirishni talab qiladi; oligofreniya va alaliya hollaridagi nutq buzilishlarini belgilash ruhiy va sensomotor rivojlanish xususiyatlarini, intellektning ahvolini aniqlashsiz bo'lmaydi.

Tibbiyot fanlaridan ma'lumotlar logopedga nutq buzilishining mexanizmlari, etilogiyasini o'rganishga to'g'ri yondashish uchun yordam beradi, nutq buzilishlarining turli ko'rinishlarini bartaraf etishda diagnostika va differensiyalashgan logopedik ta'sir etish masalalarini to'g'ri hal etish imkonini yaratadi. Bolalarni turli tipdagi maxsus muassasalarga to'g'ri tanlash ham tashxis qo'yishga bog'liqdir.

Logopediya tilshunoslik va psixolingvistika bilan uzviy bog'langan. Nutq tillar birligining turli darajasi va ularning amal qilish qoidalaridan foydalanishni ham nazarda tutadi. Ular har xil buzilishlarda turlicha buzilishi mumkin. Bolaning til normalarini o'zlashtirib olish qonunlari va izchilligini bilish logopedik xulosalarni aniqlashtirishga yordam beradi, logopedik ta'sir etish tizimlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'ladi.

**3. Bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari.** Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqining to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi. Masalan, 1 yosh-u 4 oylik bola gapirmayapti. Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi so'zlar qachon paydo bo'lishini bilsa, u holda u bu bolaning normal yoki nonormal rivojlanayotganini hal qila oladi.

Bola nutqining rivojlanish xususiyatlarini bilish, nutq buzilishlariga to'g'ri diagnoz qo'yish uchun ham zarurdir. Ba'zi mutaxassislar uch yoshli bolaning tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun uni logoped qabuliga yuboradilar. Bu to'g'rimi? Yo'q, albatta. Chunki nutqi normal rivojlanayotgan bolaga hali bu yoshda ba'zi bir tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish xos bo'ladi. Bu ko'rinish fiziologik dislasiya deb atalib, bu shu yoshdagi bolalarda artikulyatsiya apparatining hali yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda to'g'ri va aniq tarbiyaviy-tuzatish ish rejasini tuzish uchun bola nutqining rivojlanish qonuniyatlarini yana bir karra bilish zarur hisoblanadi.

Olimlar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko'rsatadilar, ularni har xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar.

G.L. Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishini ikki davrga ajratadi:

- 1) tayyorlov davri (2 yoshgacha);
- 2) nutqning mustaqil shakllanish davri.

A.N. Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi;

- 1) tayyorgarlik davri - 1 yoshgacha;
- 2) bog'chagacha bo'lgan davr- 3 yoshgacha;
- 3) maktabgacha bo'lgan davr-7 yoshgacha;
- 4) maktab davri.

Quyida bu davrlarning to'liq tavsifi ustida to'xtalib o'tamiz. Shunday qilib, birinchi davr - tayyorgarlik davri (bola tug'ilgandan bir yoshgacha). Bola tug'ilgan daqiqadan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yig'idan iborat va odam nutqidan uzoq bo'ladi. Lekin ana

shu qichqiriq va yig'ri nutq apparatining 3 bo'limini (nafas olish, ovoz hosil bo'lish, artikulyatsion) rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Ikki hafta o'tgach, bola gapirayotgan odamning ovoziga e'tibor bera boshlaydi. Unga gapirayotganda quloq soladi, yig'lashdan to'xtaydi. Bir oyligining oxiriga borib, uni mayin qo'shiq (alla) ostida tinchlantirish mumkin bo'lib qoladi. Keyinchalik u boshini gapirayotgan odam tomonga buradi yoki uni ko'zlari bilan kuzatadi. Tez kunda bola intonatsiyaga e'tibor bera boshlaydi: mayin gapirganda tinchlanadi, keskin intonatsiyaga yig'laydi. 2 oylik atrofida gu-gulash, 3-oyning boshida bo'g'inlarning talaffuzi paydo bo'ladi (*aga-aga, ta-ta, ba-ba* va boshqalar). Bunda tovushlar birikmasi aniq artikulyatsiya qilinmaydi. Bola besh oyligida tovushlarni eshitadi. Atrofdagilarning lablari artikulyatsion harakatini ko'rib unga taqlid qilishga harakat qiladi. Olti oyligidan boshlab bola taqlid qilish orqali ba'zi bo'g'inlarni (*na-na-na, be-be-be, da-da-da* va boshqa) talaffuz eta boshlaydi. Keyinchalik bola taqlid qilish orqali nutqning xilma-xil birliklarini asta-sekin o'zlashtira boshlaydi. Bunda bola nafaqat fonemalarni, balki nutqning sur'at, ritm, ton, musiqaviyligi, ifodaliligini o'zlashtiradi. Ikkinchi yarim yillikda bola ba'zi bir tovushlar birikmasini idrok qila boshlaydi va ularni predmetlar yoki harakatlar bilan bog'laydi (*bu, ma, bey*). Bola yetti-to'qqiz oyligida kattalar ortidan turli xil bog'inlarni qaytara boshlaydi. O'n-o'n bir oyligida so'zlarning o'ziga reaksiya paydo bo'la boshlaydi. Bu vaqtda bola nutqi shakllanayotgan shart-sharoitlar (kattalarning to'g'ri nutqi va boshqa) muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bir yoshning oxiridan boshlab bolada faol nutq rivojlana boshlaydi, birinchi so'zlar paydo bo'ladi. Ammo bu so'zlar ko'pincha faqat bolaga, uning yaqinlariga tushunarli bo'ladi.

**Ikkinchi davr – bog'chagacha bo'lgan davr (bir yoshdan 3 yoshgacha)**

Bolada birinchi so'zlar paydo bo'lgandan so'ng, tayyorlov davri tugab, faol nutqni egallash davri boshlanadi. Bu vaqtda bola atrofdagilar artikulyatsiyasiga e'tibor beradi. U gapirayotganlar orqasidan so'zlarni ko'p marotaba takrorlaydi va o'zi ham so'zlarni talaffuz qiladi. Talaffuz vaqtida bola ba'zi tovushlarni noto'g'ri talqin etadi, o'rnini almashtiradi

yoki o'z nutqida qo'llamaydi. Bu vaqtda bola bir so'z yoki tovushlar birikmasi bilan predmetni ham, iltimosni ham, his-tuyg'uni ham ifodalashi mumkin. Bola hayotining 2-3-yiliga kelib, uning lug'at boyligi sezilarli darajada boyib boradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina xilma-xil tadqiqotchilar bola lug'at boyligining o'sib borishida turli raqamli ma'lumotlarni ko'rsatadilar. Eng keng tarqalgan ma'lumotga ko'ra, bolalarning lug'at boyligini bog'chagacha bo'lgan davrda o'sishi quyidagi raqamlarni ko'rsatadi: 1 yosh-u 6 oyda –10-15 ta so'z, 2-yilning oxiriga kelib – 300 ta so'z, 3 yoshga borganda – 1000 ta so'z.

Bola hayotining 3-yiliga kelib, nutqning grammatik tomoni shakllana boshlaydi. Avval bola o'z xohish va iltimoslarini bir so'z bilan ifodalaydi. Keyinchalik bir, ikkita so'zdan iborat sodda jumlar tuza boshlaydi.

**Uchinchi davr – maktabgacha bo'lgan davr** (3 yoshdan 6 yoshgacha).

Maktabgacha bo'lgan davrda bolalar birinchi navbatda artikulyatsion jihatdan oson talaffuz etiladigan: lab-lab, lab-til undoshlari - *p, b, m, f, v* va boshqalarni o'rganadilar. Artikulyatsion jihatdan talaffuz etish qiyin bo'lgan: shivirlovchi, sirg'aluvchi (*s, z, sh, j, ch*) va sonor (*r, l*), til orqa (*k, g*) tovushlarini talaffuzini egallashda qiynaladilar. Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda noto'g'ri qo'llaydilar yoki talaffuz etmaydilar. 3-7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalarda eshitish malakalari rivojlanib boradi, bu esa bolaning o'z talaffuzini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Ba'zi hollarda bola o'z kamchiligini to'g'rilaydi. Unda fonematik idrok shakllanib boradi. Bu davrda lug'at boyligining o'sishi davom etadi. Bolaning 4-6 yoshida uning aktiv lug'ati 3000-4000 ta so'z gacha yetadi. Lug'at boyligi o'sib borishi bilan birgalikda nutqning grammatik tomoni ham rivojlanib boradi. Bola hayotining 4-yiliga kelib, ular o'z nutqlarida sodda va murakkab gaplarni qo'llay boshlaydilar. 5 yoshga kelib esa, qo'shma gaplardan erkin foydalana oladilar. 5 yoshli bolalar qo'shimcha savollarsiz hikoya va ertaklarni aytib berish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu davrda fonematik idrok

sezilarli darajada rivojlanadi. Bola avval unli va undoshlarni, soʻng sonor, shovqinli va sirgʻaluvchi tovushlarni ajrata boshlaydi. Normada 4 yoshli bola barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakllangan boʻlishi lozim. Bu vaqtga kelib tovushlarni toʻgʻri talaffuzining shakllanishi tugallanadi va bola har tomonlama toʻgʻri, aniq gapiradi.

**Toʻrtinchi davr - maktab davri** (7 yoshdan 17 yoshgacha). Bu davrning oʻziga xos tomoni shundaki, bolalar nutqining rivojlanishi oldingi davrlardagiga nisbatan ongli ravishda roʻy beradi. Bu davrda bolalar tovushlar analizi, nutqning grammatik qonuniyatlarini egallaydilar. Bu davrda nutqning yangi turi yozma nutq yetakchi rol oʻynaydi. Grammatik konstruksiyalar ham murakkablashib boradi, *chunki, agar, qachonki* kabi bogʻlovchilarni ishlata boshlaydilar. Bu bolaning tafakkur jarayonlari murakkablashib borayotganligini va bu nutqda oʻz ifodasini topayotganligini koʻrsatadi.

Bola nutqining rivojlanish jarayoni oʻz vaqtida toʻgʻri kechishi uchun maxsus sharoitlar zarurdir. Buning uchun:

- bola ruhiy va jismoniy jihatdan sogʻ boʻlishi;
- normal aqliy qobiliyatga ega boʻlishi;
- normal eshitishi va koʻrishi;
- yetarli darajada ruhiy faollikka ega boʻlishi;
- gaplashish ehtiyojiga ega boʻlishi;
- toʻgʻri nutq muhitiga ega boʻlishi lozim.

Bolada nutqning normal rivojlanishi unga doimo yangi tushunchalarni oʻzlashtirib olishga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurini kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, nutq, uning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bogʻliqdir.

**3. Nutq buzilishlarini tasniflash. Tibbiy-pedagogik tasniflashda ajratiladigan nutq buzilishlarining turlari. Psixologik-pedagogik**

**tasnif.** Nutq buzilishlarining barcha turlarini ruhiy-lingvistik mezonlar asosida nutqning qaysi turi buzilganiga qarab ikkita guruhga bo'lish mumkin: og'zaki va yozma.<sup>54</sup>

Og'zaki nutqning buzilishi, o'z navbatida ikkita turga bo'linishi mumkin: 1) bayon qilishning fonatsion (tashqi) ta'minlanishi, ular nutqning talaffuz tomonining buzilishi deb ataladi va 2) bayon qilishning semantik-struktura (ichki) jihatdan ta'minlanishi, ular logopediyada nutqning uzluksiz yoki ko'p tovushli buzilishi, deb ataladi. 1. Bayon qilishdagi fonatsion ta'minlashning zaiflashuvi buzilgan bo'g'inga bog'liq holda tabaqalanishi mumkin: a) tovush shakllanishi; b) bayon qilishning sur'at-ohang jihatdan tashkil etilishi; v) intonatsion melodik; g) tovush chiqarishning namoyon bo'lishi. Bu zaiflashuvlar turli jarayonlarda mavhum holda kuzatilishi mumkin, logopediyada ularga bog'liq bo'lgan buzilishning quyidagi turlari ajratiladi: 1. Disfoniya (afoniya) – tovush apparatining patologik o'zgarishlari oqibatida fonatsiyaning yo'q bo'lishi yoki zaiflashuvi. Ma'nodoshlari: *tovushning buzilishi, fonatsiyaning buzilishi, fonotor buzilishlar, vokal buzilishlar*. 2. Bradilaliya – nutqning patologik sekinlashgan sur'ati. Ma'nodoshi: bradifraziya. Artikulyar nutq dasturining sekinlashgan ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi, markaziy bog'langan va o'z tabiatiga ko'ra organik yoki funksional bo'lishi mumkin. 3. Taxilaliya – nutqning patologik tezlashgan sur'ati. Ma'nodoshi: taxifraziya. Artikulyar nutq dasturining tezlashgan holda amalga oshirilishida namoyon bo'ladi, o'z tabiatiga ko'ra, markaziy bog'langan, organik yoki funksional hisoblanadi. Sekinlashgan sur'atdagi nutq cho'ziq tortilgan, bir ohangda bo'ladi. Tezlashgan sur'atda shoshilinch, intiluvchan, shiddatli ekanligi ko'zga tashlanadi. Nutqning tezlashuvi agromatizmlar bilan birga sodir bo'lishi mumkin. Bunday holatlar ayrim paytlarda battarizm, parafraziya atamallari bilan ataluvchi mustaqil buzilishlar sifatida ajratiladi. Patologik tezlashgan nutqning asoslanmagan bo'linishlar, tutilish, to'xtab qolishlar bilan uchraydigan hollarda u

---

<sup>54</sup> Филичева Т.Б., Волкова Л.С., Чиркина Г.В., Мўминова Л.Р., Аюпова М.Ю. Логопедия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –В.28-34.

poltern atamasi bilan ataladi. Bradilaliya va taxilaliya – nutq sur'atining buzilishi – nutq jarayonining ravonligi, nutqning ohang va melodik-intonatsion ifodaliligining buzilishi oqibati hisoblanadi.

4. Duduqlanish – nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur'at-ohangning buzilishidir. Ma'nodoshi: *logonevroz*. Markaziy bog'langan bo'ladi, funksional yoki organik ko'rinishga ega, ko'proq bola nutqining rivojlanishida paydo bo'ladi.

5. Dislaliya – tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishi. Ma'nodoshlari: *tili chuchuklik (eskirgan), tovush talaffuzidagi nuqsonlar, fonetik nuqsonlar, fonemalarni talaffuz qilishdagi notekisliklar*. Nutqning noto'g'ri tovushli (fonemali) turlanishida: tovushlarni buzib talaffuz qilishda, tovushlarning almashinuvi yoki ularning yo'qligida namoyon bo'ladi. Nuqson shuning bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bunday paytda bolada artikulyar baza shakllanmaydi (artikulyar tomonning tovush talaffuz etish uchun zarur bo'lgan barcha jihatlari o'zlashtirilmaydi) yoki artikulyar tomon noto'g'ri shakllanadi. Buning oqibatida nomuvofiq tovushlar hosil bo'ladi. Artikulyatsion apparatning anatomik nuqsonlari bilan bog'langan buzilishlar alohida guruhni tashkil etadi. Talaffuzning buzilishi psixolingvistik jihatdan yo fonemalarni ajratish va anglash operatsiyalarining shakllanmaganligi oqibati (ya'ni, idrok etishdagi nuqsonlar) yoki saralash va ishlab chiqarish (shuningdek, unumlilik nuqsoni) vazifasini shakllanmaganligi, yohud tovushlarni ishlab chiqarish shartlarining buzilganligi deb qaraladi. Anatomik nuqsonlarda buzilishlar organik xususiyatga, ularning ishtirokisiz esa funksional xususiyatga ega bo'ladi. Buzilishlar, odatda, bola nutqining rivojlanish jarayonida; periferik apparatning jihozlanish hollarida u har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin. Tavsif qilingan nuqsonlar saylanma hisoblanadi va ularning har biri mustaqil notekislik maqomiga egadir. Ammo shundaylari ham uchraydiki, ularda tovushni bayon qilishning fonatsion turlanishlari murakkab mexanizmidagi bir necha bo'g'inlarning bir paytning o'zida xastalashuvi kuzatiladi. Bundaylarga rinolaliya va dizartriya kiradi.

6. Rinolaliya – tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan



bog‘liq holdagi buzilishdir. Ma‘nodoshlari: dimog‘ bilan gapirish (eskirgan), palatolaliya. Tovush tembrining patologik o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Bu holat chiqarilayotgan nafas oqimining barcha nutq so‘zlarini talaffuz qilish paytida burun bo‘shlig‘iga o‘tishi va unda aksado berishi oqibatidir. Rinolaliya paytida bundan tashqari barcha nutq tovushlarining (dislaliya holatidagi kabi alohida tovushlarni emas), buzib talaffuz etilishi kuzatiladi. Bunday nuqsonda prosodik buzilishlar ham tez-tez uchrab turadi, rinolaliya paytidagi nutq kam tushunarsiz (noaniq), bir ohangli bo‘ladi. Bunday buzilishlar chet ellardagi qator ilmiy ishlarda “palatolaliya” (lotincha palatum – tanglay) atamasi bilan ataladi. Qolgan barcha hollardagi tovushlarning turli lokalizatsiyalarning funksional yoki organik buzilishlari bilan bog‘liq noto‘kis talaffuzi bunday ishlarda rinolaliya deb ataladi. 7. Dizartriya – nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog‘liq holdagi buzilishidir. Ma‘nodoshi: *tili chuchuklik (eskirgan)*. Bunda fonatsion turlanishdagi bayonning murakkab mexanizmlari barcha bo‘g‘inlarning shakllanmagani kuzatiladi. Buning natijasida tovush nuqsonlari, prosodik va artikulyatsion-fonetik nuqsonlari paydo bo‘ladi. Tovushli nutqni ishlab chiqishning imkoni bo‘lmagan paytda paydo bo‘ladigan anartriya dizartriyaning og‘ir darajasi hisoblanadi. Yengil dizartriya paytida, qachonki nuqson ko‘proq artikulyar, fonetik buzilishlarda namoyon bo‘lganida, uning uncha bilinmaydigan shakli haqida so‘z yuritiladi. Bunday holatlarni dislaliyadan ajratish lozimdir. Dizartriya markaziy xarakterdagi organik buzilishlarning oqibati hisoblanadi. Markaziy asab tizimi buzilishini lokalizatsiyalashda dizartriyaning turli shakllari ajratib ko‘rsatiladi. Buzilishning og‘irligiga qarab esa, dizartriyaning paydo bo‘lish darajalari farq qilinadi. Dizartriya ko‘pincha bosh miyaning erta falajlanishi natijasida paydo bo‘ladi, lekin u bola rivojlanishning har qanday bosqichda neyroinfeksiya va miyaning boshqa kasalliklari oqibatida paydo bo‘lishi ham mumkin. Bayon qilishning strukturali-simantik (ichki) turlanishidagi buzilishi ikki tur: alaliya va afaziya bilan ko‘rsatiladi. Alaliya – bosh miya qobig‘idagi nutq zonalarining bolaning ona qornidagi yoki ilk rivojlanish davrida organ shikastlanishi natijasida

nutqning yo‘q bo‘lishi yoki rivojlanmay qolishi. Ma’nodoshlari: disfaziya, erta yoshda paydo bo‘ladigan bolalar afaziyasi, rivojlanish afaziyasi, gunglik (eskirgan).

2. Afaziya – bosh miyaning muayyan joyi shikastlanishi bilan bog‘liq holda nutqning to‘liq yoki qisman yo‘qolishi. Ma’nodoshlari: nutqning buzilishi, yo‘qolishi.

Yozma nutqning buzilishi. Uning qaysi turi buzilganiga qarab ikki guruhga ajratiladi. Mahsuldor tur buzilganida yozuvning zaiflashuvi, retseptli yozma faoliyat buzilganida o‘qishning zaiflashuvi qayd qilinadi. 1. Disleksiya – o‘qish jarayonining qisman o‘ziga xos buzilishi. Harflarni idrok etish va tanishdagi qiyinchiliklarda; harflarni bo‘g‘inlarga qo‘shish va bo‘g‘inlardan so‘z tuzish borasidagi tutilishlarda (bu so‘z shakllarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi); agrammatizm va o‘qiganlarini buzib tushunishda namoyon bo‘ladi. 2. Disgrafiya – yozish jarayonining qisman o‘ziga xos ravishda buzilishi. Harfning optik-fazoviy obrazining turg‘un emasligida, harflarning aralashib ketishi yoki tushib qolishida, so‘zning so‘z-bo‘g‘in tarkibini bayon qilish va gap qurilishida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli ajratiladi, ulardan 9 tasi og‘zaki nutq natijasi va ishlab chiqarishning turli jarayonlardagi buzilishlarini tashkil etadi. Qolgan 2 ta shakl esa yozma nutqning buzilish jarayoni bilan bog‘liq holda ajratiladigan buzilishlarni o‘z ichiga oladi. Og‘zaki nutqning buzilishlari orasida disfoniya (afoniya), taxilaliya, bradilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya (anartriya), alaliya, afaziya ajratiladi; yozma nutqning buzilishlari orasida disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) ajratiladi.

Nutq buzilishlarini tasniflashda psixologik-pedagogik tasnif ham alohida o‘rin tutadi. Psixologik-pedagogik tasnif tibbiy tasniflarni pedagogik jarayonda qo‘llanish nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil qilish natijasida vujudga keldi (bu uslub logopedik ta’sir etish deyiladi). Bunday tahlil logopediyani nutqiy rivojlanishi buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga jalb etish bilan bog‘liq holda juda muhim bo‘ldi. Tadqiqotchilarning e’tibori bolalar jamoasi (o‘quv guruhi, sinf)

bilan ishlash uchun zarur bo'lgan logopedik ta'sir etish metodlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan edi. Buning uchun bolalardagi nutqning nome'yoriy rivojlanishining turli shakllari nuqsonlardagi umumiy ko'rinishi, ayniqsa, o'qish jarayonida tuzatish uchun dolzarb hisoblanganlarini topish zarur edi. Bunday yondashuv buzilishlarni guruhlashda boshqacha tamoyilni talab qildi. Bu shunday tamoyilki, tibbiy tasniflash (umumiy xususiyga emas, xususiydan umumiyga bo'lgan) uning asosiga quriladi. Bu uni lingvistik va ruhiy mezonlar asosida qurishga imkoniyat yaratadi. Ular orasida nutq tizimining tuzilish komponenti (tovush tomoni, grammatik tuzilishi, lug'at zonasi), nutqning funksional jihatlari, nutqiy faoliyat turlarining (og'zaki va yozma) o'zaro aloqadorligi hisobga olinadi. Keltirilgan tasnifda nutq buzilishlari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh – muomala vositalarining (nutqning fonetik va fonematik va umumiy rivojlanmay qolishi) buzilishi.

1. Nutqning fonetik va fonematik rivojlanmay qolishi – bolalarda ona tilini talaffuz qilish tizimi shakllanish jarayonlarining fonemalarini idrok etish va talaffuzdagi nuqsonlar oqibatida turlicha nutq zaiflashuvlari bilan bog'liq ravishda buzilishlaridir.

2. Nutqning to'liq rivojlanmay qolishi – turli xil murakkab nutqiy kamchilikdir, bunda nutq tizimining tovush chiqarish va ma'noli tomonlariga taalluqli barcha komponentlarining shakllanish jarayoni buzilgan bo'ladi.

Umumiy alomatlar sifatida quyidagilar qayd qilinadi: nutq rivojlanishining kech boshlanishi, lug'at boyligining kamligi, agrammatizm, talaffuzdagi nuqsonlar, fonemalar tuzilishdagi nuqsonlar. Nutqning bunday rivojlanmay qolishi turli darajalarda aks etishi mumkin: nutqning yo'qolishi yoki uning noaniq bog'lanishsiz holatidan mukammal holatigacha, lekin fonetik va leksik-grammatik rivojlanmay qolish elementlari bo'ladi. Bolada nutq vositalarining shakllanganlik darajasiga qarab to'liq rivojlanmay qolish uch darajaga bo'linadi.

Ikkinchi guruh – muomala vositalarini qo'llashdagi buzilish (unga duduqlanish ham kiradi), bu muomala vositalarining to'g'ri shakllangan holatidagi nutqning kommunikativ funksiyalarini buzilishi deb qaraladi.

Bir necha xil (kombinatsiyalangan) nuqson ham bo'lishi mumkin, bunda duduqlanish nutqning umumiy rivojlanmay qolishi bilan qo'shib ketadi. Yuqoridagi tasnifda yozish va o'qishning alohida nutq buzilishi sifatida ajratilmaydi. Bular nutqning fonematik-fonetik va to'liq rivojlanmay qolish tarkibida, ularning asosiy belgilaridan birini tashkil etuvchi fonematik va morfologik umumlashuvining shakllanmagani bilan bog'liq ravishdagi sistemali va kechiktirilgan oqibati sifatida ko'rib chiqiladi. Tasniflashda sistemali yondashuv tamoyiliga izchil tayanish aks etadi, uning asosida ikkita o'zaro bog'lanish hisobga olinadi: nutqiy faoliyat sistemadagi buzilishlarning o'zaro bog'lanishlari va bolaning bir ko'rinishdagi ruhiy jarayoni hamda boshqa ruhiy tomonlaridagi buzilishlarning o'zaro aloqadorligi, ularning rivojlanishi nutq bilan uzviy bog'langandir.

Yuqorida bayon qilingan tasnif logopediya nazariyasining hozirgi ahvolini o'zida aks ettiradi. Ular o'rtasida qarama-qarshiliklar yo'q, ular bir-birini to'ldiradi. Zero, logopediyaning vazifasi – nutq buzilishlarini tartibga solishni takomillashtirishdir.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Logopediya so'zini izohlab bering.
2. Logopediyani fan sifatida ta'riflab bering.
3. Logopediyaning predmeti, obyekti va ahamiyatini sharhlang.
4. Logopediya fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Logopediya qaysi fanlar bilan bog'langan?
6. Tibbiy-pedagogik tasniflashda ajratiladigan nutq buzilishlarining qanday turlarini bilasiz?

## **11-mavzu: Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati.**

### **Neyrolingvistika**

#### **Reja:**

1. Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Neyrolingvistika.
2. Afaziya va uning turlari.

*Tayanch soʻz va iboralar: nevrologiya, neyrolingvistika, afaziya, motor afaziya, sensor afaziya, amnestik afaziya, akustik-mnestik afaziya.*

**1. Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Neyrolingvistika.** Tilshunoslik tibbiyotning nevrologiya boʻlimi bilan ham uzviy aloqada. Soʻnggi davrlarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlarining oraligʻida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmogʻi vujudga keldi.

Neyrolingvistika (grek tilidan νεῦρον – nerv, lingua – til) – bu psixologiya fanining tarmogʻi boʻlib, nutqiy faoliyatning miyadagi mexanizmlarini oʻrganuvchi va miyaga mahalliy shikast yetishida nutqiy jarayonlarda sodir boʻladigan oʻzgarishlarni oʻrganadi. Neyrolingvistikaning fan sifatida shakllanishi bir tarafdin neyropsixologiyaning, boshqa tarafdin esa lingvistika va psixolingvistikaning rivojlanishi bilan bogʻliq. Zamonaviy neyropsixologiya tasavvurlariga mos ravishda neyrolingvistika nutqni tizimli funktsiya, afaziyani esa birlamchi defekt va birlamchi defekt taʼsiri natijasida yuzaga keluvchi ikkilamchi buzilishlar, shuningdek miyaning buzilgan funktsiyalarini qayta tiklashga qaratilgan ish faoliyati natijasida paydo boʻluvchi tizimli buzilish sifatida oʻrganadi. Miyaning shikastlanishida tilga oid oʻzini tutish faoliyatining buzilishi boʻyicha olib borilgan tasodifiy kuzatuvlar oʻrta asr davridanoq maʼlum, biroq ularni tizimli ravishda oʻrganish XIX asrning 2-yarmidan boshlangan. Neyrolingvistikaning vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari neyropsixolog va mamlakatimiz neyrolingvistikasi asoschisi, nutqiy buzilishlarni tizimli tahlil qilishni lingvistika va psixolingvistikaning nazariy tushunchalari bilan umumlashtirgan Aleksandr Romanovich Luriya tadqiqotlari bilan bogʻliq.<sup>55</sup>

Bu soha haqidagi dastlabki maʼruza vrach Mark Daksga tegishli boʻlib, u 1836-yilda Fransiyaning Monpele shahrida boʻlib oʻtgan tibbiyot jamiyati majlisida miya shikastlanishi natijasida nutqini yoqotganlarni

---

<sup>55</sup> Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М., 1975.

tekshirishga bag'ishlangan ilmiy ma'ruza bilan qatnashadi. Mark Daks birinchi bo'lib nutqning yo'qolishi va miyaning shikastlangan tarafi o'rtasida bog'liqlik mavjud, degan fikrni aytadi. Bu esa o'z navbatida unga nutqiy funksiyalar miyaning chap yarim sharida shakllanishi haqidagi fikrni aytish imkonini berdi. Garchi keyinchalik ma'ruza matni chop etilgan bo'lsa-da, ilmiy jamiyat Mark Daks tadqiqotlariga jiddiy ahamiyat bermaydilar. Shunga qaramay, afaziologiyani paydo bo'lishini an'anaviy ravishda faqatgina ikki nafar kasalni patologoanatomik jihatdan o'rganish natijasida nutq markazini, ya'ni Brok markazini tasodifan aniqlagan fransuz jarrohi va antropologi Polem Broka nomi bilan bog'laydilar. Yorib ko'rish natijasida, har ikki kasalda ham bosh miyaning chap yarim sharining aynan bir xil sohalari shikastlanganligi ma'lum bo'ladi va aynan shu narsa Polem Brokaga avvalgi tadqiqotlar natijasiga tayangan holda nutqiy markazni lokallashtirish sohasida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ushbu nutq markazi shikastlanishi bilan bog'liq bo'lgan afaziyani Broka afaziyasi deb nomlay boshladilar. Nemis psixonevropatologi Karl Vernike ham bundan kam bo'lmagan kashfiyot qiladi. 1873-yilda Vernike insultni boshidan o'tkazgan kasalni o'rgangan. Bir tarafdin bu odam gapira olgan, biroq u patologik ravishda gaplashgan. Uning eshitish qobiliyati shikastlanmagan, boshqa tarafdin esa u og'zaki va yozma nutqni qiyinchilik bilan anglagan. Uning vafotidan so'ng yorib ko'rish jarayonida Vernike bemor miyasi chap yarim sharining orqa yuqori qismi va chakka qismida shikastlanishni ko'radi. U miyaning eshitish sohasiga yaqin bo'lgan qismi nutqni tushunishda ishtirok etadi, degan xulosaga keladi. Shunday qilib, Karl Vernike 1874-yilda o'zining sensorli afaziyani yoki uning o'zi nomlaganidek, boshqaruv afaziyasini birinchi marotaba ta'riflab bergan 72 betli "Afazik simptomlar kompleksi" asarini chop etadi. O'z kitobida Vernike miyaning turli qismlaridagi psixik buzilishlar bilan bog'liq bo'lgan turli afaziyalarni o'zaro bog'lashga harakat qilgan. Keyinchalik esa u Broka va Vernike qismlarini bog'lovchi yoysimon asab tolalarining shikastlanishi ham motorli yoki sensorli afaziyaga olib kelishini kashf qildi. Hozirgi kunda neyrolingvistik tadqiqotlarning Rossiyada shakllangan ikki turdagi an'analari haqida gapirish mumkin.

Birinchisi A.R.Luriya Moskva neyrolingvistika maktabi, ikkinchisi Balonov Deglin Sankt-Peterburg lingvistika maktabidir. Bu ikki maktabning nazariy masalalar bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida turli qarashlar yuzaga kelgan. Moskva maktabi neyrolingvistlari asarlarida nutqiy faoliyatda miya o'ng yarim sharining faoliyati nazardan chetda qoldirilishi yoki e'tiborga olinmaslik holatlari namoyon bo'ladi, Peterburg maktabi vakillari tadqiqotlarida esa turli nutq mexanizmlarining bosh miyaning ham o'ng, ham chap yarim sharlarida taqsimlanganligi haqidagi fikrlar qat'iyat va ketma-ketlikda keltiriladi.

Xullas, yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, turlari ko'p bo'lgan fonologik, grammatik, leksik va semantik buzilishlarni qamrab oladigan afaziyalar neyrolingvistik tadqiqotlarning predmeti bo'lib ishtirok etadi.

**2. Afaziya va uning turlari.** Afaziya – bu bosh miyaning shikastlanishi natijasida nutqni to'liq yoki qisman yo'qotishdir. Afaziya (yunoncha a - inkor qo'shimchasi, phasis – nutq, ya'ni gapira olmaslik, so'zlash qobiliyatining buzilishi). Afaziyaga bosh miya po'stloq qavatidagi so'zlashish markazining o'zgarishi sabab bo'ladi. Afaziyaning motor afaziya, sensor afaziya, amnestik afaziya, akustik-mnestik afaziya kabi turlari mavjud.

Motor afaziya inson miyasidagi Broka markazining shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Afaziyaning bu turida afaziyaga chalinganlar nutqni tushuna oladi, lekin gapirmoqchi bo'lganda so'zlarni topa olmasligi sababli gapira olmaydi. Motor afaziya bosh miya o'ng yarim shar maydonini harakatga keltiruvchi a'zolarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Harakatga keltiruvchi markaz Broka markazidir. 1)Afferent motor afaziya orqa markaziy va bosh miya po'stlog'ining tepa qismi shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Afferent motor afaziya (*afferent* – olib kiruvchi, afferentlar – asab tugallanmalari). Afferent uchun tovushni tanlash zanjirining buzilishi xosdir. Shuning uchun afaziyaning bu turi tovushlar tarkibini buzilishi kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dastlabki davri nutq organlariga yaqin ko'rib bo'lmaydigan kamchiliklarni o'z ichiga oladi.

Akustik-mnestik afaziya – bu nutqiy ma'lumotni ushlab qolish hajmining buzilishi, eshitish va nutqqa oid xotiraning tormozlanishidir. U chap chakkaning o'rta qismlarining shikastlanishida yuzaga kelishi mumkin. Bu uzun, besh-yettidan ortiq so'zlardan tashkil topgan ko'p bo'g'inli gaplarni tushunishdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Bunda eshitib saqlab qolish qobiliyati to'xtab qolishi yoki hajmi torayishi mumkin.

Optik-mnestik afaziya – bu ko'rib eslab qolish xotirasining buzilishi, so'zlar obrazini ko'rishning susayishidir. Predmetlar va ularni nomlanishini, harakatlarni nomlanishini osonligini saqlangan holda, qiyinchiliklarni yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. U miya chap yarim shari chakka qismining orqa ostki qismining shikastlanishida yuzaga keladi.

Amnestik afaziya - bosh suyagining chakka tepa qismi atrofi shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Kamchiligi ular narsalarning nomlarini qiyinchilik bilan saqlab qoladi. Afaziyaga chalingan bo'lsa ham, ularning ma'nosini biladi va ishlata oladi. Bunday afaziyaga chalingan bemorga kalit ko'rsatilsa, ularni nomlay olmaydi, lekin javob beradi. Bu nima deb so'ralganda hech bo'lmaganda kalit ochiq yoki yopiq deya aylanma harakat qiladi. Amnestika kuchli ta'sir ko'rsatishi natijasida og'zaki parafaziya yuz beradi.

Semantik afaziyaning asosida nutqni simultan tahlil qilish va uni sintez qilish yotadi. U miya chap yarim sharining yuqori chakka, gardan qismlarining uchlamchi zonalarining shikastlanishida yuzaga kelishi mumkin. Semantik afaziya – bu grammatik murakkab iboralar ma'nosini anglash, fleksiyalar yordamida ifodalanuvchi so'zlar o'rtasidagi munosabatlar, atributiv konstruksiyalar buzilishi bilan xarakterlanuvchi simptom majmuyidir.

Xullas, bosh miyaning shikastlanishi nutqimizga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Bu shikastlanish natijasida nutqimizda turli xil nutqiy kamchiliklar: nutqning yo'qolishi, eshitish qobiliyatining susayishi va idrok qila olmaslik, ya'ni fikr yurita olmaslik kabilar



yuzaga keladi. Bu kamchiliklar tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va semantik sathlarida namoyon bo‘ladi.

Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutqiy faoliyatning buzilishi masalasi bobokalonlarimiz Ibn Sino, Beruniy asarlarida qayd etilgan va mazkur kasalni davolashga e’tibor bergan bo‘lsalar-da, lekin u alohida fan tarmog‘i sifatida shakllana olmadi. Miya zararlanishining nutqqa ta’siri muammosi izchil ravishda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘rganildi. Neyropsixologiya va u bilan bog‘liq neyrolingvistika maxsus fan sifatida yaqindagina – o‘tgan asrning 70-yillarida shakllandi. Bu fanning vujudga kelishida A.A.Leontyev, A.R.Luriya, E.S.Beyn, R.M.Boskis, Ye.N.Venarskaya, O.S.Vinogradova, N.A.Eysler singari olimlarning xizmati katta. Neyrolingvistika fani bo‘yicha to‘liq ma’lumot beruvchi ilk kitob A.R.Luriya tomonidan yozildi.<sup>56</sup> Nutqiy axborot jarayoni, ya’ni kishilarning o‘zaro nutq yordamida bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o‘rganish obyekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan chuqur o‘rganilgan. Tilshunoslik kishilarning asosiy aloqa vositasi bo‘lgan til va uning bevosita aloqa-aralashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni ajratgan holda, ichki tuzilish, tuzilish birliklari, mazkur tuzilish birliklarining nutqiy jarayonda turli-tuman voqelanishi, “ichki tuzilish”dan “tashqi tuzilish”ga o‘tishning asosiy bosqichlari va yuqoridagi ikki tuzilishning o‘zaro munosabatlari kabi qator masalalarni atroflicha o‘rgandi. Inson borliqni ongida aks ettiradi. Aks ettirish sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi. Sezgi organlari esa tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi. Miya bu axborotlarni umumlashtiradi. Ko‘rinadiki, obyektiv olamni aks ettirish jarayoni markaziy nerv sistemasi, bosh miya orqali yuzaga chiqadi. Nerv sistemasi, odatda, ikki guruhdagi nerv sistemalarini o‘z ichiga oladi: 1) markaziy nerv sistemasi; 2) chegara nerv sistemasi. Borliq haqida axborot beruvchi nutq va uni tushunish chegara nerv sistemalarining markazga qarab yo‘nalishi orqali amalga oshiriladi. Chegara nerv

---

<sup>56</sup> Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М., 1975.

sistemalari markaziy nerv sistemalariga obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning muayyan belgilari haqidagi ma'lumotni beradi. Shuning uchun chegara nerv sistemasiga aloqador a'zolari tahlil qiluvchilar (analizatorlar) deb yuritiladi. Ular ko'rish, eshitish, ta'm bilish a'zolari sanaladi. Har bir analizatorida ikki turdagi nerv strukturasi ajratiladi: 1) axborotni mazkur sezgi organidan bosh miya pardasiga eltuvchi struktura; 2) borliq predmetlariga yo'naltiruvchi struktura (miyaning bilish zonasi). Uchinchi sath sifatida murakkab anatomik tuzilishga ega til pardasi zonasi ajraladi. Bu zonada miyaning turli analizatorlaridan kelgan belgilar kompleksi birlashtiriladi, natijada sezgi hissiyotidan til umumlashmasiga o'tish imkoni tug'iladi.

Nutq hosil qilish, til xulqi aks harakat: markazdan chegaraga tomon harakat orqali yuzaga chiqadi. Miya analizatorlari qoplangan zonada shakllangan nutqiy dastur nutq praksizi zonasida konkretlashadi va nutq organlari (shuningdek, yozma nutqni yuzaga chiqaruvchi sistema) ishtirokida proyeksiya harakat sistemasi yordamida yuzaga chiqadi.

Miyaning praksiyali sistemasidan (sensor yoki harakatlanuvchi) farqli ravishda gnostik-praksik parda va pardali analizatorlarni yopish zonasi funksional asimmetriya bilan xarakterlanadi: til sistemasi va nutq orqali ifodalangan tafakkur esa uning yarimshari bilan bog'langan.

Inson miyasi murakkab funksional sistema bo'lib, eng kamida uchta asosiy blok ishtirokida muttasil faoliyat ko'rsatadi. Ulardan biri pardaning tetiklanishini ta'minlaydi va tanlash, selektiv faoliyat shaklini uzoq amalga oshirish imkonini beradi. Boshqasi axborotni olish, qayta ishlash va saqlashni ta'minlaydi. Uchinchi esa faoliyatni programmalashtirish, boshqarish va nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Yuqorida bayon qilingan bloklarning zararlanishi ularning bir me'yordagi vazifasiga salbiy ta'sir etadi. Birinchi blokka mansub apparatlarning zararlanishi psixik faoliyatni tanlash, selektiv imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchi blok apparatlarining zararlanishi axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash qobiliyatini yo'qotadi. Uchinchi blokning zararlanishi esa programmalashtirish, barqaror ravishda boshqarish va nazorat qilish imkonini cheklaydi.

Ko‘rinadiki, miyadagi har qanday zararlanish inson faoliyatining ma’lum qismiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sensor proyeksiya sistemasining zararlanishi eshitish va ko‘rish organining kuchsizlanishiga olib keladi. Buning natijasida og‘zaki va yozma nutqni qabul qilish imkoni pasayadi. Nutqiy agnoziya holatida bemor ko‘rish va eshitish qobiliyatini yaxshi saqlagan holda, ona tilining tovush «qiyofasi»ni (nutqiy eshitish agnoziyasi) yoki yozma nutqda harf ko‘rinishini (nutqiy ko‘rish agnoziyasi) unutadi. Bunday vaqtda bemor gapirishi yoki yozishi mumkin. Nutqiy eshitish agnoziyasiga uchragan bemor o‘qishi, nutqiy ko‘rish agnoziyasiga uchragan bemor esa og‘zaki nutqini tushuntirish mumkin.

Nutqiy apraksiya ro‘y berganda esa teskari holatga duch kelinadi. Bu vaqtda bemorning nutq organlari harakati va yozish harakati buziladi, tovush va so‘zlarni talaffuz qilolmaydi va yozolmaydi. Lekin atrofdagi odamlar nutqini tushunish, yozuvlarini o‘qish qobiliyati saqlanib qolishi mumkin.

Analizatorlar yopqichlarining parda zonasi zararlanganda afaziya holati kuchayadi. Bu vaqtda har qanday nutqiy faoliyat: eshitish, ko‘rish faoliyati ham, talaffuz qilish, o‘qish faoliyati ham so‘nadi. Agar zararlanish manbai o‘rtacha bo‘lsa, bemorning so‘zda tovushni farqlash qobiliyati yo‘qoladi. Fonetik jihatdan yaqin so‘zlarni aralashtirib yuboradi. Ba‘zan afaziya holatida eshitgan yoki o‘qigan narsalarning ma’nosini tushunmagan holda mexanik ravishda takrorlashi mumkin.

Neyrolingvistika uchun ikki til va ko‘p til egalarining (poliglottlarning) miyasi zararlanishi katta material beradi. Bu vaqtda bemor bir tilni ma’lum darajada saqlagan holda, ikkinchi tilni butunlay unutishi yoki bir necha tillarning birliklarini aralashtirib yuborishi mumkin.

Neyrolingvistika yuqoridagi holatlarni aniqlash orqali bemorlarni samarali davolash uchun katta imkoniyat yaratib beradi.

Lingvistika va tibbiyotning qo‘lga kiritgan yangi-yangi yutuqlari neyrolingvistikaning tekshirish usullarini takomillashtirib boradi.

Hozirgi kunda neyrolingvistika psixolingvistika, neyropsixologiya, neyrofiziologiya, psixoakustika, kibernetika kabi oraliq fanlar g‘oyalari

va metodlaridan barakali oziqlanmoqda. Shunday qilib, neyrolingvistika insonning olamni belgilashtirish tabiatini kompleks ravishda o'rganishning bir tarmog'i sifatida rivojlanib bormoqda.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tilshunoslikni biologiya tarkibidagi fan sifatida tilni biologik hodisa sifatida o'rgangan yo'nalish?

2. Tilshunoslik va nevrologiya oralig'idagi fan.

3. Nutq tovushlarining artikulyatsion belgisi qaysi fanda ham o'rganiladi.

4. Neyrolingvistika haqida kim 1-ma'lumot bergan?

5. Afaziyaning qanday turlari bor?

6. Afaziyaning qaysi turida bemor narsaning nomini esdan chiqaradi, biroq narsaning ko'rinishini ko'rsatib bera oladi?

7. Afaziyaning qaysi turida bemor nutqni tushuna oladi, biroq so'zlarni topolmay qiynaladi?

## **12-mavzu: Tilshunoslikning kimyo bilan munosabati. Atom-molekulyar ta'limot va tilshunoslik**

### **Reja:**

1. Tilshunoslikning kimyo bilan munosabati. Atom-molekulyar ta'limot va tilshunoslik.

2. Modda tarkibini doimiyligi qonuni va tilshunoslik.

3. D.I. Mendeleevning elementlar davriy sistemasi va tilshunoslik.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Kimyo, molekula, atom, Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, L.M. Lomonosov, kimyoviy bog'lanish, kivalent bog'lanish, ionli bog'lanish, metall bog'lanish, D.I. Mendeleev, elementlar davriy sistemasi, tilshunoslik.*

**1. Tilshunoslikning kimyo bilan munosabati. Atom-molekulyar ta'limot va tilshunoslik.** Tilshunoslik kimyo fani yutuqlaridan ham bahramand bo'lib kelmoqda. Kimyo fanida atom-molekulyar ta'limotining vujudga kelishi, eng kichik atomlarning ham

bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lishining kashf etilishi, Ya.N.Mendeleyev elementlar davriy sistemasining vujudga kelishi tilshunoslikka ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Tilshunoslikda til birliklarining muayyan tuzilishga ega ekani, bevosita kuzatishda eng kichik birlik – tabiiy fanlardagi atomga tenglashtiriluvchi fonemaning ham bo‘linish xususiyatiga ega ekani, butun tarkibidagi bo‘laklarning o‘zaro munosabatda, ayni paytda, butun bilan butun ham katta butunlik tarkibida o‘zaro munosabatda ekani e‘tirof etila boshladi.

Shu bilan birga, kimyo fanida molekula va atomlarning to‘xtovsiz harakatda ekanining e‘tirof etilishi tilshunoslikda sinxroniya va diaxroniya nazariyasining vujudga kelishiga turtki berdi.

Kimyoviy bog‘lanish ta‘limotining kuchayishi, kimyoviy bog‘lanishda valentlik tushunchasining markaziy o‘rin egallashi tilshunoslikka ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Tilshunoslikda valentlik nazariyasi vujudga keldi.

Xullas, kimyo fanida qo‘lga kiritilgan jiddiy yutuqlar boshqa fanlar qatorida tilshunoslikka ham sezilarli ta‘sir etib kelmoqda.

1. Kimyo fanida atom-molekulyar ta‘limotning paydo bo‘lishi tabiatshunoslik olamida buyuk kashfiyot hisoblanadi.

Atom-molekulyar ta‘limotning ildizi qadimgi Yunoniston tamadduniga borib taqalsa-da, bu xususdagi qarashlarning rivoji Forobiy, Ibn Sino, Beruniylarga borib taqaladi. Xususan, Forobiy substansiyaning qismlarga ajralishi va uning turli bo‘laklardan iborat ekani haqida fikr yuritadi.<sup>57</sup>

Biroq ular moddalarning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumot bergan bo‘lsalar ham, lekin uni ta‘limot darajasiga ko‘tarmadilar.

Kimyo fanida atom-molekulyar ta‘limot L.M.Lomonosov nomi bilan bog‘liq. Mazkur ta‘limotning asosiy jihatlari 1741-yili yozilgan “Matematik kimyo elementlari” asarida ifodalangan. Atom molekulyar ta‘limotining mohiyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) “Barcha moddalar korpuskulalardan” (molekulalardan) tarkib topadi.

---

<sup>57</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент, 1993. – Б.174-175; Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшunoslik va tabiiy fanlar. –Тошкент: Шарқ, 2001.–Б.108.

2) Molekulalar “elementlardan” (Lomonosov atomlarni shunday nomlagan) tashkil topadi.

3) Molekula va atomlar uzluksiz harakatda bo‘ladi.

4) Oddiy moddalarning molekulalari bir xil atomlardan, murakkab moddalarning molekulalari turli xil atomlardan iborat.

M.V.Lomonosovdan so‘ng atomistik ta‘limotini ingliz olimi Jon Dalton rivojlantirdi. Shunga qaramay, kimyo fanida atom-molekulyar ta‘limot faqat XIX asr o‘rtalaridan e‘tirof etila boshladi. Kimyogarlarning 1860-yili Karlsruhe shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro syezdida molekula va atom tushunchalarining ta‘rifi bo‘yicha bir fikrga kelindi. Bunga muvofiq, molekulaning kimyoviy xossalari uning tarkibi va kimyoviy tuzilish bilan aniqlanadi.

“Musbat zaryadlangan atom yadrosi bilan manfiy zaryadlangan elektronlardan tarkib topgan elektroneytron zarracha atom” hisoblanadi.

Atom-molekulyar ta‘limotda kimyoviy element tushunchasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu ta‘limotga muvofiq, “yadrosining musbat zaryadi bir xil bo‘lgan atomlarning muayyan turi kimyoviy element” sanaladi. Fizika va kimyo fanidagi elementlarning (moddalarning) ichki tuzilishi haqidagi mazkur xulosalar boshqa fanlar, jumladan, tilshunoslikka ham jiddiy ta‘sir etdi.

Avvalo, bo‘linishning ko‘p bosqichliligi (moddaning) molekulalardan, molekulalarning atomlardan, atomlarning neytron va protonlardan tashkil topishi haqidagi nazariya tilning ontologik tabiatini yoritishga qulay imkoniyat yaratdi.

Tilshunoslikda ham tabiiy fanlarga qiyosan birliklar tushunchasi paydo bo‘ldi. Birliklar umumiylik va xususiylik dialektikasiga ko‘ra til va nutq birliklariga bo‘lindi. Har ikki birlik ichki tuzilish xususiyatiga, bo‘linuvchanlikka ega.

Til va nutq birliklarining ichki tuzilishi pog‘onali xususiyatga ega. Ularning pog‘onaliligi shunda ko‘rinadiki, katta (makro) butunlik kichik butunliklarga, kichik butunliklar esa, o‘z navbatida, yana kichik butunliklarga bo‘linadi. Har bir butunlik o‘z tarkibidagi kichik elementlarga (butunliklarga) nisbatan nisbiy butunlik, tarkibidan ajralib chiquvchi bo‘laklar esa uning elementi bo‘lib xizmat qiladi.

Ularning nisbiyligi shunda ko‘rinadiki, elementga nisbatan butunlik sanaluvchi birlik o‘zidan kattaroq butunlik tarkibida element sifatida ishtirok etadi. Aksincha, ma’lum bir butunlikka nisbatan bir element bo‘lib kelgan birlikning o‘zi yana bo‘linuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, bu bo‘lingan elementlar uchun butunlik vazifasini bajaradi. Masalan, so‘z shakl morfemalardan tashkil topadi. Morfemalar so‘z shakl elementi bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda, morfema fonemalardan tashkil topadi. Fonemalar esa morfemaning elementi sifatida uning tarkibida muayyan vazifa bajaradi. Fonema ham xuddi atom kabi yana ichki tuzilish xususiyatiga ega. Farqlovchi (differensial) belgilar fonemaning elementlari sanaladi.

Ko‘rinadiki, til birliklari yuqoridan quyiga qarab pog‘onali xususiyatiga ega. Har bir pog‘onada yuqori pog‘ona birligi quyi pog‘ona birligi uchun butun, quyi pog‘ona birligi esa yuqori pog‘ona birligi uchun bo‘lak, element vazifasini bajaradi. Bo‘lak, element butun tarkibida funksiyalashadi.

Tilning bunday ontologik tabiati, til tuzilishining ko‘p sathlilik kimyo fanining atom-molekulyar nazariyasi va biologiya fanida 20-yillardan rivojlangan jonli sistemaning sathli tuzilishi konsepsiyasi ta’sirida kelib chiqdi.

Tilning ko‘p sathlilik, uning sathli tuzilishi tushunchalari tilshunoslikda XX asrning 20-yillaridan boshlab dastlab Amerika deskriptiv tilshunoslari asarlarida paydo bo‘ldi.

Keyinchalik polyak tilshunosi Emil Benvenist va rus tilshunosi S.D.Kasnelson tomonidan rivojlantirildi. Ilgari tilning tuzilish sathi bilan tahlil sathi qorishtirilgan bo‘lsa, keyinchalik mazkur ikki turdagi sath bir-biridan ajratila boshlandi.

Atom-molekulyar ta’limotning tilshunoslikka ta’siri tilga sistema sifatida qarashda ham ko‘rinadi.

Tilshunoslikda sistemaviy tadqiqotlar XX asr boshlaridan paydo bo‘la boshladi. Uning shakllanishida V.Gumboldt, F.de Sossyur, I.A.Boduen de Kurtene singari olimlarning xizmati katta. N.S.Trubeskoy, A.Yelmslev, E.Benvenist, Sepir, Blumfeld, Xarris, T.P.Lomtev, V.M.Solnsev kabi jahon tilshunos olimlari, X.Ne’matov,

I.Qo‘chqortoyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Rasulov, A.Berdialiyev singari o‘zbek tilshunoslari sistemaviy-struktur ta’limotni rivojlantirdilar.

Tilshunoslikda sistema va struktura deyilganda nima tushuniladi? Quyidagi manbalardan foydalangan holda ushbu savolga javob beramiz.<sup>58</sup>

O‘zaro bog‘liq va shartlangan ikki va undan ortiq elementlarning munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega bo‘lgan barqaror butunlik sistema sanaladi.

Til birliklari voqelanish belgisiga ko‘ra ham, tuzilish (ontologik) tabiatiga ko‘ra ham sistema sanaladi. Masalan, har bir morfema bevosita kuzatishda bir qancha shakliy va mazmuniy variantlar (allomorflar, morfema variantlari) orqali namoyon bo‘ladigan umumiylik sifatida sistemadir. Shuningdek, har bir fonema ham bevosita nutq jarayonida bir necha variantlar (allofonlar) orqali namoyon bo‘ladigan umumiylik, butunlik sifatida sistema sanaladi. Bundan tashqari, morfema va undan yuqori birliklarning hammasi tuzilish (ontologik) tabiati jihatidan qurilma (konstruksiya) sifatida ma’lum qurilish (konstruktiv) birliklarning o‘zaro barqaror sintagmatik munosabatidan tashkil topgan sistema hisoblanadi. Masalan, morfema ikki va undan ortiq fonemalarning o‘zaro sintagmatik munosabatidan tashkil topgan va yangi sifatga ega butunlik sifatida (morfema bir fonemaning yangi sifatga ega bo‘lib, morfemik sathga ko‘tarilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, “u” unlilar sirasida fonema, lekin shu fonema ko‘rsatish olmoshi yoki III shaxs kishilik olmoshining moddiy asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ikki sath birligi bo‘lgan fonema va morfema o‘rtasida sifat o‘zgarishi ro‘y beradi).

Sistemaning muhim tuzilish belgilari: 1) tarkibiy qismlarga bo‘linishi; 2) tarkibiy qismlarning butun tarkibidagi o‘zaro va butun bilan bo‘lak, tur bilan jins o‘rtasidagi shartlangan munosabatning bo‘lishi; 3) ko‘pincha tur va butunning tarkibiy qismlarida mavjud bo‘lmagan yangi sifatga ega bo‘lishdir.

---

<sup>58</sup> Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. –Тошкент: Шарқ, 2001.–Б.108-120; Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент, 2006.–Б.31-33; Nurmonov A., Usmonova H., Boboxonova D.Tilni sistem sifatida o‘rganish. –Namangan, 2011.



Birinchi belgisiga ko‘ra, har qanday sistema muayyan qurilish birliklaridan tashkil topadi, bu esa uning ichki bo‘laklarga bo‘linish xususiyatiga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ikkinchi belgisi butun tarkibidagi elementlarni bir-biri bilan va elementlarning butun bilan bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Har ikki munosabat zaruriy va o‘zaro shartlangandir. Masalan, fonemasiz morfemaning bo‘lishi mumkin emas. Morfema fonemalardan tashkil topadi. Fonema morfema tarkibiga uning qurilish birligi sifatida kiradi. Shuningdek, so‘z shakl morfemalardan tashkil topadi. Morfema esa so‘z shakl tarkibida uning qurilish birligi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ularning munosabati butun va bo‘lak o‘rtasidagi munosabatdir. Bundan tashqari, bo‘lak bilan bo‘lakning, butun bilan butunning ham munosabati mavjud. Masalan, son kategoriyasi tarkibida birlik ko‘pliksiz bo‘lishi mumkin emas. Birlik shakl ko‘plikka nisbatan, ko‘plikka zidlanganda aniqlanadi.

Uchinchi belgisiga ko‘ra, sistema deb qaralayotgan butunlik tarkibiy qismlarining oddiy yig‘indisidan iborat emas. U tarkibiy qismlarida sistemaga kirguncha mavjud bo‘lmagan yangi sifatga ham ega. Masalan, ikki xil gaz – vodorod va kislorodning birikmasidan suv hosil bo‘ladi. Shuningdek, fonemalardan tashkil topgan morfema fonemalarga nisbatan yangi sifatga ega bo‘ladi. Fonemalar ma’noni farqlash uchun xizmat qiluvchi ma’nosiz birliklar bo‘lsa, ularning qo‘shiluvidan yuzaga kelgan morfema esa ma’noli birlik sanaladi. Shuning uchun har qanday sistemada hosil qiluvchi va sistemada namoyon bo‘luvchi belgilar mavjud. Obyektiv olamdagi narsa va hodisalar uzluksiz harakatda, rivojlanishda ekani fanda antik davrlardan biri ma’lum. Ayniqsa, bunday qarash O‘rta Osiyo olimlari tomonidan rivojlantirildi. Xususan, Forobiy “Falsafatu Aristutolis” asarida: “Ular (to‘rt modda) abadiy bo‘lolmaydilar; chunki havo, suv, tuproq va olov bo‘linadilar, birlari boshqasiga aylanadilar va balki har bir unsur boshqasida mavjuddir”<sup>59</sup>, – deydi.

Forobiy Aristotelning olam uzvlari doimo harakatda, rivojlanishda ekani haqidagi fikrlarini ijodiy rivojlantiradi. Borliqdagi narsa va

---

<sup>59</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент, 1993. – Б.86.

hodisalar bir-biriga ta'sir qiladi va ta'sirni qabul qilish harakatida bo'lish bilan birga shu narsalarni tashkil etgan ichki unsurlar ham o'zaro ana shunday harakatda ekanini ta'kidlaydi.

Fanda atom-molekulyar ta'limotining kuchayishi atom va molekulalarning uzluksiz harakatdaligini yorqinroq isbotlab berdi. Tabiiy fanlarda erishilgan mazkur yutuq tilshunoslikka ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Struktur tilshunoslikning paydo bo'lishiga atom-molekulyar ta'limoti asos bo'ldi. Bu yo'nalishning asoschisi sanaluvchi mashhur shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyur til birliklari ham borliqdagi narsa va hodisalar singari doimo rivojlanishda, o'zgarishda ekanini ta'kidladi va tilning ikki holati – dinamik va statik holatini ajratdi. Uzluksiz rivojlanayotgan, harakatda – dinamikada bo'lgan ma'lum bir tilning muayyan bir davrga xos holati statik holati hisoblanadi.

Ana shu nuqtayi nazardan tilni ham ikki jihatdan o'rganish lozimligini ko'rsatdi. Diaxroniya grekcha dia – orqali, ikki, chronos – zamon so'zlaridan olingan. Tilni tarixiy taraqqiyotda, rivojlanishda ekanini e'tiborga olib o'rganish diaxroniya hisoblanadi. Sinxroniya grekcha “synchronos” so'zidan olingan bo'lib, bir vaqtlilik demakdir. Til tarixiy taraqqiyotining muayyan bir davrdagi holati sinxroniya sanaladi.

Tilshunoslik tarixida diaxroniya sinxroniya bilan uzviy bog'lanadi. Ularni bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Tilning sinxron tahlili bevosita tadqiqotchi kuzatib, eshitib turgan holatni tekshirishga qaratilgani, faktik materiallarning boyligi nuqtayi nazaridan diaxroniyaga nisbatan qulayroq. I.A.Boduen de Kurtene, N.S.Trubeskoy, R.O.Yakobson singari mashhur tilshunoslar sinxron holatdagi til sistemasini to'liq va ishonarli tadqiq etish uchun qanday qilib shu holatga kelganini, ya'ni diaxronik materiallarga murojaat qilish lozimligini ta'kidlaydilar.

Shuning uchun garchi sinxron o'rganish diaxron o'rganishdan oldin bo'lsa ham, lekin ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Sinxron o'rganish diaxron o'rganishga yo'l ochadi. Sinxron tadqiqotlar natijalari asosida diaxroniya ish ko'radi. Muayyan til taraqqiyotining ikki davr,

ikki sinxron holati o'rtasidagi o'zgarishlar ikki davrdagi materiallarni bir-biriga taqqoslash orqali belgilanadi.

2. Kimyoviy bog'lanish haqidagi ta'limot hozirgi kimyo fanining eng markaziy masalalaridan biridir. Kimyo fanida atomlarning tuzilishi haqidagi ta'limot kimyoviy bog'lanish tabiatini tushuntirib beradi.

Atomning tashqi pog'onasida bittadan sakkiztagacha elektron bo'lishi mumkin. Kimyoviy bog'lanish valent elektronlar hisobiga vujudga keladi. U uchta usul bilan amalga oshadi: 1) kivalent bog'lanish; 2) ionli bog'lanish; 3) metall bog'lanish.

Elektron juftlar tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish kivalent bog'lanish deyiladi. Bu ikki elektronli va ikki markazli (ikkita yadroni tutib turadi) bog'lanish sanaladi. Ionlar orasida elektrogatik tortishuv tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish elektrovalent yoki ionli bog'lanish deyiladi.

Ko'pchilik metallar atomlarining tashqi energetik pog'onasida elektronlar soni ko'p bo'lmaydi. Atomlar bir-biriga yaqinlashganda kristall panjara hosil bo'lishi natijasida qo'shni atomlarning valent orbitallari bir-birini qoplaydi. Shuning uchun elektronlar bir orbitaldan boshqasiga bimalol o'tib, metall kristalidagi barcha atomlar orasida bog'lanish hosil qiladi. Ana shunday bog'lanish turi metall bog'lanish deyiladi.

Atomlar orasida kimyoviy bog'lanish hosil bo'lishida ishtirok etadigan elektronlar valent elektronlar sanaladi. Kimyoviy elementlarda atomdagi valent elektronlari soni D.I.Mendeleyev elementlar davriy sistemasidagi guruh raqamiga teng keladi. Masalan, oltingugurt I guruhga mansub. Demak, oltingugurt atomida 16 elektron bo'lib, ulardan 6 tasi valent elektron hisoblanadi. Kimyoviy bog'lanishning yuqorida sanab o'tilgan uch turi bo'lganidek, sintaktik birikmalar ham bog'lanish xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) teng bog'lanish; 2) tobe bog'lanish. Teng bog'lanish bog'lanuvchi elementlarning teng ta'siri asosida maydonga keladi. Tobe bog'lanishda esa bog'lanuvchilardan biri ikkinchisini o'z ta'siriga kiritib, biriktirib oladi. Shuning uchun biri hokim (biriktirib oluvchi), ikkinchisi tobe (biriktiruvchi) bo'ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Atom-molekulyar ta'limotning ildizi qaysi davrga borib taqaladi?
2. Kimyo fanida atom-molekulyar ta'limot kimning nomi bilan bog'liq?
3. Atom-molekulyar ta'limotning mohiyati nimada?
4. M.V. Lomonosovdan so'ng atomistik ta'limotni kim rivojlantirgan?
5. Atom-molekulyar ta'limotning tilshunoslikka ta'siri nimalarda ko'rinadi?
6. Sistema va strukturaning farqi nimada?
7. Sistemaning muhim tuzilish belgilari nimalardan iborat?
8. Diaxroniya va sinxroniya nima? Ularning birining ikkinchisidan farqi nimada?
9. Diaxroniya qanday tadqiqotlar natijasida ish ko'radi?
10. Sinxroniya qanday tadqiqotlar natijasida ish ko'radi?

### **13-mavzu: Valentlik nazariyasi va tilshunoslik**

Reja:

1. Valentlik nazariyasi va tilshunoslik. Verbosentrik nazariyaning shakllanishi

2. Valentlik turlari.

**Tayanch tushunchalar:** *valentlik, leksik, sintaktik, mantiqiy valentlik, verbosentrik nazariya, avalent, bir valentli, ikki valentli, uch valentli fe'llar.*

**1. Valentlik nazariyasi va tilshunoslik.** Valentlik atamasi lot. *valentia* so'zidan olingan bo'lib, "quvvat", "kuch" degan ma'noni beradi. Bu atama kimyoda bir element atomining boshqa element atomi bilan bog'lanish xususiyatini ifodalash uchun qo'llanilsa, tilshunoslikda leksemaning boshqa leksema bilan bog'lanish qobiliyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Valentlik nazariyasining tilshunoslikda qo'llanilishi L.Tenyer va S.Kasnelson asarlari bilan bog'liq bo'lib, dastlab bog'lanishni ifodalash uchun bu atamani olib kirgan fransuz tilshunosi L.Tenyer uni faqat fe'lga nisbat beradi. Uning fikricha, valentlik fe'lning gapda subyekt, obyektlarni biriktirish imkoniyatidir. U fe'l-

kesimning zaruriy, to'ldiriladigan semantik bo'laklari shu subyekt va obyektlardan iborat, deb tushunadi. Bunda u gapning egasi, vositali va vositasiz to'ldiruvchilarini nazarda tutadi. Xullas, L.Tenyer "valentlik" atamasini ximiyadan o'zlashtiradi va "Struktural sintaksis asoslari" nomli kitobida bu atamaning tildagi xususiyatlarini asoslab, o'ziga xos misollar keltiradi, struktur sintaksis haqida fikr yuritadi: "Har bir so'z ikkinchi bir so'z bilan bog'lanuvchi aniq bir xususiyatga ega va bu strukturalardan, gaplardan iborat. Ammo bu aloqa hech narsa bilan ifodalanmaydi. Masalan, Alfred gapiryapti ikkita alohida-alohida narsa, bir tomondan Alfred ismli shaxs, ikkinchi tomondan kimdir gapiryapti. Bu ikki narsa mening ongimda bir-biriga qo'shilib, gapirish harakati Alfred tomonidan bajarilayotganini ma'lum qiladi. Bundan bu gap ikki elementdan iborat ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Chunki Alfred gapiryapti gapi uch elementdan tuzilgan: 1.Alfred. 2.gapiryapti. 3.aloqa. Gapda ikki narsa bor deb qarash mumkin, lekin bu tashqi tomondan yoki morfologik nuqtayi nazardan, biroq gapning shakllanishida sintaktik aloqa muhim hisoblanadi".<sup>60</sup> Valentlik terminini o'zining "Grammatik kategoriyalar" (1948) asarida qo'llagan S.D.Kasnelson ham bu tushunchani so'zning gapda ma'lum tarzda reallashishi va boshqa so'z bilan ma'lum aloqaga kirishishi ma'nosida qo'llaydi. Valentlik – ma'lum so'zning boshqa so'zni o'ziga birlashtirish xususiyatidir, deb ataydi.<sup>61</sup> Xuddi shu kabi fikrni A.Fitrat o'zining "O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba. Sarf" asarida quyidagicha ifodalaydi: "O'zingizni o'ylasangiz, hayvonlardan birini (otni) o'ylasangiz, bizda u hayvon ustiga yerlashmak uchun bo'lg'an tebranishingizni o'ylasangiz, uch ma'no o'ylag'an bo'lursiz. Bu uch ma'noni birlashtirib, bir-biriga bog'lab, o'zingizni otqa minganingizni o'ylag'anda, miyangizda bir "o'y" tuqqondir. Shu o'yni bir kishiga bildirmaqchi bo'lg'ach, "Men ot mindim deb qo'yasizkim, bu aytqaningiz bir gapdir. Ko'rinadirkim, yuqoridag'i o'yda uch ma'no bo'lg'ani kabi u o'yni bildirguchi gapda ham uch so'z bor: men, ot,

<sup>60</sup> Tesnière L. Eléments de syntaxe structurale. – Paris, 1959.

<sup>61</sup> Кацнельсон С.Д. О грамматической категории // Вестник ЛГУ. 1948. №2. –С.132. Bu olimlarning fikrlari haqida to'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. –Б.234-236; Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент: Фан, 1992. – Б.39-44.

mindim. Demak, soʻz maʼno bildirgan tovushlar toʻdasidir”.<sup>62</sup> Bundan tovush signallari orqali, boshqacha aytganda, belgilar orqali inson obyektiv olamga borishini va, aksincha, obyektiv olamdan semantik predmetlar orqali belgilashtirish jarayoni, yaʼni sintaktik aloqa mavjud ekanligi koʻrinadi. Sintaktik aloqa esa valentlik tufayli yuzaga keladi. Bugungi kunda tilshunoslikda valentlikni sintaktik aloqani taʼminlovchi muhim vosita sifatida alohida taʼkidlash anʼanaga aylanib qoldi va bu atama koʻplab tilshunoslarning ishlarida ham oʻz aksini topdi.

Dastlab “valentlik” atamasi faqat feʼllarning birikuvchanlik imkoniyatlariga nisbatan qoʻllanildi. Keyinchalik ushbu terminning vazifasi kengayib, valentlik xususiyatlari keng doiradagi morfologik birliklarga xos ekanligi tilshunoslardan tomonidan eʼtirof etila boshlandi. Feʼlning rolini izohlash spetsifikasi L.Tenyer konsepsiyasining oʻziga xosligini belgilaydi. L.Tenyer “Sintaksisni qanday qurish kerak” nomli maqolasida (1939) sintaktik nazariyalar sof sintaktik belgilarga tayanishi lozimligini taʼkidlagan holda, ikki asosiy qismni: 1) grammatik kategoriyalarni, tartibni hamda ularning tildagi uyushishi tamoyillarini oʻrganuvchi kategorial yoki statik sintaksis; 2) “tirik” fraza strukturasi, uning aloqalarining real mexanizmlarini tadqiq etuvchi funksional yoki dinamik sintaksisni ajratadi.

L.Teyerning yangicha talqinida fraza koʻpqavatli iyerarxik qurilma sifatida namoyon boʻlib, markazga uning barcha “organizmlarini” boshqarib turuvchi feʼl qoʻyildi. Periferiya qismida esa bir-biriga va oxir-oqibat feʼlga tobelanuvchi grammatik elementlar joylashdi. Koʻrinadiki, L.Teyerning feʼlning sintaktik xususiyatlariga, uning birikuvchanligiga qiziqishi keyinchalik sintaktik valentlik taʼlimotining paydo boʻlishiga turtki boʻldi va valentlik deganda, birinchi navbatda, feʼlning sintaktik valentligi tushunildi. Valentlik tushunchasini L.Tenyer feʼlning sintaktik tasnifi uchun qoʻllaydi va nol, bir, ikki hamda uch valentlikka ega boʻlgan feʼllarni ajratadi.

Nol valentlikka ega boʻlgan feʼllar “ishtirokchilar”ga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Bular oʻz-oʻzicha, birovning ishtirokisiz sodir boʻlayotgan jarayonni bildiradi: Daryo shovullardi. Bir “ishtirokchi”ga

---

<sup>62</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. –Тошкент: Маънавият, 2006. –В.145.

ega bo'lgan bir valentli fe'llar bir shaxs yoki bir predmet ishtirok etayotgan jaryonni bildiradi: Mashinada bordi. Ikki "ishtirokchi" qatnashgan jarayonni ifodalovchi fe'llar ikki valentli fe'llardir: Alfred kitob berdi. Uch valentli fe'llar uch "ishtirokchi" qatnashayotgan jarayonni ifodalaydi. Bunday fe'llarda birinchi va ikkinchi "ishtirokchilar" shaxsni, uchinchi "ishtirokchi" esa predmetni ifodalaydi: Alfred Sharlga kitobni berdi.

Demak, Tenyer o'z ishlarida gapni struktur tahlil qilar ekan, uning asosida fe'l yotishini ta'kidlaydi va buning natijasida fe'l valentligi nazariyasi (verbosentrik nazariya) vujudga keldi. Bunga ko'ra gap tuzilishini predikat (ko'p hollarda fe'l bilan ifodalangan) belgilaydi va u o'ziga muvofiq kategorial belgilarga o'rin ochadi. Gapning barcha qismlari fe'l predikat munosabatiga ko'ra unga bog'liq qismlarga (aktantlar, argumentlar, to'ldiruvchilar, partnyorlar, komplementlar va h.k.) va erkin qismlarga (erkin kengaytiruvchilar, hollar, ad'yunktlarga) bo'linadi. Ko'rinadiki, hollar fe'llarga bog'liq qismlar qatoriga, ya'ni uning valent tarkibiga kiritilmaydi. Fe'l valentlik xususiyatlarining bunday talqini Tenyerning tahlilda mazmuniy bosqichga asoslanish zarurligi va har qanday harakat muayyan miqdordagi ishtirokchilarni (aktantlarni) talab etishi, gap sathida bular ega va to'ldiruvchi sifatida namoyon bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashlari bilan bog'liq. Uning fikricha, barcha holli elementlar fe'l ma'nosi bilan shartlanmagan, shuning uchun uning valent tarkibiga kirmaydi.

Bunday qarashlar H.Brinkmann ishlarida ham kuzatiladi. U ot, sifat hamda fe'llarning valentlik xususiyatlarini kuzatar ekan, fe'llarning o'ziga xos valentlik tabiatiga ega ekanligini aniqlaydi. Ot hamda sifatlar faqat bittadan kelishik formalari uchun vakant pozitsiyalarga ega bo'lsa, fe'llar egadan tashqari yana bir qancha vakant pozitsiyalarga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Muallif "ishtirokchilar" sifatida faqat kelishik shakllaridan birida qo'llaniluvchi otlar bilan to'ldiriluvchi pozitsiyalarni tanlaydi. Ko'makchilar yordamida yuzaga chiquvchi shakllar esa soqit qilinadi, ya'ni hollar fe'llarning umumiy valentlik tarkibiga kiritilmaydi. Bunday qarash Brinkmanni Tenyerning qarashlari bilan umumlashtiradi. H.Brinkman xuddi L.Tenyerga o'xshab valentlik

fe'lining gapdagi boshqa o'rinlarni to'ldirishni talab qiluvchi xususiyati, deb izohlaydi.<sup>63</sup>

Bu jihatdan J.Erben qarashlari e'tiborga loyiq. U ham gap markazida fe'l turishini e'tirof etadi va fe'l valentligini atom valentligiga qiyoslagan holda, aynan shu valentlik gapning struktur sxemasini belgilashini ta'kidlaydi. Chunki to'ldiruvchi'larning nechta va qanaqa bo'lishi hamda ularning qaysi o'rinda kelishi aynan fe'lga bog'liq. "To'ldiruvchi" sifatida J.Erben nafaqat ega va to'ldiruvchini, balki mazmunan zarur bo'lgan hollarni, predikativ aniqlovchini va predikativni ham belgilaydi. O'z sxemalarida muallif har bir "to'ldiruvchi"ni muayyan raqamlar bilan belgilaydi (E1, Ye2, Ye3, Ye4). Lekin bu raqamlar faqat fe'lining umumiy valentligini belgilab, ularning iyerarxiyasini ham, tartibini ham ko'rsatmasligini uqtiradi. L.Veysgerber, G.Helbiglar o'z oldiga valentlik tushunchasini aniqlashtirish va formallashtirish vazifasini qo'ydilar. Xususan, L.Veysgerber valentlik haqidagi qarashlarni rivojlantirgan holda, "gapning har bir bo'lagi muayyan gap bo'lagini modellashtirish doirasidagi tutgan o'rniga ko'ra "valentlik" xususiyatiga ega" ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni valentlik masalasi nafaqat fe'lga nisbatan, balki boshqa so'z turkumlariga nisbatan ham qo'llanilishi lozimligi e'tirof etadi. G.Helbig fe'l valentligini tekshirishda transformatsion grammatikaning muayyan bo'laklarni tushirish usulini qo'lladi. Bunda gap tarkibidagi fe'l "kengaytiruvchilari"dan biri tushirilishi natijasida gap mazmuniy strukturasi o'zgarish bo'lmasa, ushbu bo'lak struktur jihatdan zaruriy emas, aksi bo'ladigan bo'lsa, ushbu bo'lakning ishtiroki zaruriydir. Ko'rinadiki, fe'l valentliklarining zaruriy yoki zaruriy emasligi muayyan vaziyat bilan, so'zlovchining muayyan maqsadi bilan bog'liqdir. L.Tenyer nazariyasi ko'plab tilshunoslar tomonidan ilgari surildi va hozirgi tilshunoslikda mustahkam o'rin egalladi. Dastlab fe'llarning faqat ega va to'ldiruvchiga nisbatan birikuvchanligini ifodalovchi "valentlik" atamasining ko'lami kengayib, keyinchalik gap strukturasi uchun zarur bo'lgan barcha fe'l kengaytiruvchilari shu

---

<sup>63</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. –Б.236.



tushuncha tarkibiga kiritildi. “Valentlik“ atamasini til birliklarning potentsial xususiyatlari ma’nosida qo‘llash tendentsiyasi shu xususiyatlarning nutqdagi aktuallashuvini belgilash uchun qo‘llanilishiga nisbatan keng tarqaldi. Agar til-nutq dixotomiyasini, til va nutq birliklari o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik mavjudligini, ular o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligini inobatga olsak, u holda cheksiz birikish imkoniyatlariga ega bo‘lgan lisoniy birliklar muayyan vaziyatda, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun nutqiy realizatsiyasidan tashkil topadi. Shuning uchun valentlik atamasini ham til birliklarining birikuvchanlik imkoniyatlarini, ham ularning nutqiy realizatsiyasini belgilash uchun qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu fe’llarning valentlik modeli bo‘lib, uning konkret birliklar bilan to‘ldirilishi nutqda sodir bo‘ladi. So‘zlarning sintaktik valentligi esa so‘z birikmalarida gavdalanadi.

So‘zni til tizimining asosiy birligi sifatida har tomonlama chuqur o‘rganish hozirgi tilshunoslikning eng muhim masalalaridan biridir. Bu muammoni hal etishda hozirgi lingvistikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolayotgan valentlikning semantik nazariyasi katta rol o‘ynaydi. Hozirgi paytda ushbu nazariyaning tushunchaviy apparatini ishlab chiqish borasida muayyan natijalarga erishildi. Xususan, yuqorida tahlilga tortilgan ishar bilan bir qatorda S.Kasnelson, S.Kibardina, B.Leykina, T.P.Lomtev, M.Stepanova, N.Filicheva, B.M.Leykina, B.Abramov kabi tilshunoslarning fe’llarning valentlik tasnifini aniqlash tamoyillari, fe’llarning valentligi va mazmuni o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, aktantlarning va kengaytiruvchilarning semantik turlarini ajratish kabi muammolarga bag‘ishlangan tadqiqotlari maydonga keldi. Bu masalada M.D.Stepanova va G.Helbigning o‘rnini alohida ko‘rsatishga to‘g‘ri keladi. Ularning qarashi bo‘yicha, valentlik so‘zning leksik ma’nosiga tayanadi. Bundan tashqari, o‘zbek tilshunosligida ham bu borada qator tadqiqotlar, monografiyalar, bir qancha maqolalar yaratildi. I.Qo‘chqortoyev, G‘.Abdurahmonov, M.Mirtojdiyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Rasulov, S.Muhamedova

kabi olimlarimizning tadqiqotlari, ayniqsa, katta ahamiyatga ega.<sup>64</sup> Shunga qaramay, valentlik nazariyasining aktantlar va erkin kengaytiruvchilar, obligator(zaruriy) va fakultativ(nozaruriy) aktantlarni belgilash, valentlik nazariyasi kategoriyalarining an'anaviy grammatika kategoriyalari bilan bo'lgan munosabatini aniqlash kabi masalalar hozirgacha o'z yechimini topgan emas. Shu bilan birga valentlik va so'z yasovchi vositalar munosabati muammolari, gap tiplarida valentlikning realizatsiyasi xususiyatlari kabilar ham o'zining to'liq yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi.

Mutaxassislar fikricha, valentlik grammatika va leksikaning, sintaksis va semantikaning kesishgan nuqtasi bo'lganligi bois, semantik va sintaktik valentlikka bo'linadi.<sup>65</sup> Semantik valentlik biriktiruvchi leksemaning ma'noviy jihatdan o'ziga mos birikuvchilarni tanlashidir. Masalan, "hangra" leksemasi "qush" leksemasini o'ziga torta olmaydi, "qush" leksemasi "hangra" leksemasidagi birorta ham bo'sh o'ringa tusha olmaydi. Chunki ularda ma'noviy muvofiqlik mavjud emas. Leksemalar bir-biriga ma'noviy mos bo'lishi uchun ularning ma'no strukturalarida o'xshash ma'no bo'lakchalari – semalari bo'lmog'i lozim. "Qush" leksemasi ma'no tarkibidagi "sayray oladigan" ma'no bo'lakchasi "sayramoq" leksemasida va "sayramoq" leksemasidagi "qushlarga xos" ma'no bo'lakchasi qush leksemasida mavjud. Bu ularning birikma hosil qilishiga asos bo'la oladi.

Leksemalarning valentliklari tor yoki keng bo'lishi mumkin. Masalan: "hangramoq" leksemasining nima? so'rog'iga javob bo'ladigan valentligi to'ldiruvchisi – "eshak", "xo'tik", "hangi" leksemalaridir. Ba'zan birikuvchi yoki biriktiruvchi leksemalar

---

<sup>64</sup>Кўчқортгов И. Сўз валентлиги ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1973. №3. –Б.35; Кўчқортгов И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Т.: Фан, 1977; Кучкартаев И.К. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке. –Ташкент: Ўқитувчи, 1977; Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентности: Автореф.дисс...докт.филол.наук. –Ташкент, 1989; Расулов Р. Сўз валентлиги ва синтактик алоқа // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1992. №5/6. –Б.36-40; Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 1996; Мухамедова С. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 1996; Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол.фан.докт. ...дисс.автореф. –Тошкент, 2007; Каримжонова В. Ўзбек тилида ўрин келишикли бирикмалар семантикаси: Филол.фан.номз....дисс.автореф. –Тошкент, 1994; Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2010. –Б.236-281.

<sup>65</sup> Степанова М.Д. Проблемы теории валентности в современной лингвистике. –1973. №4. –С.16; Степанова М.Д. Проблемы теории валентности и валентный анализ. –М.: Наука, 1973. –С.68.

ma'nolari muvofiq bo'lmagani holda ular nutqda birikuvlar hosil qilishi mumkin. Masalan, "artist hangradi" kabi. Bunda me'yoriy valentlik buzilgan holda namoyon bo'lib, ko'chma, obrazli ma'no yuzaga chiqadi.

Sintaktik valentlik leksema valentligining ikkinchi tomoni bo'lib, u hokim mavqedagi leksemaning tobe leksemalarni o'ziga tortish uchun ularning ma'lum bir sintaktik shaklda – kelishik, ko'makchi, ravishdosh, sifatdosh qo'shimchalarini olgan holda bo'lishni talab qilishidir. Bu hokim leksemaning sintaktik mavqeyi, grammatik shakl tomonidan belgilanadi. Masalan, xatni yozdi, xat yozildi sintaktik qurilmalaridagi xatni va xat so'zlarining grammatik shakli bosh so'zning grammatik shakli bilan belgilanadi.

Sintaktik valentlik semantik valentlik bilan zich bog'langan bo'lib, biri o'zgarsa, ikkinchisi ham o'zgaradi, biri yo'qolsa, ikkinchisi ham bo'lmaydi. Masalan, "yetakla" leksemasi jo'nalish kelishigidagi otni o'ziga tortmaydi (Salimga yetakla tarzida). Lekin "yetakla" leksemasi orttirma nisbat shakli -t bilan shakllansa, (Salimga) so'z shakli unga tortilla oladi. Bunda "yetakla" leksemasining sintaktik valentligi o'zgaradi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Kimyoviy bog'lanish necha xil usul bilan amalga oshadi?
2. Tilshunoslikda valentlik nazariyasining shakllanishi qaysi davrga to'g'ri keladi?
3. Valentlik atamasining ma'nosi nima?
4. Valentlik tushunchasini kim birinchi bo'lib o'z asariga olib kirdi?
5. Tilshunoslikda valentlik dastlab qanday birliklarga nisbatan qo'llanila boshladi?
6. Valentlik turlariga misol keltiring.

**14-mavzu: Tilshunoslikning fizika bilan munosabati. Akustika va tilshunoslik**

**Reja:**

1. Tilshunoslikning fizika bilan munosabati. Akustika va tilshunoslik.

2.Fonetikani o'rganishda tajribaviy usullar. Nutq intonatsiyasini o'rganishning eksperimental-fonetik usullari.

*Tayanch tushunchalar: tilshunoslikning fizika bilan munosabati, akustika, tilshunoslik, fonetikani o'rganishda tajribaviy usullar, nutq, intonatsiya, eksperimental-fonetik usullar.*

**1.Tilshunoslikning fizika bilan munosabati. Akustika va tilshunoslik.** Fizika – tabiat haqidagi umumiy fan; materiyaning tuzilishi, shakli, xossalari va uning harakatlari hamda o'zaro ta'sirlarining umumiy xususiyatlarini o'rganadi. Bu xususiyatlar barcha moddiy tizimlarga xos. Mana shu ma'noda fizika barcha fanlar, ayniqsa, tabiiy fanlar bilan uzviy bog'liq. Jumladan, fizikaning akustika bo'limi fizikaning fonetika bo'limi bilan chambarchas aloqadadir. Akustika tovushning eshitish xususiyatlarini o'rganadi. Nutq tovushlari akustikaga asoslanadi. Akustikada uch kechim bo'ladi:1) ikki jismning o'zaro urilishi; 2) natijada havoda tebranish hosil bo'lishi; 3) uning eshitish organiga ta'siri. Bioakustikada birinchi kechim o'pkadan kelgan havo oqimining nutq organiga urilishi bo'ladi. Uning qolgan kechimlari fizik akustika kechimlari bilan bir xildir. Bioakustika nutq tovushi hisoblanadi. Nutq tovushi bir necha xususiyatga ega: 1) tovush balandligi 2) tovush kuchi 3) tovush cho'ziqligi 4) tovush tembri. Tovush balandligi o'pkadan kelgan havoning nutq organiga urilishi natijasida hosil bo'lgan tebranishning sekundlik miqdoriga bog'li bo'ladi. Havoning sekundlik tebranish miqdori qancha ko'p bo'lsa, yuzaga kelgan tovush shuncha baland chiqadi va, aksincha. Odatda tovush hosil bo'lish kechimidagi havo tebranishi gs(gers)bilan o'lchanadi. Bir gs.tovush payining berilgan zarbdan bir silkinib qaytishi bo'lib, bu silkinish havoning bir tebranishida aks etadi. Inson 16gs.dan 20 ming gs.gacha tovushni eshitish qobiliyatiga ega. Undan ortiq gs.li tovushlar ultra tovush bo'lib, uni inson eshita olmaydi. Inson oddiy so'zlashuvda 100gs.dan 400gs.gacha balandlikdagi tovushni qo'llaydi.

Insonning eng past tovushi bas deb atalib, 40 gs.ga, eng baland tovushi soprano deb atalib, 1700gs.ga ega bo'ladi.<sup>66</sup>

Tovush paylarining ko'p yoki kam miqdorda tebranishi tovush paylaridagi imkoniyatga bog'liqdir. Tovush paylari yupqa bo'lsa, ko'p tebranish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uning qalinligi shu imkoniyatni chegaralaydi. Odatda bolalar va ayollarning tovush paylari yupqa bo'lib, erkaklarning tovush paylari rasta yoshidan qalinlashadi. Shuning uchun erkaklarning tovushi yo'g'on va past, ayol va bolalarning tovushi ingichka va baland eshitiladi. Tovush kuchi nutq organiga havoning bergan zarbi bilan o'lchanadi. Ammo tovush kuchi tovush balandligi emas. Kuchli tovush past bo'lishi ham mumkin. Tovush kuchi zarbdan hosil bo'lgan tebranishning har bir silkinishidagi zarb yo'nalish bo'yicha borib qaytish oralig'i bilan belgilanadi. Uni fiziklar tilida tebranish amplitudasi deyiladi. Tebranish amplitudasi detsibal bilan o'lchanadi. Bo'g'in unlisida urg'uning bali yuqori bo'ladi.

Tovush cho'ziqligi o'pkadan kelgan havoning nutq organiga urilish davomiyligi bilan o'lchanadi, ya'ni u tovushga ketgan vaqt bilan bog'liq bo'ladi. Uni bir necha omillar belgilaydi. Nutq tempi tez bo'lsa, undagi tovushlar cho'ziqligi ancha kam kechadi. Urg'uli bo'g'inlar tovushi boshqa bo'g'inlar tovushiga nisbatan cho'ziqroq bo'ladi. So'zlardan toq bo'g'inlar mutlaqo urg'usiz bo'lgani uchun qisqa, ko'pincha reduksiyaga uchragan holda qayd etiladi. Tovush cho'ziqligi ularning artikulyatsiya usuli bilan ham bog'liqdir. Odatda, portlovchi tovush oniy, sirg'aluvchi cho'ziqroq, sonor va unlilar nisbatan eng cho'ziq tovushlar hisoblanadi. Tovushlar cho'ziqligi msek.(milliy sekund-sekundning mingdan bir bo'lagi) birligi bilan o'lchanadi.

Tovush tembri (sifati) qator tovush tonlari xususiyati bilan o'lchanadi. Tovush tonlari asosiy ton, yordamchi ton, shovqindan iborat. Asosiy ton tovush payining tebranishi va uning havoga ko'chishidan iboratdir. Yordamchi ton oberton va yordamchi ton komponentlariga bo'linadi, oberton (parsial ton ham deyiladi) tovush paylarining ma'lum qismlari

---

<sup>66</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. –Тошкент: Фан, 2013.–Б.18-22.

tebranishi va uning havoga asosiy ton tebranishi bilan birga ko‘chishidir. Asosiy ton bilan birga oberton kishi tovushini hosil qiladi, shuningdek tovushning ayrim shaxsga xos individualligini shakllantiradi. Rezonator ton esa asosiy va obertonning xalqum, og‘iz, burun devorlariga urilib qaytgandagi tebranishdan yuzaga keladi. U, ayniqsa, sonantlar shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Rezonator ton ashulachilar faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Zal, auditoriya, machit, cherkov kabilar qurilishida ham ularning rezonator ton hosil qilishi hisobga olinadi. U ovozni jarangdor, yoqimli va yuqori chastotali qilib beradi. Shovqin tovush paylari ishtirokisiz boshqa nutq organlarida, havo ularga urilishi natijasida hosil bo‘ladi.

**2.Fonetikani o‘rganishda tajribaviy usullar. Nutq intonatsiyasini o‘rganishning eksperimental-fonetik usullari.** Alohida apparatlar yordamida nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyadagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarni o‘rganish sohasi eksperimental fonetika deb yuritiladi. Bu tadqiqot usuli XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga keldi. Bu fizikaning akustika, rentgenologiya bo‘limlari inkishofi natijasida tovushning baland pastligini, cho‘ziq qisqaligini o‘lchaydigan ossilograf, og‘iz bo‘shlig‘idagi nutq organlari harakatining aksini beradigan palatograf va rentgenograflarning ixtirosi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu asboblarda yordamida nutq tovushlari, urg‘u va ohangning turli o‘rinlarda talaffuz xususiyatlari haqida aniq ma’lumotlar fizikaviy birliklarda olinadi. Bunday tadqiqotlar mohiyatan fizikaning akustika bo‘limi tajriba sinov uslublari asosida ish tutadi. Bu usul fahmiy nominalistik materialistik metodologiyaga tayanadi. Yuqorida ko‘rsatilgan fonetika turlarining barchasi kuzatishlar yordamida til talaffuzidagi xususiyatlarni ancha aniq tekshirilgan eksperimental fonetika natijalariga asoslanadi. Fonetikaning bu turida nutq tovushlarining fizik-akustik va artikulyatsion jihatlari maxsus asboblarda (pnevmoqraf, ossilograf, fonograf, spektrograf va boshqalar) yordamida tadqiq qilinadi. Shu asosda tovushlarning sifat va miqdor belgilari (balandligi, kuchi, tembri, spektri, cho‘ziqlik darajasi) ularning

artikulyatsiyasi (hosil bo‘lish o‘rni, usuli) aniqlanadi.<sup>67</sup> Bunday tadqiqot natijalaridan fonetik birliklarning fonologik jihatlarini tavsiflashda foydalaniladi. O‘zbek tilshunosligida eksperimental fonetikaning rivojlanishida Ahmadjon Mahmudov va Sora Otamirzayeva kabi fonetistlarning xizmatlari katta. Bu tilshunoslarning qator ishlarida o‘zbek tili fonetik tizimining tovushlari urg‘u, bo‘g‘in kabi birliklari ayni shu usulda tadqiq qilingan. Agar fonetika tovushlarning hosil bo‘lishi va ularning xususiyatlarini o‘rgansa segmental fonetika (segment so‘zi nutq bo‘lagi ma’nosini anglatadi) deyiladi. Fonetika nutq tovushlaridan katta birliklarni, ya’ni bo‘g‘in, so‘z va frazalarni o‘rganish bilan ish tutsa, supersegmental fonetika yoki prosodika deb ataladi. Hozirgi davr fonetikasida ikki asosiy metod mavjud: subyektiv va obyektiv metodlar. Subyektiv metod talaffuzni bevosita kuzatishdan (ko‘rib yoki eshitib) iborat. U eng qadimiy va doim ham qo‘llash mumkin bo‘lgan metoddir. Subyektiv bevosita kuzatish natijasida tovushlarning artikulyatsion-akustik xususiyatlari, urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarning farqi, intonatsiyada ovoz ohangining pastga tushishi yoki yuqoriga ko‘tarilishini sezish mumkin.

Texnik apparatura yordamida, ya’ni obyektiv metodlar yordamida aniqlanuvchi barcha artikulyatsion-akustik xususiyatlar eksperimental-fonetik tekshirish yoki nutqni instrumental tasnif etish deb yuritiladi. Ma’lum apparatlar yordamida tilning tovush tarkibi, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyasini tekshirish ancha aniq va chuqur tasnif qilishiga imkon beradi.


Artikulyatsiyani o‘rganuvchi metodlar ichida palatografiya va rentgenografiya alohida o‘rin tutadi. Palatografiya – sun’iy tanglay yordamida tilning holatini aniqlashdir. Sun’iy tanglay ingichka elastik plastinkadan iborat bo‘lib, uning shakli va o‘lchovi talafiuz qiluvchining qattiq tanglayiga teng bo‘ladi. Talaffuz qiluvchi shaxs informant deb atalib, u o‘sha tilning adabiy talaffuzida yoki biror shevada (agar shevaning talaffuzi tekshirilayotgan bo‘lsa) so‘zlay olishi lozim. Elastik sun’iy tanglay og‘iz bo‘shlig‘idagi qattiq tanglayga kiydiriladi. Ma’lum

---

<sup>67</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: Talqin, 2005. – B.22.

tovushning talaffuzida tilning izlari sun'iy tanglayga ko'chiriladi. Natijada tovushning artikulyatsiya o'rni aniqlanadi. Tilning izlari qolgan sun'iy tanglay *palatogramma* deyiladi.

Rentgenografiya va kinorentgenografiya tovushning artikulyatsiyasini juda aniq ko'rsatib beruvchi metoddir. Oddiy rentgenografiya nutq a'zolarining holatini ma'lum artikulyatsiya momentida aniqlashga imkon beradi. Kinorentgenografiya tovush artikulyatsiyasining rivojlanish holatlarini aniqlab beradi.



#### Rentgenogrammalar

Nutqning akustik tomonini aniqlash uchun spektral va ossillografik metodlar qo'llanadi. Spektrograf tovush maydonining amplitudasi va chastotasini ko'rsatib beradi va tovushning to'la akustik belgisini aniqlashga yordam beradi. Nutqning akustik tomonini aniqlashda qo'llanuvchi yangi vositalar ichida spektral analiz yetakchi o'rin tutadi. Ikki tipdagi spektrograf mavjud:

- 1) statik tipdagi spektrograf tovushlarning akustik strukturasi ma'lum chegaralangan vaqt ichida o'rganishga imkon beradi;
- 2) dinamik tipdagi spektrograf (yoki sonograf) "ko'rinuvchi nutq" (visible speech) prinsipida ishlaydi va u yordamida tovushning spektral ko'rinishini rivojlanish jarayonida aniqlash mumkin bo'ladi. Ossillograf apparati ham eksperimental fonetik kuzatishlarda qo'llanadi. Ossilloografiya tovushning hosil bo'lishidagi garmonik tebranishlarni, nutq intonatsiyasi va iborani ma'nodor bo'laklarga bo'lishni o'rganishga



imkon beradi. Eksperimental-fonetik tekshirishlar tilning tovush tomonini tilshunoslik jihatdan chuqur va aniqroq tadqiq qilishda katta yordam beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tovush balandligi nima?
2. Tovush bosimi deganda nimani tushunasiz?
3. Tovush kuchi nima?
4. Tovush tembri deganda nima nazarda tutiladi?
5. Intonografik metod deganda qanday metod nazarda tutiladi?
6. Rentgenografik metod nima?

### **15-mavzu: Fizikada maydon nazariyasi va uning tilshunoslikka ta'siri. Tilshunoslikda maydon nazariyasi**

#### **Reja:**

1. Fizikada maydon nazariyasi va uning tilshunoslikka ta'siri. Tilshunoslikda maydon nazariyasi.
2. O'zbek tilshunosligida maydon nazariyasining o'rganilishi va maydon tushunchasi. Ideografik lug'atlar yaratilish tarixi va bunday lug'atlar yaratilishida maydon nazariyasining o'rni.

**Tayanch so'z va iboralar:** *maydon, elektr maydoni, morfem maydon, fonem maydon, so'z yasovchilar maydoni, leksik maydon, mazmuniy maydon, mikro va makro maydon, nisbiylik maydoni, vaqt maydoni, son maydoni, inkor maydoni, mavjudlik maydoni, mayl maydoni, shaxs maydoni, ideografik lug'atlar.*

**1. Fizikada maydon nazariyasi va uning tilshunoslikka ta'siri. Tilshunoslikda maydon nazariyasi.** "O'zbek tilining izohli lug'ati" da maydon so'zi fors-tojikcha so'z deyilgan va uning bir necha o'z va ko'chma ma'nolari izohlangan. Fizik atama sifatida "Biror fizik hodisa ro'y beradigan yoki uning ta'siri seziladigan fazo. Elektr maydoni, magnit maydoni", – degan ta'rif berilgan.<sup>68</sup> Maydon tushunchasi dastlab fizika sohasida qo'llanila boshlagan. Ingliz fizik olimi M. Faradey (1791-1867) ishlari asosida elektr zaryadlarining o'zaro ta'siri nazariyasi

---

<sup>68</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II томлик. 2-том. – Москва: Рус тили, 1981. –Б.442.

yaratilgan. Bu nazariyaga ko‘ra, har bir elektr zaryadi atrofida elektr maydoni hosil bo‘ladi. Zaryadning elektr maydoni moddiy obyekt bo‘lib, fazoda uzluksiz boshqa zaryadlarga ta‘sir qilish xususiyatiga egadir. Elektr toklarining o‘zaro ta‘sirlashuvining bunday hodisasini A.Amper elektrodinamik o‘zaro ta‘sir deb nomladi, bu esa o‘z navbatida magnit maydoni nazariyasining yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma‘no asosida ma‘lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi. Maydon tushunchasi deganda “mazmunning umumiyliigi (ba‘zan rasmiy ko‘rsatkichlarning javobgarligi) bilan birlashtirilgan va belgilangan hodisalarning kontseptual, asosli yoki funksional o‘xshashligini aks ettiruvchi til birliklari yig‘indisi” tushuniladi. Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma‘no asosida ma‘lum mazmuniy uyalarga birlashtirish dastlab sharq tilshunosligida rivojlangan va bu g‘oyaning amaliy ko‘rinishi sifatida ko‘plab ideografik lug‘atlar yaratilgan, faqat maydon tushunchasi bilan nomlanmagan, xolos. Keyinchalik bu g‘oya (XIX asr) Yevropada avj oldi. Unda leksik birliklar (umuman, til) umumiyligiga M.Pokrovskiy (XIX asr) e‘tibor qaratdi. Bu tushunchaning nazariy talqini I.Trir, G.Ipsen, V.Porsig, A.Ufemseva, N.Filicheva, Yu. Karaulov, G.Shchur ishlarida berilsa-da, mazkur tushunchaning uzil-kesil shakllanishi L.Vaysgber ishlari bilan bog‘liq.

**2. O‘zbek tilshunosligida maydon nazariyasining o‘rganilishi va maydon tushunchasi.** O‘zbek tilshunosligida ham maydon nazariyasi bilan bog‘liq qarashlar va tadqiqotlar shakllandi. A.Nurmonov, H.Ne‘matov, R.Rasulov, E.Begmatov, M.Abduvaliyev, T.Mirzaqulovlar tomonidan maydon nazariyasi yoritildi.<sup>69</sup> Maydon nazariyasining shakllanish tarixi, jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi, maydon turlari, maydon va unga yondosh hodisalar haqida Sh.Iskandarovaning “Leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish” kitobida batafsil ma‘lumotlar berilgan.<sup>70</sup> Olima maydon komponenti ishtirok etgan

<sup>69</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили ситем лексикологияси асослари. –Тошкент, 1995; Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол.фан. докт. ...дисс.автореф.1996.

<sup>70</sup> Исқандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш. –Тошкент: Фан, 1998.

tushunchalar sifatida G.Shchur qarashlarini keltiradi: funksional-semantik maydon, morfem maydon, fonem maydon, soʻz yasovchilar maydoni, leksik maydon, mazmuniy maydon, mikro va makro maydon, nisbiylik maydoni, vaqt maydoni, son maydoni, inkor maydoni, mavjudlik maydoni, mayl maydoni, shaxs maydoni, leksik-grammatik maydoni, transformatsion maydoni, mutlaq maydon, faoliyat maydoni, holat maydoni va hk. Keyinchalik Sh.Iskandarova oʻz tadqiqot ishida leksik maydon tushunchasini, asosan, shaxs otlari maydon tushunchasi ostida oʻrganadi. Tadqiqotda shaxs maydoni dastlab 2 ga ajratiladi: afsonaviy va real. Afsonaviy shaxs nomlari oʻz navbatida 2 ga ajratiladi: 1) afsonaviy ertak qahramonlari; 2) diniy-afsonaviy shaxs nomlari. Real shaxs nomlari 2 ga ajratiladi: 1) umumlashgan; 2) xususiy shaxs nomlari. Afsonaviy ertak qahramonlari yana 2 ga ajratiladi: 1) ijobiy; 2) salbiy. Shu tariqa shaxs maydoni 9 bosqichgacha kichik maydon va maydonchalar, qatorlarni tashkil etib boradi. Afsonaviy ertak qahramonlari 3 bosqichgacha, real shaxs nomlari ancha quyi bosqichga qadar ajratiladi.<sup>71</sup>

Leksik birliklarni bir mazmuniy uyaga birlashtirish va tahlil qilish lugʻat turlarida ham mavjud. Ideografik lugʻatlar shu asosda yaratilib, ular tilning butun leksik sistemasini qamrab oladi. O.Axmanova bunday lugʻatlarda soʻzlar mavzu qatorlari asosida joylashishini aytadi.<sup>72</sup> “Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da ideografik lugʻatlar alifbo tartibida emas, balki mavzu boʻyicha tuziladi, -deyilgan.<sup>73</sup> Ideografik lugʻatlarning yaratilishi xususida manbalarda quyidagicha fikrlar keltiriladi: “Shu kunga qadar ideografik lugʻat tuzish Ovrupodan boshlangan va bunday lugʻatlar Roje, Kasares, Rober, Dornzayf nomlari bilan bogʻliq deb hisoblab kelindi. Rus tilshunosligida Yu.N.Karaulov ideografik lugʻat tuzish tamoyillari boʻyicha maxsus tadqiqot olib bordi. Lekin bu muallif ham ideografik lugʻat tuzish Ovrupodan boshlanganini eʼtirof etadi. Sharq leksikografiyasi, xususan, arab va oʻzbek

<sup>71</sup> Iskandarova Sh. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайdonи): Филол.фан.докт. ...дисс.автореф. –Тошкент, 1999.

<sup>72</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов.энциклопедия, 1966.

<sup>73</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 4-жилд. –Т.: ЎЗМЭ, 2002. – Б. 77.

leksikografiyasi tarixiga e'tibor bersak, bunday lug'atlar Sharqda ancha uzoq tarixga egaligi ma'lum bo'ladi".<sup>74</sup> Haqiqatan, keyingi davrda ideografik lug'atlar bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda Sharqda ideografik yo'nalishning yuzaga kelishida islomning muqaddas kitobi sanalgan "Qur'oni Karim" muhim rol o'ynagani, VII-IX asrda arab leksikograflari tomonidan amalga oshirilgan olamshumul ishlar butun sharq olami tilshunosligida, xususan, lug'atshunoslik sohasida o'ziga xos inqilob yasash bilan birga G'arb leksikografiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazganligi ta'kidlangan.<sup>75</sup> A.E.Bertels Mahmud Zamaxshariy lug'ati hamda nemis olimi F.Dornzayfning oradan VIII asr o'tib tuzilgan ideografik lug'atini qiyoslar ekan, ularda tushunchalarni mavzuiy guruhlarga ajratish uslublari o'rtasidagi bir xilliklarni aniqlagan, bunga sabab qilib G'arb ilm-fan, madaniyati rivojiga Sharq ilm-fan, madaniyati ta'siri bo'lganligini ta'kidlab o'tgan.<sup>76</sup> O'zbek lug'atshunosligi tarixida turkiy tillarga bag'ishlangan tematik lug'atlar ham yuzaga kelgan bo'lib, XIV asrda yaratilgan "Tarjimon turkiy va ajamiy va mo'g'uliy" asari shunday lug'atlardan biridir. To'rt qismdan iborat ushbu asarning "Faqat ismlar haqida" deb nomlangan birinchi qismida so'zlar mavzuiy guruhlari asosida joylashtirilgan. Ushbu qism 26 fasldan iborat. Fasllar tarkibida 30-40 dan ortiq so'z (ba'zilarida undan ham ko'proq) bo'lib, ayrimlari bir necha mayda bo'limlarni o'z ichiga oladi.<sup>77</sup> Birinchi fasl "Osmon va unga tegishli narsalar ismi haqida" deb ataladi. "Tarjimon"dagi aksariyat mavzu nomlarini ideografik lug'atlarda ham uchratish mumkin. Misol uchun, "Osmon va unga tegishli narsalar", "Yer va undagi joylar", "Suv, suv ichidagi narsalar", "Daraxtlar, mevalar va (boshqa) o'simliklar", "Yirtqich hayvonlar", "Hasharotlar va shunga o'xshash narsalar", "Son va sanoq sonlar", "Vaqt", "Ma'danlar" kabi mavzu guruhlari R.Xallig va V.Vartburglarning "Universum" lug'atida aynan shunday yoki shunga yaqin nomlar ostida alohida semantik maydonlarni tashkil qiladi. Shuningdek, asarda

---

<sup>74</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –Б.104.

<sup>75</sup> Хамраева Ё.Н. Ўзбек тилининг идеографик луѓатини тузиш тамойиллари: Филол.фан.номз. ...автореф.дисс. –Тошкент, 2010. –В.9.

<sup>76</sup> Бертельс А.Е. О происхождении рубрик тематических (идеографических) словарей. – В кн.: Переводная и учебная лексикография. – М.: Русский язык, 1979. – С.23.

<sup>77</sup> Таржимон – XIV аср ёзма обидаси. Нашрга тайёрловчи А.Юнусов. –Тошкент: Фан, 1980. –Б.6.

Yevropa tillarida yaratilgan ideografik lugʻatlardagi singari “Insonning tashqi va ichki aʼzolari haqida”, “Kishilarning sifatlari haqida”, “Hunar turlari, odamlarning martabalari haqida”, “Kiyim-kechak, gazmol va shunga aloqador narsalar haqida”, “Qarindosh-urugʻlar, xoʻjayin, qulchoʻri, tanish-bilishlar haqida”, “Dard-kasalliklar, dori-darmon va oʻlim haqida” kabi koʻplab mavzu guruhlari bevosita insonga aloqador.

Mavzu boʻyicha tuzilgan ideografik lugʻatlar qatoriga Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” asarini kiritish mumkin. Muhammad Chingiy “Kelurnoma” asari Avrangzeb davrida (1658-1707) yaratilgan boʻlib, u 15 bob, 332 fasldan iborat. Ulardan 14-bobi arab alfaviti asosida 400 dan ortiq feʼlni izohlashga bagʻishlanadi. Oxirgi 15-bobda ismlar 9 mavzuiy guruhga ajratiladi: 1) osmon va u bilan bogʻliq boʻgan tushunchalar; 2) yer va u bilan bogʻliq boʻgan tushunchalar; 3) Ot va egarlanadigan hayvonlar; 4) burgutlar va yovvoyi qushlar; 5) odam jismi aʼzolari nomlari; 6) qarindoshlik nomlari; 7) qurol-yarogʻ nomlari; 8) sanoq nomlari; 9) olmosh, ravish, bogʻlovchi va qoʻshimchalar. Bu bob 1300 soʻz va 6000 dan ortiq soʻz shakllarini oʻz ichiga oladi.<sup>78</sup> Bugungi kunda oʻzbek lugʻatchiligida savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalar sohiblariga, ishbilarmonlar, turli zamonaviy sohalarning vakillariga bagʻishlangan har xil yoʻnalishlardagi mavzuiy lugʻatlar mavjud. Shu kabi ideografik yoʻnalishdagi lugʻatlarni yaratishda tilni maydon sifatida oʻrganish katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Fizikada maydon nazariyasi shakllanishi fanda qanday kashfiyotlar yaratilishiga sabab boʻldi?
2. Tilshunoslikda maydon nazariyasining shakllanishi qaysi davrlarga borib taqaladi?
3. Maydon nazariyasi boʻyicha oʻzbek tilshunosligida qanday tadqiqotlar olib borilgan?

---

<sup>78</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. –Б.105-106.

4. Maydon turlari: fonem, morfem, leksik, grammatik maydon haqida batafsil ma'lumot bering.

5. Morphem maydon bo'yicha kimlar tadqiqot ishlari olib borishgan?

6. Leksik maydon bo'yicha kimlar tadqiqot ishlari olib borishgan?

## **16-mavzu: Yadro-periferiya tushunchasi. Tilshunoslikda yadro-periferiya munosabatining tatbiq etilishi**

### **Reja:**

1. Yadro-periferiya tushunchasi. Atomistik ta'limotning mohiyati

2. Tilshunoslikda yadro-periferiya munosabatining tatbiq etilishi

3. So'z turkumlarida yadro-periferiya munosabati

**Tayanch so'z va iboralar:** *Yadro, periferiya, elektron, neytron, proton, 1911 yil, Ernest Rezenford, tilshunoslik, atomistik ta'limot, fonetik sath, leksik sath, morfologik sath, sintaktik sath, diftong, unli, dominant, bosh ma'no, ot, fe'l, kesim*

**1. Yadro-periferiya tushunchasi. Atomistik ta'limotning mohiyati.** Ma'lumki, moddiy va ideal dunyodagi obyektlar, tushunchalar va tasavvurlarning barchasi "yadro" (markaz) va "periferiya" (chekka) qismlardan iborat va har qanday substantning (zot) yadro va periferiya qismlari o'rtasida doimiy va ko'p tomonlama aloqalar mavjuddir.<sup>79</sup>

Tilshunoslikda til birliklari va sathlarida markaziy va quyi, chekka qismlar (sohalar) mavjudligi haqidagi qarashlarning shakllanishiga tabiiy fanlar, jumladan, kimyo va fizikadagi mavjud atomistik ta'limot turtki bo'lgan edi. Atomistik ta'limotning ildizi qadimgi Yunoniston tamadduniga borib taqalsa-da, bu xususdagi qarashlarning rivojiga

---

<sup>79</sup> Eltazarov J.D. So'z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabati// O'zbek tili va adabiyoti, №3, 2006; Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. –Б. 109-113. Normo'minov Sh. Til tizimi va so'z so'z turkumlari paradigmasi yadro-periferiya munosabatlari haqida// SamDU Ilmiy axborotnoma. №6, 2016. –B.112-116.

Turkistondan chiqqan buyuk mutafakkirlar Farobiy, Ibn Sino, Beruniylar katta hissa qo‘shdilar.<sup>80</sup>

19-asrning oxiri va 20-asr boshida atom yadrosining kashf etilishi va uning parchalanuvchan ekanligi; atomlar yadro va uning chekka qismlari – elektron, neytron, proton kabi zarralardan iboratligi, bu unsurlar yadroning musbat va zarralarning manfiy zaryadlangani tufayli dialektik birlikda ekani, yadroning parchalanishi uning bilan bog‘liq unsurlarda katta miqdordagi energiyaning ajralib chiqishi va kataklizmlarga olib kelishi kashf qilinganidan keyin boshqa fanlarda ham, shu jumladan, tilshunoslikda ham tabiiy fanlarga qiyosan “atomistik ta’limot” shakllandi, ya’ni turli til birliklarida va sathlarida asos (yadro) va chekka unsurlarni qidirish, til birliklarini atomistik ta’limotning boshqa tamoyillariga ko‘ra tahlil qilish an’anasi vujudga kela boshladi. O.S.Axmanovanning “Lingvistik terminlari lug‘ati”dagi “Tildagi yadroviy tuzilmalar”, “yadroviy bo‘g‘in”, “diftong yadrosi” kabi maqolalarga diqqat qilinsa, tilshunoslikda atomistik yondashuv til qurilishining fonetik, morfemik va sintaktik sathlariga tatbiq etilishga ulgurilganini sezish qiyin emas.<sup>81</sup>

**2. Tilning turli sathlarida “yadro-periferiya” munosabatlarining namoyon bo‘lishi.** Tilning har bir sathi va qismida yadroviy, tipik, asosiy hamda periferial (ikkinchi darajali) unsurlar mavjudligi va ularni turli aspektlarda namoyon bo‘lishi manbalarda ta’kidlanadi.<sup>82</sup> Xususan, Sh.Normo‘minovning dissertatsiya ishida o‘zbek tilining turli sathlarida yadro-periferiya munosabatlarining namoyon bo‘lishi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, biz mavzuni tushuntirishda ushbu tadqiqotdan foydalandik.<sup>83</sup>

Fonetik sathda yadro-periferiya munosabati diftonglarda namoyon bo‘lishi ko‘proq kuzatilgan. Unli fonemalar tarkibida boshqa jinsdan bo‘lgan unurning ishtirok etmasligi ularda yadro-periferiya munosabatining mavjudligini shubha ostiga qo‘yadi. Diftong esa ikki

<sup>80</sup> Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарк, 2001.–Б. 108.

<sup>81</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов.энциклопедия, 1966.

<sup>82</sup> Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасыдаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – Б. 110.

<sup>83</sup> Нормўминов Ш.Т. Ўзбек тили сўз туркумлари тизимидаги ядро-периферия алоқаларининг функционал-семантик тадқиқи: Филол.фан.ф.д (Phd)...дисс. – Самарқанд: 2019.

unsurdan: kuchli va baland talaffuz etiladigan yadro hamda kuchsiz va pastroq ohangda talaffuz etiladigan periferiyadan iborat. Xuddi shunday holni o‘zbek tili shevalaridagi diftonglarda ham ko‘rish mumkin, jumladan, qipchoq shevalarida uchraydigan [<sup>h</sup>öü], [<sup>h</sup>aiü] diftonglarida [ö], [ü] unlilari yadroni tashkil etsa, har ikkala diftongda [ü] unlisi periferiyani tashkil etadi<sup>84</sup>. Bo‘g‘inlardagi yadro-periferiya munosabati bo‘g‘inni tashkil etuvchi unli va undosh munosabatlariga tayanadi. Bo‘g‘inlarda yadro sifatida uni tashkil etuvchi unli tovush namoyon bo‘lsa, periferiya undosh tovush(lar)dan iborat bo‘ladi. Bunday ta’rif, albatta, bir unli dan iborat bo‘g‘inlar uchun emas. Hozirgi o‘zbek tilidagi CV, VC, CVC, CVCC tipidagi bo‘g‘inlarda bir, ikki va uch dona undosh periferial unsur sifatida mavjud bo‘ladi.

Leksika sathidagi unsurlarning yadro-periferiya munosabati tildagi maydon tushunchasi bilan bog‘liq. Tilning leksik birliklari har doim semantik maydonda o‘z ma’nosini realizatsiya qiladi, shu sababli leksik unsurlar orasidan yadroviy va periferial unsurlarni tanlashda leksik birliklarda bir tarafdin semantik vazifalarning umumiyiligini, boshqa tarafdin grammatik va leksik unsurlarning o‘zaro ta’siri kabi shart-sharoitlarni hisobga olish zarur.<sup>85</sup> Leksik birliklarning yadro-periferiya munosabatiga ko‘ra tasnifi ana shu tarafi bilan biroz murakkab, ammo har qanday tildagi hozirgi paytda faol bo‘lgan so‘zlar qatlamini, neologizmlarni, adabiy tilning leksik boyligini tilning leksikasi yadrosida turadi deb hisoblash mumkin. Periferiyada esa eskirgan, tarixiy so‘zlar hamda dialektizmlar, boshqa tillardan olingan va ma’nosi keng ommaga yaxshi tanish bo‘lmagan so‘zlar turishi ma’lum.

Morfemika sathida ham o‘zbek tilining tipik agglyutinatив-analitik til ekanligini hamda “morfema til sistemasida”, “morfema funksional-paradigmatik sistemada” tamoyiliga tayangan holda morfemik birliklarning yadroviy va periferial qismlari: 1) o‘zak va qo‘shimchalarni va periferial qismlarini; 2) qo‘shimchalarga ma’no-vazifa jihatidan teng

---

<sup>84</sup> Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. –Б.45.

<sup>85</sup> Попова З.Д., Стернин И.А. Лексическая система языка. Учебное пособие. -М.:URSS, Книжный дом “Либроком”, 2011. – С.172.



keluvchi birliklar: ot va fe'ldagi ko'makchilar, to'liqsiz fe'llar, affiks-yuklamalar, sifat va ravishdagi eng, juda tipidagi formalar, qil, et, ayla, bo'l; de fel formalari, affiksoidlar; 3) tub "o'zak so'zlar"; 4) nol morfemalar; 5) o'zgaruvchan morfemalar: choy-poy, non-pon, meva-cheva tipidagi takrorlarda ikkinchi qismlarni kiritish mumkin.<sup>86</sup>

**3. So'z turkumlarida yadro-periferiya munosabati.** Hozirgi o'zbek tilidagi so'z turkumlari paradigmasi, uning ko'p asrlik taraqqiyoti natijasi o'laroq, shuningdek, bugungi kunda til va nutqdagi faolligi va tutgan o'rniga ko'ra markazda (yadro) ot, fe'l va ularga tutash pozitsiyada tasviriy so'zlar; undan keyingi sohada (sferada) sifat, son, ravish; undan keyingi sohada olmosh, keyingi sohada relyativ so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama), undan keyingi sohani undovlar va modal so'zlar shaklidagi lingvosferadan iborat ekanligini ko'rsatish mumkin:

-So'z turkumlari paradigmasi tarkibidagi so'z turkumlari, ma'lumki, lingvistik tabiatiga va funksional xususiyatlariga ko'ra bir xil emas. Ontogenetik qiymati, so'z turkumlari tadriji va lisoniy ma'noni nutqqa transformatsiya qilinishida tutgan o'rniga ko'ra ham ularni bir xil baholab bo'lmaydi.

- so'z turkumlari paradigmasi a'zolari ichidan yadroviy turkumlarni ajratib olishda eng kuchli semantik, sintaktik pozitsiyalarga ega bo'lgan so'z turkumlarini – ot va fe'lni nazarda tutish kerak bo'ladi. Chunki bu so'z turkumlari turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida so'z turkumlari geneologiyasining asosida turadi, ularning semantikasi va morfologik, sintaktik hamda yasalishga ko'ra belgilari aniq va ravshan va to'kis ifodalangan; shuningdek, ism va fe'l eng asosiy nutqiy komponentlar sifatida ham namoyon bo'ladi.

-atomistik ta'limotning oddiy talablariga ko'ra so'z turkumlari paradigmasi sathidagi yadro birgina unsurdan iborat bo'lishi kerak edi: ya'ni ot yoki fe'ldan. Ammo turkiy tillardagi ism-fe'l munosabatlarining

---

<sup>86</sup> Мирзакулов Т. Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс. авторефер. –Тошкент, 1994. –В.18-19.


alohida va o'ziga xosligi so'z turkumlari paradigmasi asosida ushbu ikki so'z turkumlari yadroviy unsur sifatida yotishini isbotlaydi.

-boshqa so'z turkumlari, tabiiyki, so'z turkumlari paradigmasi ichida va umuman, lisoniy va nutqiy munosabatlarda ham ism va fe'l kabi mavqega ega emas va shuning uchun ular periferiyada o'rinishadi;

- periferiyadagi joylashish ham bir tekis emas, chunki, ism-fe'lga xos bo'lgan ba'zi belgilarga ega bo'lmagan tasviriy so'zlar yadro sohasidan keyingi birinchi doiraga, sifat, son, olmosh - ikkinchi doiraga, yordamchi so'z turkumlari hamda undov va modal so'zlar undan keyingi doiralarga joylashadilar;

- yadro (ism-fe'l) ega bo'lgan xossalar (mustaqil kategorial ma'no, yasalish usul va qoliplari; morfologik belgilar: turlanish tuslanish; sintaktik vazifa) qay darajada mavjudligiga qarab so'z turkumlari paradigmasi a'zolari markazdan chekkaga qarab joylashadi (*chizmaga qarang*).

### ***So'z turkumlari lingvosferasi***



Yadro va periferial soʻz turkumlari orasidagi munosabatlar shakllari, bizningcha, quyidagicha: markazning chekka sohalarga uzluksiz taʼsiri gapni shakllantiruvchi asos komponentlar sifatida ism va feʼl periferial birliklarning mavjudiyatini taʼminlab beradi, periferial birliklar esa ism va feʼldan oʻzlariga mos keluvchi spetsifik semantik komponent va hamda fonetik-akustik struktura oladi; buning evaziga ism-feʼl juftligiga nutqiy faoliyatda “yordamga keladi” va aksincha. Shu sababli yadro-periferiya aloqalarining bu turini soʻz turkumlariaro tarixiy-geneologik aloqalarni, diaxron plandagi koʻchishni, grammatikalizatsiya va leksikalizatsiya hollarini ifodalaydi, deyish mumkin.

Xullas, til tizimining barcha sathlarida yadro va periferial qismlarning mavjudligini kuzatishimiz mumkin, bu esa dunyodagi boshqa moddiy va ideal tizimlar kabi semiotik tizim boʻlmish tilda ham mutlaqo yadro va periferiyaning planetar modeliga oʻxshash tuzilish modeli mavjud va u tizim amal qilinishining universal shartlaridan biridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Fonetik sathda yadro-periferiya munosabati diftonglarda koʻrinadi. Diftonglarga misol keltiring.

2. Maʼlum bir soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari asosida yadro-periferiyaga misollar tuzing.

3. Soʻz turkumlarining eng chekka periferiyasiga qaysi soʻz turkumini olish mumkin? Fikringizni chizma asosida koʻrsating.

4. Olmosh soʻz turkumida olmoshning qaysi turi yadroda turadi, deb oʻylaysiz. Chizma asosida koʻrsating.

5. Yadro-periferiya nazariyasini sintaktik birliklarga nisbatan tatbiq etish mumkinmi?

6. Yadro-periferiya nazariyasi boʻyicha oʻzbek tilshunosligida qanday tadqiqotlar amalga oshirildi?

## **17-mavzu: Tilshunoslikning matematika bilan munosabati. Tilni o‘rganishda statistik metodlardan foydalanish**

### **Reja:**

1. Tilshunoslikning matematika bilan munosabati.
2. Tilni o‘rganishda statistik metodlardan foydalanish.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Tilshunoslik, matematika, matematik mantiq, algoritim nazariyasi, matematik tavsif, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi, transformasion grammatika, formal grammatika, generativ lingvistika.*

Mutafakkirlarning aytishicha, til sistema sifatida aynan matematikaning o‘zidir. Matematika aniq fan bo‘lib, formulalar munosabati orqali reallashadi. Til ham matematika singari aniqlikni talab qiladi va unda ikki yoki undan ortiq birliklarning o‘zaro munosabati bir butunlikni tashkil etadi. Shunday ekan, matematika fani va tilshunoslik o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud va bu bog‘liqlik matematik lingvistika fanini shakllantirdi.

Matematik lingvistika fani XX asrning 50-yillarida (1952-yilda) tilshunoslikning alohida yo‘nalishi sifatida yuzaga keldi. Bu fanning shakllanishida Kopengagen struktural tilshunoslik maktabi (glossematika)ning asoschisi Lui Yelmslevning g‘oyalari o‘ziga xos „turtki“ vazifasini o‘tagan. U hatto til hodisalarini matematik bayonda tushuntiradigan fanning nomini ham taklif etgan. Olimning fikricha, bu fan “Til algebrasi“ deb atalishi lozim edi. Mana shunday qarashlar ta’sirida matematik lingvistika fani shakllandi. A.Rahimov fikri bilan aytganda, matematik lingvistika bu – tabiiy tillarning matematik modellarini (bunday formallashtirilgan til metatil deb ataladi) ishlab chiqish, xususan, sun’iy tillarni yaratish algoritmini tuzish bilan shug‘ullanuvchi fandır.<sup>87</sup> Matematik lingvistika oldida turuvchi eng muhim masalalar quyidagilardir:

- tilning aksiomatik nazariyasini ishlab chiqish;
- formal grammatika yaratish;

---

<sup>87</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. –Andijon, 2012. –B.4-5.

- tillarning matematik modellarini ishlab chiqish.

Matematik lingvistika – insondan tashqarida mavhum sistema sifatida, Yelmslev ta’rifi bilan aytganda, “sof munosabatlar tizimi” bo’lgan til tavsifidir. Matematik lingvistika va klassik (mumtoz) tilshunoslik orasidagi farq quyidagi nuqtalarda ko‘rinadi:

- Mumtoz tilshunoslikda til inson bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. Ya’ni mumtoz tilshunoslik insonga yo‘naltirilgan bo‘ladi va uning faol ishtirokida qabul qilinadi. Matematik lingvistika esa insonni tavsifdan istisno qiladi va u ko‘proq kompyuterga moslashtiriladi.

- Mumtoz tilshunoslik ko‘proq tavsifiy (deskriptiv) xarakterga ega hisoblanadi. Matematik lingvistika esa masalani miqdoriy xarakteristikalar va aniq parametrlar asosida hal qiladi. Demak, mumtoz tilshunoslik ko‘proq tavsifiy bayonga asoslansa, matematik lingvistika miqdoriy (kvantitativ) tavsifga asoslanadi.

Har bir fanning o‘z maqsad va vazifalari bo‘ladi. Shunga ko‘ra matematik lingvistika fanining maqsadi bu – tabiiy tillarning matematik modellarini qurish, lingvistik muammolarni kompyuter yordamida hal qilish, talabalarda ushbu fan haqida puxta bilim hosil qildirish. Ushbu maqsadga erishish uchun fan o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- tabiiy va sun’iy tillarning formal modellari algoritmini ishlab chiqish;
- lingvistik muammolarni optimal hal qiluvchi kompyuter dasturlarini yaratish;
- lisoniy hodisalarni matematik parametrlarda baholash;
- til hodisalarini matematik tahlil qilish.

Fanlar hamisha o‘zaro uzviy bog‘liqlik va hamkorlikda ish ko‘radi, ular bir-birisiz yashay olmaydi. Jumladan, matematik lingvistika fani ham bundan mustasno emas. Matematik lingvistika mantiq, geometriya, informatika, statistika, ehtimollar nazariyasi kabi turli fan sohalari bilan o‘zaro aloqadorlikda ish ko‘radi.

2. Tilni o‘rganishda statistik metodlardan foydalanish. Tilshunoslikda keng qo‘llanilayotgan statistik metodlar ham matematika fanining ta’siri orqali maydonga kelgan. Statistik metodning markaziy

muammosi jonli (funktional) tilning statistik qonuniyatlarini va matnning statistik strukturasi aniqlashdir. Matnning statistik strukturasi deyilganda, shartli ravishda, ma'lum matndagi turli so'zlar miqdori bilan shu matnda uning qaytarilish-qaytalanish chastotasi orasidagi munosabat tushuniladi. Shunga ko'ra statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash kabi murakkab jarayondagi barcha ishlarni EHMga yuklash zaruriyati kelib chiqqan holda kompyuter lingvistikasida statistik yo'nalish yuzaga keldi.

Filologik izlanishlarda statistik metodni ilk bor qo'llagan olim V.Ya. Bunyakovskiy edi. Matematik olim Yu.I.Levin fikriga ko'ra, til hodisalarini o'rganishda ehtimollik nazariyasi va statistikasi qo'llash XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Bu soha bilan dastlab shug'ullangan shoir Andrey Belin va taniqli matematik A.A.Markovlar bo'lgan. Keyinchalik A.A.Chuprov, A.M.Peshkovskiy, V.F.Chistyakov, B.K.Kramorenko, A.A. Lyapidovskiy, E.A.Shteynfeldt, Yu.Markov, I.I.Revzin, V.A.Artyomov, R.G.Piotrovskiy, Ye.V.Paducheva, I.A.Malchuk, R.M.Frumkina kabi o'nlab shu sohaning mutaxassislari yetishib chiqdi. O'zbek tilshunosligida esa statistik metodlardan foydalanish 1930-yillardan I.Kissen lug'atlari bilan boshlangan. Masalan, 1941-yilda bir necha oy ichida I.A.Kissen rahbarligi va ishtiroki bilan 17000 so'zdan iborat katta o'zbekcha-ruscha lug'at tuzilgan. I.A.Kissen "Hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanuvchi so'zlar lug'ati"ni yaratish uchun qirqta o'zbek roman va qissalardan 101,044 ta so'z shaklini tanlab, shundan 5,4 foizini atoqli otlar (5494 ta so'z), qolgan 95,550 ta so'z mustaqil va yordamchi so'zlar bo'lib, 94,6 foizni tashkil etishini aniqlagan. O'zbek tili matbuotining lug'aviy tarkibini birinchi bo'lib tekshirgan olim V.V.Reshetov edi. U o'z nomzodlik dissertatsiyasida va shu asosda e'lon qilingan maqolalarida o'zbek tili matbuotidagi so'zlarning kelib chiqishi (o'zbekcha, arabcha, forsha, ruscha va boshqalar) va so'z turkumlari bo'yicha chastotasini aniqladi. Xuddi shuningdek, 1940-yilda A.K. Borovkov ham gazeta materiallari bo'yicha statistik tekshirish olib borgan edi.<sup>88</sup> Keyinchalik

---

<sup>88</sup> Ризаев С. Тестни автоматик қайта ишлаш ҳақида //Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. №1. –Б.101-102.

“Minsk22” elektron-hisoblash mashinasida S.Rizayev “O‘zbek bolalar adabiyoti tilining chastotali lug‘ati”ni yaratgan. R.Qo‘ng‘urov va S.Karimovlarning “Zulfiya poeziyasi tilining lug‘ati”, S.Muhamedovning gazeta matnlari asosida “O‘zbek tilining alfavitli-chastotali lug‘ati”, Rizayev, N.Bo‘ronovlarning “Abdulla Qahhor “Sinchalak” povesti tilining chastotali lug‘ati” kabi lug‘atlari statistik metod asosida yaratilgan.<sup>89</sup> D.O‘rinboyeva, U.Umrzoqov “O‘zbek xalq dostonlari tilining alfavitli chastotali lug‘ati”, S.Karimov, A.Qarshiyev, G.Isroilovalarning “A.Qahhor asarlari tilining lug‘ati”, N.Xadjimusayevaning “Orzigul”dostoni tilining alfavitli, chastotali, chappa lug‘ati”, D.O‘rinboyevaning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlarining qiyosiy chastotali lug‘ati”, S.Umirovaning “Usmon Azim asarlari tilining lug‘ati” kabi qator lug‘atlar ham statistik metod asosida yaratilgan lug‘atlardir.<sup>90</sup>

Xullas, leksik birliklarni statistik metod bilan tahlil qilish leksikologiya va leksikografiyaning ko‘plab masalalarini hal etishga ko‘maklashadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Matematik lingvistika fani nechanchi asrda shakllangan?
2. Lingvistikaning tarmoqlarini sanab bering?
3. Matematik lingvistika fanining asosiy maqsadi nima?
4. Kompyuter lingvistikasi oldida turgan asosiy masalalar qaysilar?
5. Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi nima?
6. Aksiomatik nazariya deb nimaga aytiladi?
7. Kompyuter lingvistikasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar?
8. Tarjimani modellashtirish metodlari va uni avtomatlashtirish yo‘llarini ishlab chiqqan olim?
9. Kompyuter lingvistikasini qaysi fanlar bilan aloqador?

---

<sup>89</sup> Kўnғуров Р., Каримов С. Зулфия поэзияси тилининг луғати (конкорданс). – Т., 1981; Мухаммедов С. Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати (газета матнлари асосида). – Тошкент: Фан, 1982.

<sup>90</sup> Каримов С. ва бошқ. А.Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007; О‘ринбойева Д., Умурзоқов У. О‘zbek xalq dostonlari tilining alfavitli chastotali lug‘ati. –Toshkent: O‘zME, 2006; Умирова С. Усмон Азим асарлари тилининг частотали луғати. – Самарқанд, 2019.

10. Lingvostatistika va almashtirish bilan shug'ullangan olimlarni ayting?
10. Chastotali lug'atlar haqida ma'lumot bering.
11. Bugungi kunga qadar yaratilgan chastotali lug'atlar haqida ma'lumot bering.
12. Dastlab yaratilgan chastotali lug'atlardan zamonaviy, bugungi kunda yaratilgan lug'atlarning farqini ayting.

## **18-mavzu: Tilshunoslik va semiotika**

### **Reja:**

1. Semiotika va uning yo'nalishlari.
2. Tilning belgi sifatida o'rganilishi.

*Tayanch so'z va iboralar: belgi, semiotika, lingvistik belgilar, Morze alifbo sistemasi, musiqa ijrolari, mimika va imo-ishoralar, yorug'lik va tovush signallari.*

**1. Semiotika va uning yo'nalishlari.** Turli-tuman belgilar tizimining umumiy xususiyatlarini o'rganuvchi fan semiotika deb ataladi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi. XIX asr oxiriga qadar belgi nazariyasi bilan asosan faylasuflar shug'ullandilar. Faqat XIX asr oxiridan boshlab bu masala ruhshunoslarning ham diqqatini jalb etdi. XIX asrdagi belgilar sistemasiga bag'ishlangan falsafiy asarlar orasida Ch.Pirsning asari alohida ajralib turadi. Semiotikaning asoschisi sanaluvchi Ch.Morrisning Ch.S.Pirs qarashlariga tayanishi ham bejiz emas. Ch.Pirs belgilarni birinchi marotaba tasnif qiladi. U tasnifda belgining moddiy tomoni – ifodalovchi bilan ifodalanmish o'rtasidagi farqlanishga asoslanadi. Ana shu belgi asosida Ch.Pirs belgilarni uch katta guruhga ajratadi:



1.Sanam belgilar. Bunday belgilar ifodalovchi ma'lum darajada ifodalanmish bilan o'xshashlikka ega bo'ladi (masalan, hayvonlarning tasvir belgisi sifatida aks ettirilishi).

2.Indeks belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi ifodalanmish bilan sabab-natija yoki boshqa munosabat (yaqinlik, makon va zamondagi bog'liqlik va h.k.) orqali bog'lanadi. Masalan, tutun olovning indeks belgisi sanaladi.

3.Simvol belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi bilan ifodalanmish o'rtasida shartli, konvensional, motivlanmagan munosabat mavjud bo'ladi. Bu munosabat erkin va ma'lum qoida asosida vujudga keladi. Ana shu jihatdan lingvistik belgilar simvol belgilarga o'xshaydi. Lekin belgilar tipologiyasida alohida o'rin egallaydi. Bu yangi fanning paydo bo'lishi Ch. Morris asarlarining yuzaga kelishi bilan bog'liq. Muallif o'z asarlarida o'zigacha o'tgan Ch.Pirs, Gusserli kabi faylasuflar va F.F.Fortunatov, F.de Sossyur kabi tilshunoslar tomonidan qilingan barcha ishlarni umumlashtiradi. Bunda F.de Sossyurning quyidagi fikriga e'tiborni qaratadi: belgilar haqidagi fan – semiotika psixologiyaning qismi, lingvistik muammo esa birinchi navbatda semiologik muammo bilan aloqadordir. Semiotika turli kommunikatsiyaning amaliy talablaridan kelib chiqib, uning turlarini o'rganadi. Semiotika bunda struktura belgisining izomorf hamda izomorfizm, ya'ni tilning turli yaruslari o'rtasidagi sifat farqlarini inkor etib, ularni ilmiy tadqiq etishda bir xil metod va usullardan foydalanish g'oyalariga amal qiladi. In'ikos natijalari bilan in'ikos ettiradigan buyum o'rtasidagi nisbat izomorfizm shaklida ifodalanadi. Izomorfizm talablariga amal qiluvchi semiotika, ya'ni tabiat va jamiyatdagi belgilar tizimi haqidagi fanning beshta yo'nalishi bor:

1) mavjud tabiiy va biologik belgilarni o'rganuvchi biosemiotik yo'nalish;

2) insonning madaniyat darajasi, urf-odati, holatini tasvirlovchi etnosemiotik yo'nalish;

3) tabiiy tillarni, ularning stilistik va bir-biridan ajralmaydigan belgilar tizimini o'rganadigan lingvosemiotik yo'nalish;

4) belgilangan material bilan bog‘liq bo‘lmagan holda o‘ziga xos umumiy xususiyatlarni belgilovchi abstrakt semiotik yo‘nalish;

5) mazkur yo‘nalishlarning hammasi uchun umumiy bo‘lgan masalalarni hal qiluvchi umumiy semiotik yo‘nalish.

**2.Tilning belgi sifatida o‘rganilishi.** Tilning belgilar tizimi ekanligi haqidagi fikrlar antik davrlardagi stoiklar falsafasiga, Demokritning so‘z va predmet munosabati haqidagi munozaralariga borib taqaladi. D. Lokk, G. Gegel, V. Gumboldt, F.F. Fortunatov, F. de Sossyur belgilar tizimining kelajagini izohlab berdilar.

F. de Sossyur o‘zining “Umumiy lingvistika kursi” asarida belgilar haqida fikr yuritadigan sohani semiologiya deb atadi va tilning belgilar xususiyatini shunday ta’riflaydi: “Til - belgilar tizimidir. Bunda birdan-bir muhim narsa mazmun bilan akustik obrazning birikishi hisoblanadi. Shu bilan birga, belgining bu ikki elementi teng mohiyatli psixik hodisalardir”. U belgi atamasini butunni ko‘rsatish uchun saqlashni, “tushuncha” va “akustik obraz” atamalarini ularga mos keluvchi “ifodalanuvchi” va “ifodalovchi” atamalari bilan almashtirishni tavsiya etadi. V. A. Bogoroditskiy “nutqimizda so‘zlar, tushunchalar va fikrlarni ifodalovchi simvollar yoki belgilar” mavjud, deb ko‘rsatadi.

Shunday bo‘lishiga qaramay, belgi tuzilishi to‘g‘risida bir-biriga qarama-qarshi ikki xil fikr bor. Birinchi fikr tarafdorlarining vakili L.A. Abramyan belgini ham ifoda planiga, ham material, ham mazmun planiga ega deydi. Uningcha, belgi o‘zi uchun muhim emas, faqat o‘zidan keyingilar uchun muhimdir. Bu nuqtayi nazarga qarshi turgan V.Z.Panfilov, A.A.Vetrov, V.M.Solnsevlar belgi bir tomonlama hodisa, u faqat ifoda planiga ega, belgi hamma vaqt mazmun bilan aloqada deb hisoblaydilar. Buning sababi: 1) tovush qatori faqat predmetni ko‘rsatmaydi, balki ma’noning o‘zini ko‘rsatadi; 2) belgi shartli, ixtiyoriy, mazmuni esa shartli emas, u haqiqatni aks ettirishda aniqlanadi; 3) ma’no bilim fakti, miyada saqlanadi, belgi hamma vaqt undan tashqaridadir, deb ko‘rsatadi.

Tildagi belgilar tizimi nutqimizda to'rt xil aspektdagi munosabatni ifodalashda qatnashadi. 1. Sigmatik aspekt. 2. Sintaktik aspekt. 3. Semantik aspekt.

4. Pragmatik aspekt.

Sigmatik aspektda belgi predmet bilan aloqada bo'ladi. Sintaktik aspektda belgining boshqa belgi bilan aloqasidan qat'iy nazar predmetning ma'no va funksiyasi bilan aloqada bo'ladi. Semantik aspektda belgi interpretatsiyasi (o'tkazuvchi) va uning fikr ifodalash vositalari birga qo'shib olib boriladi. Pragmatik aspektda inson va ishoraning o'zaro munosabatidan foydalaniladi.

Belgi tizimi haqida fikr yuritganda uning lisoniy va nolisoniy belgilarini farqlash lozim.

Til belgisida tilning predmetga bo'lgan munosabati haqida fikr yuritiladi. Til belgisi - kommunikativ va informativ belgilar tildagi so'zlar va gap tipidagi birliklar sanaladi.

Lingvist tilni shakl va mazmun birligida amal qiluvchi o'ziga xos belgilar tizimi sifatida tekshiradi. Tilning asosiy belgisi so'zdir. Ayni vaqtda so'z ikkinchi signal sistemasining birligidir. Ayrim tilshunolar so'zni tildagi axborot belgisi deb qaraydilar. Boshqalar bunga e'tiroz bildirib, absolyut atamalardagina bu holatni kuzatish mumkin deb hisoblaydilar.

Nolisoniy belgida esa, yordamchi vositalar haqida fikr yuritiladi. Yordamchi vositalarga signal va simvollar kiritiladi.

Axborot beruvchi ovozli, ko'rinishli yoki boshqa shartli belgili signal hisoblanadi: yo'l belgilari (svetafor, semafor); qo'ng'iroq, gudok kabilar. Signal belgilar tilda ham mavjud. Fonemalar tilning namunali tovushlaridir. Fonemalar tilning axborot belgisi emas, ular belgining belgisi, ya'ni til belgisi haqida signal beruvchidir. Boshqacha aytganda, u umumiy belgi emas, balki xususiy belgilardir. Mazmuni ko'rgazmali, obrazli ravishda asoslangan belgi simvol sanaladi. Simvol vaziyat bilan shartlanishdan ma'lum darajada ozod. Simvollar o'z xarakteriga ko'ra

murakkab (gerb, bayroq) va oddiy (nishonlar, orden, medallar) simvol belgilarga bo‘linadi.

Signal va simvollarning asosiy qismi tilda taqlidiy so‘zlar xarakteriga egadir. Lekin tilda taqlidiy so‘zlar sanoqli darajadadir.

Til belgisi haqiqiy bo‘lib, u birlamchidir. Nolisoniy belgi yordamchi va sun‘iy til belgisi esa ikkilamchi hisoblanadi. Ikkilamchi belgi *substitut* nomli atama bilan yuritiladi. Substitutlar birlamchi belgilarni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, fonema belgi bo‘lsa, harf uning substitutidir. Gap kommunikativ belgi bo‘lsa, uning matematik modeli substitut sanaladi.

Substitut belgilar axborot tizimida keng tarqalgan. Uning ko‘p qo‘llaniladigani matematik belgilardir. Substitutlar metatilni ifodalovchi vositadir.

Xullas, til kishilarning bir-birlariga turli axborotlarni xabar qiluvchi, yetkazuvchi belgilar tizimidir. Tilning belgilik xususiyatini tilshunoslikning lingvosemiotika bo‘limi o‘rganadi. Lingvosemiotika tilshunoslik bilan semiotika hamkorligida yuzaga kelgandir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Belgi turlariga misollar keltiring.
2. Shartli belgilarga misollar keltiring.
3. Sanam belgilarga misollar keltiring.
5. Indeks belgilarga misollar keltiring.
6. Lingvistik belgilarning boshqa belgilardan farqli jihatlariga misol keltiring.
7. Lingvistik belgilarning boshqa belgilarga o‘xshash jihatlariga misol keltiring.
8. Lingvistik belgilarning muhim jihatlariga misol keltiring.
9. Imo-ishoralarni belgiga kiritish mumkinmi?
10. Ushbu mavzu bo‘yicha qilingan tadqiqotlar haqida ma’lumot bering.

## **19-mavzu: Tilshunoslik va geografiya. Areal lingvistika**

Reja:

1. Tilshunoslik va geografiya. Lingvistik geografiya.

2. Lingvistik geografiya predmeti, maqsad va vazifalari.

*Tayanch tushunchalar:* tilshunoslik, geografiya, lingvistik geografiya, areal lingvistika, dialektologiya, izoglossa va til landshafti

### **1. Tilshunoslik va geografiya. Lingvistik geografiya.**

Tilshunoslik geografiya bilan ham uzviy aloqadadir. Onomastikaning bir qancha sohalari, dialektologiya fani bevosita geografiya fani bilan bogʻliqdir. Shunga koʻra, XIX asrning 70-80-yillarida tilshunoslik va geografiya oʻzaro aloqadorligida alohida soha lingvistik geografiya (lingvogeografiya) shakllandi.

Bu soha til hodisalarining tarqalish oʻrinlarini, ularda tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan oʻzgarishlarni oʻrganish uchun xizmat qiladi. Masalan, turkiy tillar geografiyasi haqida soʻz ketganda, til egalarining tarix taqozosi bilan muayyan oʻzgarishlarni oʻz boshlaridan kechirishlari, turli joylardan koʻchib yurishlari va hozirgi vaqtda oʻtroqlashish sabablarini oʻrganish tushuniladi. Masalan, Turkiyadagi aholining qadimda Turkistonda yashab, soʻngra hozirgi zamanga koʻchib ketganliklari va muqim hayot kechirishga oʻtganliklari fikrimizning dalilidir.

Lingvogeografiya lahja va shevalarni oʻrganishda ham ahamiyatlidir. Chunki ularning tarixiy taraqqiyot yoʻllarini belgilashda, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini oʻrganishda xalq tarixi va til tarixi bilan ularning tarqalgan joylari bilan uzviy bogʻliqlikda tekshiradi. Masalan, oʻzaro umumiy xususiyatga ega boʻlgan Toshkent, Parkent, Pskent, Qarnob kabi shevalarning turli joylarda oʻtroqlashib qolish sabablari oʻrganish, ulardagi umumiy til xususiyatlarini va oʻziga xos tomonlarini asos qilib olib, ularning xaritalarini chizib berish hamda lingvistik atlasini yaratish muhimdir.

P.Meyer, G.Paris, G.Venker J.Jilyeron, E.Edmon R.I.Avanesov, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, F.P.Filin, M.A.Borodina, N.3.Gadjiyeva singari olimlar lingvistik geografiyaning shakllanishi va rivojlanishiga katta xizmat qilganlar. 30-40-yillardan boshlab turkiyshunoslar va oʻzbek tilshunoslari ham (aslida bu sohaga oid dastlabki qarashlar M.Koshgʻariyning “Devonu lugʻati-t- turk” asarida mavjud) lingvistik

geografiyaga, lingvistik atlas tuzish muammolariga diqqatini jalb etdilar. V.M.Jirmunskiy, M.Sh.Shiraliyev, N.B.Burganov va L.3.Zalyay, G.B.Bakinova, N.A.Baskakov, L.A.Pokrovskaya, E.V.Severtyan, Ye.D..Polivanov, V.Reshetov, G‘ozi Olim Yunusov, I.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, U.Tursunov, A.G‘ulomov, F.Abdullayev, X.Doniyorov, A.Y.Aliyev, Q.Muhammadjonov, S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Mirzayev, K.Nazarov, A.Shermatov, A.B.Jo‘rayev singari olimlarning bu muammoga bag‘ishlangan qator asarlari maydonga keldi.<sup>91</sup> Bu tadqiqotlar lingvistik geografiyaning nazariy asoslarini belgilab berishda muhim ahamiyatga ega.

## **2.Lingvistik geografiya predmeti, maqsad va vazifalari.**

Lingvistik geografiya quyidagi tushuncha va terminlar bilan ish ko‘radi: 1.Lingvistik atlaslar 2.Mos hodisalar. 3.Areallar. 4.Izoglossalar. 5.Til lanshafti. 6.Aralash zonalar. 7.Irradiatsiya. 8.Lingvogeografik kartalar. 9.Kartalashtirish.<sup>92</sup>

Maxsus programma – so‘roqlik asosida tayyorlangan, ma’lum til yoki shevalarga xos xarakterli xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi lingvistik kartalarning albom shaklidagi sistemali to‘plami – lingvistik atlas deyiladi. Lingvistik atlaslar 2 xil bo‘ladi. 1.Regional atlas. 2. Zonal atlas. Regional atlas – u yoki bu rayondagi shevalar strukturasi eskiz –sxemasini aniqlash va detallashtirishdan iborat. O‘zbekiston teritoriyasini o‘z ichiga olgan o‘zbek shevalari atlasini tuzilsa, regional atlas bo‘ladi. Yirik zonadagi til xususiyatlarini o‘zida to‘la aks ettirgan atlas –zonal atlas deyiladi. 1821-yil K.de Monre tomonidan yaratilgan fransuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta, 1876-1926 – Venker va Vredelarning nemis til atlasini, J.Jilyeron va E.Edmon tomonidan yaratilgan 12 jildli “Fransuz tili atlasini”, K.Yaberg va Ya Yudlarning 8 jildli “Italyan-shveysar” (1928-1940) atlasini kabilar zonal atlasga misol bo‘ladi.

Mos hodisalar – umummilliy til strukturasi zvenolari bo‘lib, har xil dialektlarda o‘zining turli bo‘laklari bilan ishtirok etgan holda

<sup>91</sup> Шерматов А. Лингвистик география нима? –Тошкент: Фан, 1981. –Б.5-7.

<sup>92</sup> Шерматов А. Лингвистик география нима? –Тошкент: Фан, 1981. –Б.6-18.

shevachilik farqlarini vujudga keltiradi. Narvon, shoti, zangi; borovuz, boramiz, boropmiz.

Areallar – mos hodisalar ayrim bo‘laklarining lingvistik kartada tarqalish zonasini, ya’ni tilning dialektal farqlanishini ko‘rsatadi. Lingvistik karta – lingvogeografik tadqiqotning asosiy nuqtasidir. Unda til tarixining hamma davri aks etishi kerak.

Izoglossa – mos hodisalarning u yoki bu a’zosi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas kartasidagi chiziq.

Til landshafti – muayyan bir til uchun ma’lum bo‘lgan izoglossalar yig‘indisi va ularning shu til hududida joylashish xarakteri.

Aralash zona – bir til yoki dialekt ichida boshqa bir til yoki dialekt elementlarining mavjud bo‘lishi.

Innovatsiya markazi – u yoki bi til yoki sheva hodisasining markazi. Masalan, *-din* qo‘shimchasi uyg‘ur tilidan o‘zbek shevalariga tarqalgan.

Irradiatsiya – hodisaning tarqalish tushunchasi bo‘lib, arealning xarakterli belgilaridan biridir.

Lingvistik karta – lingvogeografik tadqiqotning asosiy nuqtasidir. Unda til tarixining hamma davri aks etishi kerak.

Xullas, lingvistik geografiya quyidagi maqsad va vazifalar bilan shug‘ullanadi:

- lingvogeografiya materiallar bilan laboratoriyada va kabinetda shug‘ullaniladi;

- til hodisalarining tarqalish chegaralari, joylashish o‘rni va tilning dialektal bo‘linishi o‘rganiladi;

- areal-tipologik metod orqali tillar tipologiyasi aniqlaniladi;

- areal tadqiqot metodi bilan ham ish ko‘riladi;

- dialektlar va shevalar butunicha aniqlanib tekshiriladi;

- hududiy (regional) va ma’lum bir, ayrim olingan kenglik, maydonlar (zonalar) dialektologik atlaslari tuzish ishlarini amalga oshiriladi;

- mustaqil holda dialektologik va lingvogeografik asoslar orqali

til maydon va kengliklari o'rganiladi;

- tilda turli omillar sababli paydo bo'lgan lingvistik hodisalar - izoglassa chiziqlarini xaritalashtirish, til lanshaftlarini belgilash vazifalari amalga oshiriladi;

- bog'liq va konvergent izoglassalar til faktlari asosida zamon va makonga bog'liq holda o'rganiladi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1.Lingvistik geografiya qanday tushuncha va terminlar bilan ish ko'radi.

2.Lingvistik yoki dialektologik atlasning vazifasi nima?

3. Lingvistik atlas kartalari qanday prinsiplarga asoslanib tuziladi?

4. Lingvistik atlas necha xil bo'ladi?

5.Regional atlasning asosiy vazifasi nima?

6.Zonal atlasning vazifasi qanday?

7.Mos hodisalar deganda nimani tushunasiz?

8.O'zbekistonda aralash zonalar qayerlarda uchraydi?



## **Xulosa**

Ildizi antik davrga borib taqaladigan tilshunoslik fani bugungi kunda rivojlangan, til va nutq birliklarini har tomonlama tadqiq etayotgan turli zamonaviy soha va yoʻnalishlarga ega fan sifatida fanlar sistemasida oʻz oʻrniga ega boʻldi. U hozirgi taraqqiyot darajasiga nafaqat, oʻz ichki xususiyatlaridan, oʻz tarixidan kuch olib erishdi, balki boshqa fanlar, sohalar gʻoyalaridan, tamoyillari, yangiliklari, yutuqlaridan ozuqa sifatida foydalandi. Tilshunoslik fanlar sistemasidagi boshqa fanlar erishgan yutuqlar bilan oziqlanibgina qolmasdan, oʻz navbatida, uning oʻzi ham bir qancha fanlarda mavjud muammolarni ijobiy hal qilish uchun yordam bermoqda. Xususan, mantiq, psixologiya, tarix, madaniyatshunoslik, etnografiya, adabiyotshunoslik tilshunoslik yutuqlariga tayanadi. Shuningdek, tabiiy fanlarning atamalar tizimini shakllantirish va tartibga solishda ham tilshunoslik yordamga keladi.

Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan bogʻliqlik darajasi turlicha. Ayrim fanlar bilan tilshunoslikning baʼzi masalalarigina aloqadordir. Xususan, geografiya bilan lisoniy hodisalarning tarqalish hududlarini belgilashda, bu hududlarni kartalashtirishda, joy nomlarini maʼnosini izohlashda; fizikaning akustika boʻlimi bilan nutq tovushlarining fizik

xossasini o'rganishda; biologiya bilan nutq tovushlarining artikulyatsion xususiyatlarini izohlashda, tibbiyot bilan nutqiy afaziya masalalarini o'rganishda aloqadorlik seziladi. Boshqa fanlar bilan esa tilshunoslik o'ta zich munosabatdadir. Masalan, falsafa tilshunoslikning barcha masalalari bilan uzviy aloqada.

Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan munosabatini o'rganish natijasida hozirgi kunda fanlar sistemasida ikki fan oralig'idagi yo'nalishlar maydonga keldi. Mentalingvistika (tilshunoslik va falsafa munosabati), kognitiv tilshunoslik (gnoseologiya), etnolingvistika (etnografiya va tilshunoslik munosabati), psixolingvistika (psixologiya va tilshunoslik munosabati), paralingvistika (semiotika bilan tilshunoslik munosabati), neyrolingvistika (tibbiyot, fiziologiya bilan tilshunoslik), sotsiolingvistika (til va jamiyat aloqasi), lingvokulturologiya (inson-madaniyat-til munosabati), psixolingvistika (til va shaxs ruhiyati munosabati) kabi yo'nalishlar shular jumlasidandir.

Shuni ta'kidlash zarurki, tilshunoslik boshqa fanlar bilan qanchalik munosabatda bo'lmasin, o'z tadqiqoti obykti va tadqiqot chegarasiga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida fanlar sistemasida qat'iy o'rniga ega.

## “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” tanlov fanidan

### Glossariy

**Afaziya** (yunon. *aphasna*, a – inkor, phasis – nutq) miya muayyan qismlarining, odatda, chap yarim sharning shikast topishi tufayli vujudga kelgan nutqiy buzilish. Afaziya miyaga qon quyilishi (insult), miya o‘simtasi, biror bir mexanik shikast tufayli vujudga keladi. Agar miyadagi nutqiy zonalarning hammasi shikastlansa, *total afaziya* yuzaga keladi. Bunday holatda nutq umuman yo‘qoladi va uni tushunish amalga oshmaydi. Agar miyaning nutqiy zonalaridan biri ishlab ketsa, *qisman afaziya* vujudga keladi.

**Akustik afaziya**– bosh miyaning yuqori chakka miyasida joylashgan Vernika markazi shikastlanganda yuzaga keladi. Bunday holda bemor gapira oladi, lekin nutqni tushunmaydi, unda “fonematik eshitish qobiliyati” buziladi. U so‘zlarni tushunib bo‘lmaydigan shovqindek qabul qiladi, ma’nosiga tushunmaydi. U hamma tovushlarni eshitadi, lekin ularni umumlashtirish va ajratish qobiliyatini yo‘qotadi. Bularning hammasi ikkilamchi buzilishlarga – so‘zlarning noto‘g‘ri talaffuz qilinishiga, yozish qobiliyatining buzilishiga olib keladi.

**Alaliya** (yunon. *á-* inkor yuklamasi va qad. yunon. *lalia* – nutq) – nutqiy buzilishning bir ko‘rinishi bo‘lib, u aqli raso, eshitish qobiliyati

bekam-ko‘st bo‘lgan bolalarda nutqning bo‘lmasligi yoki nutqning juda kech paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

**Aralash bilingvizm** – nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud bo‘lgan tillar esa faqat ustki struktura darajasida farqlanadi.

**Artikulyatsion belgi** – unli yoki undosh tovushlarning yuzaga chiqishida ishtirok etadigan nutq organlari belgisidir.

**Artikulyatsion ekskursiya** – artikulyatsiya o‘rnining ma’lum tovush talaffuzi uchun uning artikulyatsion usuliga safarbar etilishi, tayyorlanishi bo‘ladi.

**Artikulyatsion kechim** – o‘sha tovushni unga xos artikulyatsiya usulida qayd etishdir.

**Artikulyatsion rekursiya** – artikulyatsiya o‘rnining artikulyatsion kechimdandan keyin o‘z o‘rniga, ya’ni holatiga qaytishidan iborat.

**Assotsiatsiya** – til birliklarining shakli va yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko‘ra o‘zaro ta’siri.

**Bilingvizm** – ikki tilda erkin fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallash.

**Broka markazi** – miyaning chap peshona pastki orqa burmasida joylashgan qism, harakat markazi.

**Intonatsiya** — frazaga tegishli bo‘lgan ovoz sur’ati (tempi), sifati (tembri), nutq ritmi, melodika, iboraviy urg‘u, pauza kabi fonetik vositalarning murakkab birligi.

**Intonologiya** — fonetikaning intonatsiyani o‘rganish bo‘limi.

**Konsept** – lotin tilidagi *conceptus* “tushuncha” so‘zining kalkasidir. Rus tilshunosligida *konsept* tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Ushbu termin tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillariga qadar *tushuncha* so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uning

izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

**Lingvomadaniy konsept** – etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universalialarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo'ladi, u o'zida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmuni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi.

**Lingvomadaniy paradigm** – bu dunyoqarashning etnik, ijtimoiy, tarixiy, ilmiy va h.k. o'zaro aloqadorlikdagi kategoriyalarini aks ettiradigan til shakllarining majmuyi.

**Madaniyat** – muayyan xalqqa xos bo'lgan borliqdagi hayot va faoliyat, shuningdek, insonlar orasidagi o'zaro munosabat (urf-odatlar, rasm-rusumlar, muloqot xususiyatlari) va dunyoni ko'rish, tushunish va yaratish usullari. “Madaniyat” tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda “madaniyat” termini kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi. Madaniyat – me'yorlar, qadriyatlar, ideallar, namunalarning yo'l-yo'riqlari va ko'rsatmalari tizimiga asoslangan subyektlar faoliyatining barcha shakllari majmuyi, u boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqada yashaydigan jamoaning meros qilib olgan xotirasi.

**Nutq organlari anatomiyasi** – nutq organlari shakli va tuzilishi haqidagi bilimdir.

**Nutq organlarining ijro kechimi** – nutq organlarining nutq tovushi hosil qilishdagi ishtiroki, holati va ish kechimi kabilardan iborat.

**Nutq sur'ati** (tempi) — nutqning aytilish sur'ati (sokin, normal, tez talaffuz qilish).

**Ovozning sifati** (tembri) — ovozning sifati: neytral va turli hishayajonni ifodalovchi ovoz.

**Ohang** (melodika) — talaffuzda ovozning pasayishi va ko'tarilishi

**Olamning lisoniy manzarasi** – lisoniy shakllarda muhrlangan insonning olam haqidagi bilimlari majmuyi. Ya'ni olamning lisoniy manzarasi leksika, frazeologiya va grammatikada muhrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasidir. Olamning lisoniy manzarasi insonni olamga (tabiatga, hayvonlarga, o'z-o'ziga) bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi. Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzlar va h.k. vositasida yaratiladi.

**Paradigma** – o'z tadqiqot faoliyatiga va obyektiga ega bo'lgan, mushtarak ilmiy va falsafiy g'oyalar bilan birlashgan u yoki bu ilmiy yoki falsafiy hamjamiyatlar tomonidan qo'llaniladigan o'ziga xos metodlar va usullar yig'indisi.

**Prosodika** (prosodiya) — fonetikaning bo'g'in, urg'u va intonatsiyani ilmiy tadqiq etuvchi bo'limi.

**Prosodik element** — bo'g'in, urg'u va intonatsiyani tashkil etuvchi elementlar: ohang (melodika), iboraviy urg'u, pauza, ritm, nutqning sur'ati va sifati, ovozning ko'tarilishi, kuch va cho'ziqlikka tegishli fonetik vositalar.

**Pauza** — nutqni bo'lib aytish.

**Ritm** — nutqda urg‘uli va urg‘usiz hamda cho‘ziq va qisqa bo‘g‘inlarning munosabati.

**Etnolingvistika** – tilning jamiyat ijtimoiy strukturasi yoki xalqning madaniyati, an‘analari, urf-odatlar bilan aloqasini o‘rganadigan yo‘nalishi. Zamonaviy etnolingvistikaning markazida tilning leksik tizimidagi faqat muayyan moddiy va madaniy-tarixiy majmualar: madaniyat shakllari, urf-odatlar, udumlar bilan o‘zaro munosabatdagi elementlari bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishni ikki alohida tarmoqqa ajratish mumkin: 1) *etnik hududlarni tilga ko‘ra rekonstruksiya qilish*; 2) *xalqning moddiy va ma‘naviy madaniyatini til ma‘lumotlariga ko‘ra rekonstruksiya qilish*. Etnik o‘ziga xosliklar, jumladan, turli vaziyatlarda kishilar qanday ishlashadi, qanday dam olishadi, qanday ovqatlanishadi, qanday gaplashishadi va h.k. har joyda namoyon bo‘ladi.

**Etnopsixolingvistika** – nutqiy faoliyatda muayyan an‘analar bilan bog‘liq bo‘lgan muomala birliklarining qanday paydo bo‘lishini, turli til egalarining verbal va noverbal muloqotidagi farqlarni o‘rganadi. Nutqiy etiket va “dunyoning rangli manzarasi”ni, turli xalqlardagi ikki tillilik va ko‘p tillilik hodisalarini tadqiq etadi.

**Eksperimental-fonetik usul** — nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyani alohida apparatlar yordamida (kimograf, spektograf, ossillograf, rentgen va h.k.) o‘rganuvchi usul.

**Harakat afaziyasi** – bemor so‘zlarni talaffuz qila olmaydi, garchi u unga aytilgan nutqni tushunadi, bunda miyaning chap peshona pastki orqa burmalarida joylashgan Broka markazi shikast yegan bo‘ladi.

**Hujjatlar ekspertizasi** – hujjatlardagi imzolar, muhrlar, shtamplar, yozuvlar yuzasidan olib boriladigan ekspertiza.

**Ichki nutq**– so‘zlovchining ma‘lum xabarni bevosita muloqotga chiqarishdan oldin uni ovozning ishtirokisiz qaytarib olishi.

**Interferensiya** – ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tiliga ko‘rsatgan har qanday ta‘siri va bu ta‘sirning natijasi.

**Kod** – muloqot vositasi bo‘lib, u tabiiy tillar (o‘zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun‘iy tillar: esperanto yoki zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

**Kommunikativ shaxs** – real kommunikatsiyada real harakat qiladigan aniq kommunikativ aktning aniq ishtirokchisidir.

**Lakuna** (lot. lacuna “bo‘shliq, chuqurlik, cho‘nqir joy”; frans. lacune “bo‘shliq, bo‘sh joy”) – biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalari. Lakunalar qiyoslanayotgan tillarda o‘xshashi bo‘lmagan so‘zlar bo‘lib, ular, asosan, tillarning qiyosida seziladi.

**Lisoniy faollik** (linguistic performance) tushunchasi ham N.Xomskiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. N.Xomskiy lisoniy faollikni psixologiya sohasiga aloqador qildi va uni til egasi tomonidan yaratiladigan ifodalar sifatida izohladi. N.Xomskiy lisoniy faollikni “aniq sharoitlarda tilning kundalik qo‘llanishi”, - deb tushuntiradi. Lisoniy faollik nutqiy faoliyatda lisoniy qobiliyatni amalga oshirishda yuz beradigan jarayondir. Ya’ni lisoniy faollik ona tilini o‘zlashtirgan kishi egallagan til bilimlarini amalda qo‘llay olishidir.

**Lisoniy shaxs** – muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo‘lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxs.

**Lingvistik shok** – ona tili uchun kulgili, g‘alati va odobdan tashqari hisoblangan lisoniy birliklar qo‘llanilgan xorijiy nutqni eshitgan insonning hayratlanish, kulish yoki xijolat bo‘lish holati. Masalan, turk tilida *düşmek* “yiqilmoq”ni, o‘zbek tilida *tushmoq* “yuqoridan, balandlikdan pastga tomon yo‘nalmoq; biron transportdan tushmoq va h.k.” yoki *zor* “juda qiyin”, *zo‘r* “juda yaxshi” ma’nolarni ifodalaydi. Koreys tilida *oppa* akani, o‘zbek tilida bunga qarama-qarshi ma’nodagi so‘zni anglatadi. Tillararo bunday omonimiya hodisasi “tarjimonning aldoqchi do‘stlari” muammosi sifatida tasvirlanadi.



**Lisoniy qobiliyat** (linguistic competence) tushunchasi N.Xomskiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. N.Xomskiy lisoniy qobiliyatni mazkur tilda soʻzlashish qobiliyatini tashkil qiluvchi sifatida izohlagan. Maʼlumki, kishi tovushlar birikuvi, soʻzlar bogʻlanishi, umuman, tildagi soʻzlar tizimining qoʻllanishini onasidan, tevarak-atrofidagi yaqinlaridan eshitib oʻz ona tilini oʻzlashtiradi (ayni holat tilshunos yoki tilni oʻrganuvchi har qanday kishida ham kuzatiladi). Bunday tizimdan foydalanish natijasida inson ona tilidagi cheksiz soʻz turkumlari, jumlar va matnlarni hosil qilish qobiliyatini egallab boradi. Shunga koʻra, lisoniy qobiliyatni soʻzlovchi va tinglovchi til bilimining potensiali, deb izohlash mumkin. N.Xomskiy “lisoniy qobiliyat birlamchi boʻlib, u lisoniy faollikni belgilaydi”, - deb hisobladi. Transformatsion grammatika tarafdorlari ham asosiy urgʻuni lisoniy qobiliyatga berishdi.

**Matn atributsiyasi** matnning muallifligini – maʼlum matni mazkur shaxsga tegishli ekanligi yoki bu shaxsga tegishli emasligini aniqlash. Matnning atributsiyasi faqatgina kriminalistik amaliyotda amalga oshirilmaydi. Matni aniqlash tarix va filologiya fanlarining yordamchi sohasi hisoblangan, badiiy va boshqa asarlar matnlarining yaratilish tarixini oʻrganadigan manbashunoslikning ham muhim masalalaridan biridir.

**Motor afaziya** – inson miyasidagi Broka zonasi shikastlanganda maydonga keladi. Afaziyaning bu turida inson nutqni tushuna oladi, lekin gapira olmaydi. Broka markazini 1861-yilda fransuz olimi P.Broka kashf qilgan. U miyaning chap peshona pastki orqa burmasida joylashgan.

**Madaniy shok** – madaniyatlararo toʻqnashuvlarning koʻrinishlaridan biri boʻlib, u xorijiy tilni oʻrganuvchining ajablanish, hayron boʻlish yoki tili oʻrganilayotgan madaniyat omillarining qabul qilmaslik holatini ifodalaydi. Madaniy shok til oʻrganuvchining notoʻliq akkulturationsiyasi yoki u uchun yangi boʻlgan madaniyat meʼyorlarini bilmasligi, tushunmasligidir.

**Neyrolingvistika** (yunon. neuron – tomir, nerv, asab va lot. lingua – til) – nutqiy faoliyatning miya mexanizmlarini va miyaning mahalliy jarohatlanishi tufayli yuzaga keladigan nutqiy jarayondagi o‘zgarishlarni o‘rganadigan fan. Neyrolingvistika mustaqil fan sifatida (biologik) tilshunoslik negizida, neyrologiya, psixologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga keldi va u til sistemasini lisoniy muomalaning miya substrati bilan o‘zaro aloqada o‘rganadi.

**Neobixeviorizm** (yunon. neos – “yangi” va ingl. behaviour – “xulq, xatti-harakat”)da bixeviorizmning prinsipial S–R sxemasi mohiyatan murakkablashtirilib, S –R orasida nimadir borligi aniqlandi va “oraliq o‘zgaruvchi” tushunchasi paydo bo‘ldi. Gap endi shunchaki tashqi stimul va reaksiya haqida emas, balki insonda tashqi reaksiya chaqira oladigan va insonning o‘ziga xos individual tajribasini aks ettiradigan (shuning uchun ham turli kishilarning reaksiyalari farqli bo‘ladi) oraliq o‘zgaruvchi, ya’ni organizm ichidagi maxsus *ichki stimul* tushunchasi haqida boradi.

**Psixolingvistika** termini birinchi marta amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan 1946-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. “Psixolingvistika” *psixologiya* (yunon. *psyche* “ruh”) va *lingvistika* (lotin. *lingua* “til”) kesishgan nuqtadagi metafan, ya’ni psixologiya va lingvistikaning sintezi hisoblanadi. 1953-yilda AQShning Blumington shahridagi Indiana universiteti huzuridagi Lingvistika va psixologiya qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan universitetlararo seminarda psixolingvistika mustaqil fan sifatida e’lon qilindi. Psixolingvistika nutqiy faoliyatni nutq akti mazmuni bilan so‘zlovchining maqsad-niyati orasidagi aloqadorlik nuqtayi nazaridan o‘rganadigan fan. U nutqni idrok etish, tilni egallash kabi masalalarni o‘rganadi. Psixolingvistikaning diqqat markazida individ va kommunikatsiya turadi. Unga ko‘ra, so‘zlovchi nutqni yuzaga chiqarar ekan, o‘zi o‘ylagan niyatini ma’lum qoidalar asosida aniq tilning nutq birliklariga uzatadi. Tinglovchi nutqni qabul qilar ekan, nutq ifodalarining tashqi shaklida o‘z aksini topgan ma’noni chiqarib oladi.

**Sotsiolingvistika** – tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo‘lgan ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liqligini o‘rganadigan sohasi. Ijtimoiy sharoitlar deganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi: mazkur tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiy strukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog‘liq nutqiy muomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, sotsiolingvistika tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy funksiyalari, ijtimoiy omillarning tilga bo‘lgan ta’sir mexanizmi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasidir.

**Fan** – tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda atrofdagi muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi bilimlar sistemasi.

**Hissiy bilim** – insonning sezgi organlari yordamida hosil qilgan bilimi

**Idrokiy bilim** – amaliy bilimlarning o‘zaro munosabatini o‘rganish, umumlashtirish orqali hosil qilinadi, mazkur bilimga ega bo‘lish har qanday fanning bosh maqsadi sanaladi.

**Sistema** – muayyan ichki tuzilishga ega bo‘lib, bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o‘zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlikdir.

**Til** – jamiyatning aloqa-aralashuv ehtiyojini qondirish talabi bilan yuzaga kelgan va ana shu jamiyatning taqdiri, tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, madaniyati va hokazolar bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi.

**Logopediya** – nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta’lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o‘rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandır. “Logopediya” termini grekcha logos (so‘z, nutq), peydeo (tarbiyalayman, o‘qitaman) so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, tarjimada to‘g‘ri “nutqni tarbiyalash” ma’nosini anglatadi.

**Nutq harakat analizatori** bosh miya qobig'ining chap peshana qismida joylashgan bo'lib, Broka markazi deb ataladi. Bu qism og'zaki nutqning paydo bo'lishida qatnashadi.

**Nutq eshituv analizatori** bosh miya qobig'ining chap chakka qismida joylashgan bo'lib, Vernike markazi deb ataladi. Bu qismda begona nutqni qabul qilish jarayoni ro'y beradi. Nutqni tushunishda bosh miya qobig'ining orqa bo'lagi katta rol o'ynaydi. Bu bosh miyaning ko'ruv markazi hisoblanib, yozma nutqni o'zlashtirish uchun xizmat qiladi.

**Disfoniya** (afoniya) – tovush apparatining patologik o'zgarishlari oqibatida fonatsiyaning yo'q bo'lishi yoki zaiflashuvi. Ma'nodoshlari: tovushning buzilishi, fonatsiyaning buzilishi, fonotor buzilishlar, vakal buzilishlar.

**Bradilaliya** – nutqning patologik sekinlashgan sur'ati. Ma'nodoshi: bradifraziya. Artikulyar nutq dasturining sekinlashgan ishlab chiqarishda namoyon bo'ladi, markaziy bog'langan va o'z tabiatiga ko'ra organik yoki funksional bo'lishi mumkin.

**Taxilaliya** – nutqning patologik tezlashgan sur'ati. Ma'nodoshi: taxifraziya.

**Duduqlanish** – nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur'at-ohangning buzilishidir. Ma'nodoshi: logonevroz: Markaziy bog'langan bo'ladi, funksional yoki organik ko'rinishga ega, ko'proq bola nutqining rivojlanishida paydo bo'ladi.

**Dislaliya** – tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishi. Ma'nodoshlari: tili chuchuklik (eskirgan), tovush talaffuzidagi nuqsonlar, fonetik nuqsonlar, fonemalarni talaffuz qilishdagi notekisliklar.

**Rinolaliya** – tovush tembri va talaffuzining nutq apparatidagi anatomik-fiziologik nuqsonlar bilan bog'liq holdagi buzilishdir. Ma'nodoshlari: dimog' bilan gapirish (eskirgan), palatolaliya.

**Dizartriya** – nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog‘liq holdagi buzilishidir. Ma’nodoshi: tili chuchuklik (eskirgan).

**Diaxroniya** – grekcha dia –ikki, chronos – zamon so‘zlaridan olingan. Tilni tarixiy taraqqiyotda, rivojlanishda ekanini e’tiborga olib o‘rganish diaxroniya hisoblanadi.

**Sinxroniya** – grekcha “synchronos” so‘zidan olingan bo‘lib bir vaqtlilik demakdir. Til tarixiy taraqqiyotining muayyan bir davrdagi holati sinxroniya sanaladi.

**Kvalent bog‘lanish** – elektron juftlar tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog‘lanishdir. Bu ikki elektronli va ikki markazli (ikkita yadroni tutib turadi) bog‘lanish sanaladi.

**Elektrovalent yoki ionli bog‘lanish** – ionlar orasida elektrogatik tortishuv tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog‘lanishdir.

**Metall bog‘lanish** – elektronlar bir orbitaldan boshqasiga bemalol o‘tib, metall kristalidagi barcha atomlar orasida bog‘lanish hosil qilishidir.

**Valentlik** atamasi lot. valentia so‘zidan olingan bo‘lib, “quvvat”, “kuch” degan ma’noni beradi.

**Semantik valentlik** – so‘z leksik ma’nolarining mantiqiy uzvlariga asoslanadi. Semantik valentlik ma’noning alohida uzvlari chatishuviga asoslanadi.

**Leksik-semantik valentlik** – so‘zning leksik ma’nosidan, ya’ni leksemaning sememasidan boshlanadi.

**Agens valentligi**- kesim ifodalangan so‘zning shu so‘zdan anglashilgan harakat, holat, belgi mansub bo‘lgan leksik birlikni birikma uchun talab qiladi.

**Obyekt valentligi** – Bunday fe’l o‘z sememasidagi obyekt bildiruvchi semasiga ko‘ra u bilan klassemani tarkib toptira oluvchi sememasi bo‘lgan aktantni talab qiladi.

**Mazmun valentligi** aktanti ma’nosi hamma vaqt predikativ vazifadagi so‘zning ma’no uzvi bo‘ladi. I.Qo‘chqortoyevning qayd etishicha, o‘zbek tilidagi fe’llarning mazmun valentligi aktanti sintaktik jihatdan asosan to‘ldiruvchi(vositasiz) va ko‘chirma gap vazifasini

o‘taydi.

**Tovushning fizik-akustik tabiati** - tovushning balandligi, kuchi, tembri, cho‘ziqligi, ularning eshitilish xususiyatlari.

**Gers** - tebranayotgan jismning (mas., un paychalarining) tinch holatdagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib kelishi. Ovozning past yoki balandligi gerslar miqdori bilan belgilanadi.

**Tovush balandligi** – o‘pkadan kelgan havoning nutq organiga urilishi natijasida hosil bo‘lgan tebranishning sekundlik miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Havoning sekundlik tebranish miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, yuzaga kelgan tovush shuncha baland chiqadi va, aksincha.

**Tovush kuchi** – nutq organiga havoning bergan zarbi bilan o‘lchanadi. Ammo tovush kuchi tovush balandligi emas. Kuchli tovush past bo‘lishi ham mumkin. Tovush kuchi zarbdan hosil bo‘lgan tebranishning har bir silqinishidagi zarb yo‘nalish bo‘yicha borib qaytish oralig‘i bilan belgilanadi. Uni fiziklar tilida tebranish amplitudasi deyiladi. Tebranish amplitudasi detsibal bilan o‘lchanadi.

**Tovush cho‘ziqligi** – o‘pkadan kelgan havoning nutq organiga urilish davomiyligi bilan o‘lchanadi. Ya’ni u tovushga ketgan vaqt bilan bog‘liq bo‘ladi. Tovush cho‘ziqligi ularning artikulyatsiya usuli bilan ham bog‘liqdir. Odatda, portlovchi tovush oniy, sirg‘aluvchi cho‘ziqroq, sonor va unlilar nisbatan eng cho‘ziq tovushlar hisoblanadi. Tovushlar cho‘ziqligi msek.(milliy sekund-sekundning mingdan bir bo‘lagi)birligi bilan o‘lchanadi.

**Tovush tembri** (sifati)qator tovush tonlari xususiyati bilan o‘lchanadi. Tovush tonlari asosiy ton, yordamchi ton, shovqindan iborat.

**Mashina ijodi** - san’at asarlarini avtomatik tarzda yaratish jarayoni. Bugungi kunda ijodni to‘la modellashtirishga erishilgani yo‘q, lekin bu sohada sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Jumladan, kompyuter yordamida musiqalar yaratilishi, treker-dasturlar, sintezatorlar, sekvensorlar yordamida bir turdagi melodiya- lar va tovushlar generatsiyasi oqibatida elektron musiqalarning yaratilishi, matnning

avtomatik generatsiyasi yordamida she'rlar, ertaklar - umuman matnlar yaratilishi, rasmlar generatsiyasi va kompyuter grafikasi yordamida kino va o'yinlarning yaratilayotganligi (ayniqsa, strategiya va harbiy manyovrlarga asoslangan kompyuter o'yinlari) kabilar mashina ijodiga misol bo'la oladi.

**Avtomatik tahrirlash** – matnli ma'lumotlarni tuzish, qayta ishlash va tahrir qilish kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi yo'nalish. Bu yo'nalishda ham bugungi kunda barcha kompyuterlarda mavjud bo'lgan avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar ishlab chiqilgan. Ular ruscha matnlarni tahrirlab, noto'g'ri yozilgan so'zlarning tagiga qizil chiziq chiziladi, so'z to'g'ri yozilganidan so'ng chiziq yo'qoladi. Dasturlar, asosan, imloni tekshirishga mo'ljallangan. Ushbu yo'nalishda R.R.Kotov, V.B.Britvin, I.A.Melchuk, A.B.Kuznetsov, I.S.Duganovlar samarali tadqiqot olib borganlar.

**Kodlash va dekodlash** - informatsiyani mashina (kompyuter) tushunadigan tilga o'tkazish va bunga teskari bo'lgan kompyuter tushunadigan tildan inson tushunadigan tilga aylantirish jarayoni.

**Kompyuterli modellashtirish** - bugungi kunda barcha fanlarda, xususan, kompyuter lingvistikasida ham samarali metod hisoblanadi. Kompyuter modellashtirish quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

- ❖ masalaning qo'yilishi, modellashtirish obyektining aniqlashtirilishi;
- ❖ konseptual (tushunchaviy, fikriy) modelning ishlab chiqilishi, tizim asosiy unsurlarining ajratib olinishi;
- ❖ formalizatsiya, ya'ni matematik model bosqichi; algoritim yaratilishi hamda dastur ishlanishi;
- ❖ kompyuter eksperimentlarini o'tkazish;
- ❖ natijalar tahlili va talqini.

Sun'iy intellekt tizimi doirasidagi tabiiy tilli interfeys, ekspert tizimlari, neyron tarmoqlar, lingvoanalizatorlar, gapiruvchi avtomatlar – barchasi kompyuter modellashtirish natijasi hisoblanadi.

**Sun'iy intellekt** – intellektual mashinalar, intellektual kompyuter dasturlar yaratish texnologiyasi va bu haqidagi fan. Intellektual sistema strukturasi 3 asosiy blokni o'z ichiga oladi: bilimlar bazasi, masalani yechuvchi tizim va intellektual interfeys. Sun'iy intellekt insondagi intellekt tushunchasining aynan imitatsiyasi emas, balki inson intellektual faoliyatining ko'plab qirralarini o'z ichiga olgan, modellashtirilgan tizimlar texnologiyasi demakdir. Ayni shu ma'noda "artificial intelligence" terminini birinchi marta Jon Makkarti 1956-yilda Darmut universitetidagi konferensiyada qo'lladi.

**Avtomatik tarjima** kompyuter lingvistikasining eng zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoda keng tarqalgan jahon tillari uchun avtomatik tarjima dasturlari ishlab chiqilgan. Jumladan, ruschadan inglizchaga, inglizchadan ruschaga, ruschdan fransuzchaga yoki aksi tarzida dasturlar yaratilgan. Bunday dasturlar sirasiga SOCRAT, PROMPT, MAGIC GODDY kabilar kiradi. Ular 2 xil ta'minotga asoslanib ishlaydi: 1) lingvistik ta'minot - bunda mavjud tillarning umumiy leksikoni kiritiladi, uning grammatikasi joylashtiriladi, bir so'z bilan aytganda, ma'lumotlar bazasi yaratiladi; 2) programmaviy ta'minot. Bunda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish algoritmi va kompyuter analizi ishlab chiqiladi (maxsus programmalashtirilgan tillar yordamida).

**Belgi** – bu idrok qilinadigan narsa bo'lib, idrok qiluvchiga o'zi haqida va ushbu belgidan tashqarida bo'lgan boshqa narsa haqida ma'lumot beruvchi vositadir.

**Belgi** – sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilaridir.

**Lingvistik belgilar** inson kommunikativ faoliyatining asosini tashkil etadi. Boshqa barcha belgilar sistemasi kommunikasiya jarayonida tovushlar yordamida ifodalanayotgan axborotga qo'shimcha axborotni bildirish yoki "tovush nutqi"ga yordamchilik qilish vazifasini bajaradi. Kishilar o'z nutqiy faoliyatida tez-tez qo'llab turadigan mimika va turli xil imo-ishoralar ham nutqni kuzatib boruvchi qo'shimcha



vositalar sanaladi. Ba'zi o'rinlarda qisman uning o'rnini bosishi mumkin.

**Sanam belgilar** – ifodalovchi ma'lum darajada ifodalanmish bilan o'xshashlikka ega bo'ladi (masalan, hayvonlarning tasvir belgisi sifatida aks ettirilishi).

**Indeks belgilarda** ifodalovchi ifodalanmish bilan sabab-natija yoki boshqa munosabat (yaqinlik, makon va zamondagi bog'liqlik va h.k.) orqali bog'lanadi. Masalan, tutun olovning indeks belgisi sanaladi.

**Simvol belgilarda** ifodalovchi bilan ifodalanmish o'rtasida shartli, konvensional, motivlanmagan munosabat mavjud bo'ladi. Bu munosabat erkin va ma'lum qoida asosida vujudga keladi. Ana shu jihatdan lingvistik belgilar simvol belgilarga o'xshaydi. Lekin belgilar tipologiyasida alohida o'rin egallaydi.

**Lingvistik geografiya** lingvistik hodisalarning tarqalish zonalarini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida XIX asr oxirlarida dialektologiyadan o'sib chiqdi. Dialektologiyada ma'lum bir tilning dialektal xususiyatlarini aniqlash, mazkur xususiyatlarni aks ettiradigan dialektal atlaslar tuzish kabi muammolar o'rganiladi. Dialektal atlaslar tuzilishi dialektologiyadan lingvistik geografiyaga o'tish davri hisoblanadi. Demak, lingvistik atlas tuzish dialektologiya materiallariga asoslanadi.

**Izoglossa** – mos hodisalarning u yoki bu a'zosi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas kartasidagi chiziqdir.

**Til landshafti** – ma'lum bir tilning muayyan hududida tarqalgan izoglossalar yig'indisidir.

**Lingvistik geografiya** XIX asrning 70 – 80-yillarida dunyoga keldi. Ayrim til hodisalarining hududiy bir-biriga mos kelmaslik holatlarining kuzatilishi lingvistik geografiyaning maydonga kelishiga asos bo'ldi. Bu bilan bog'liq ravishda dialektal chegaralarning mavjud emasligi haqidagi tasavvur vujudga keldi. Ana shuning natijasida P.Meyer, G.Paris kabi olimlar umuman dialektlar mavjud emas, degan xulosa chiqardilar. Bu xulosa esa mutaxassislarda e'tiroz tug'dirdi. Munozara faqat lingvistik hodisalarni sistemalashtirish va kartalashtirish orqaligina

hal qilinishi lozim bo‘lib qoldi. 1876-yili Germaniyada G.Venker nemis tilining lingvistik atlasini tuzish uchun materiallar to‘play boshladi.

**Areal lingvistika.** Areal lotincha *agea* – “maydon”, “kenglik” so‘zidan olingan. Areal lingvistika tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, lingvistik hodisalarning muayyan kenglikda tarqalishini va tillararo (dialektlararo) munosabatni lingvistik geografiya metodlari asosida o‘rganadi. Areal lingvistikaning asosiy vazifasi til xususiyatlarining hududiy bo‘linishini tavsiflash va izoglossalarni talqin qilishdan iboratdir. Natijada dialektlar, tillar va areal jamoalar (til ittifoqlari) o‘rtasida o‘zaro ta’sir maydonlari (areallari) aniqlanadi. Areal lingvistika atamasi tilshunoslikka M.J.Bartoli va J.Viddassi tomonidan 1943- yili olib kirildi. Uning asosiy tamoyillari 1925-yiliyiq M.Bartoli tomonidan olg‘a surilgan.

**Izofon** – fonetik izoglossalardir.

**Izoleks** – leksik izoglossalardir.

**Bog‘liq izoglossa** – bir genetik umumiylikka ega bo‘lgan tillarda rivojlanadi va ularni tiklash uchun qiyosiy-genetik tadqiqotlar usulidan foydalaniladi.

**Konvertgent izoglossalar** – uzoq davrlar bir hududda yaqin aloqada bo‘lish natijasida areal umumiylikning vujudga kelishi asosida hosil bo‘ladi. Bunday izoglossalar tipologik tahlil usullari asosida aniqlanadi.

## **“Tilshunoslik va tabiiy fanlar” fanidan oraliq va yakuniy nazorat savollari**

1. “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” fanining o‘rganish obyekti, maqsadi

2. Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o‘rni ( Fan va uning paydo bo‘lishi. Fan tushunchasi. Fanlar sistemasi)

3. Sotsiolingvistika va uning asosiy muammolari (til, jamiyat, sotsium).

4. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi (tarix, adabiyot, madaniyatshunoslik).

5. Valentlik nazariyasi va tilshunoslik. Verbosentrik nazariya ( tilshunoslikda valentlik atamasining tarqalishi).

6. Yadro-periferiya munosabatlari (so‘z turkumlari doirasidagi yadro-periferiya munosabatlari)

7. Tilshunoslik va pragmatika. Til birliklarining pragmatik tomoni. Pragmalingvistika.

8. Lingvistik geografiya va uning o‘rganish obyekti (geografiya, tilshunoslik, dialektolodiya, til landshafti, lingvistik atlas, mos hodisalar, izoglassa).

9. Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Neyrolingvistika (nutg buzilishi, afaziya va uning turlari, miya faoliyati, nutq falaji).

10. Afaziya va uning turlari.

11. O‘zbek tilini lingvokulturologik aspektda o‘rganish muammolari (O‘zbek tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlar, monografiyalar, maqolalar).

12. Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati. Psixolingvistika ( psixologik yoʻnalish vakillari, til taraqqiyotida psixologik omillar oʻrni, tilning psixologik tomoni, psixologiyaning til tomoni).

13. Oʻzbek tilini psixolingvistik aspektida oʻrganish muammolari (Oʻzbek tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlar, monografiyalar, maqolalar).

14. Tilshunoslik va pragmatika. Til birliklarining pragmatik tomoni. Pragmalingvistika.

15. Matematik lingvistika oldida turuvchi eng muhim masalalar ( aksiomatik nazariya, matematik model, formal grammatika)

16. Kompyuter lingvistikasi va uning oldida turgan masalalar.

17. Tilshunoslik va biologiya. Tilshunoslik va fiziologiya.

18. Tilning ontologik tabiati ( Tilga sistema sifatida yondashish, umumiylik, xususiylik).

19. Logopediya fani va uning vazifalari (nutq tovushlari, duduqlanish).

20. Tilshunoslik va tabiiy fanlar (Tilshunoslik va biologiya. Tilshunoslik va kimyo. Tilshunoslik va fizika)

21. Tilshunoslik va kibernetika. Avtomatik tarjima. Avtomatik tahrir.

22. Nutq tovushlarining akustik aspekti ( tovush balandligi, tovush kuchi, tovush choʻziqligi, tovush tembri).

23. Tilshunoslik va kimyo. Modda tarkibini doimiyliqi qonuni va tilshunoslik.

24. Nutq tovushlarining akustik aspekti ( tovush balandligi, tovush kuchi, tovush choʻziqligi, tovush tembri).

25.O‘zbek tilshunosligida maydon nazariyasining o‘rganilishi (O‘zbek tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlar, monografiyalar, maqolalar).

26.Logopediya fani va uning vazifalari (nutq tovushlari, duduqlanish, nutq nuqsonlari va ularning turlari).

27.Valentlik nazariyasi va tilshunoslik (Semantik, mantiqiy va sintaktik valentlik).

28.Tilshunoslikning matematika bilan munosabati. Matematika va kompyuter lingvistikasi.

29.D.I.Mendeliyevning elementlar davriy sistemasi va tilshunoslik. (fonologik sistema, leksik-semantik guruhlarga bo‘lish).

30.Lingvistik geografiya va uning o‘rganish obyekti (geografiya, tilshunoslik, dialektolodiya, til landshafti, lingvistik atlas, mos hodisalar, izoglassa).

31.O‘zbek tilshunosligida valentlik nazariyasining o‘rganilishi (O‘zbek tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlar, monografiyalar, maqolalar).

32.Valentlik nazariyasi va tilshunoslik. Verbosentrik nazariya (tilshunoslikda valentlik atamasining tarqalishi).

33. Matematik lingvistika oldida turuvchi eng muhim masalalar (aksiomatik nazariya, matematik model, formal grammatika).

34. Yadro-periferiya munosabatlari (so‘z turkumlari doirasidagi yadro-periferiya munosabatlari).

35. Semiotika. Lingvosemiotika (tashqi belgi, ichki belgi, lisoniy va nolisoniy belgilar).

36.Belgi va uning turlari (tabiiy va sun‘iy; sanam belgilar, indeks, simvol belgilar).

38.Lingvistik belgilarning boshqa belgilardan farqli jihatlari.

39. Tilshunoslikning etnografiya bilan munosabati. Etnolingvistika (milliy tillar, urf-odatlar).

40. Lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o'rganuvchi sohasi. (Tilshunoslik va adabiyot. Badiiy matn estetik ta'sirini oshirishda til birliklarining xizmati).

41. Til birliklarini tushuntirishda psixologik yo'nalish vakillarining fikrlari (psixologik atamalar orqali nutqiy jarayonlarni tushuntirish).

42. Lingvistik geografiya va unung o'rganish obyekti (areal tilshunoslik, til landshafti, mos hodisalar, dialektlar).

43. Valentlik nazariyasi va tilshunoslik. Verbosentrik nazariya (tilshunoslikda valentlik atamasining tarqalishi).

44. Atom-molekulyar ta'limotning tilshunoslikka ta'siri (sinxroniya, diaxroniya).

45. Kant falsafiy qarashlarining tilshunoslik faniga ta'siri.

46. Areal lingvistika fanining asosiy vazifasi (Areal lingvistika fanining shakllanishi, areal lingvistika atamasining fanga kiritilishi va hk).

48. Nisbiylik nazariyasi va tilshunoslik (fonetikada, leksikologiyada, sintaksisda ehtimollar nazariyasi, "Markov jarayoni").

49. Cnastotali lug'atlar va ularning turlari (I.A.Kissen, S.Rizayev, R.Qo'ng'urov va S.Karimov, S.Muhamedov, D.O'rinboyeva va boshqalar).

50. Tilshunoslik va kibernetika. (Axborot va signal tushunchalari. Kod tushunchasi va hk.)

## **“Tilshunoslik va tabiiy fanlar ” fanidan testlar**

1. Tilshunoslik va tabiiy fanlar” tanlov fanini o‘qitishdan asosiy maqsad nimadan iborat?

A. Tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan munosabati to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish, tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan yangi sohalarga oid bilimlarni o‘zlashtirishdan iborat.

B. Fan va uning paydo bo‘lishi, fan tushunchasi, bilish bosqichlari, fahmiy bilish va nazariy haqida ma’lumotga ega bo‘lish.

C. Tilshunoslikning tabiiy fanlar: tilshunoslik va fiziologiya, nevrologiya, kimyo, fizika, matematika, kibernetika, geografiya bilan munosabati to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish.

D. “Tilshunoslik va tabiiy fanlar” ning tilshunoslikka oid nazariy va amaliy masalalarni hal qilishdagi qo‘shimcha fan sifatida ahamiyatini asoslash.

2. Insonning sezgi a’zolari yordamida hosil qilgan bilimi qanday bilish turi sanaladi?

A. Hissiy bilim

B. Idrokiy bilim

C. nazariy bilim

D. mantiqiy bilim

3. Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida” asarining muallifi kim?

A. Abu Nasr Farobiy B. Abu Ali Ibn Sino C. Mahmud Zamaxshariy

B. Bahouddin Naqshbandiy

4. Buyuk mutafakkirlardan qaysi biri fanlar tasnifi muammosi bilan ilk bor jiddiy shug‘ullangan?

A. Aristotel B. Demokrit C. Platon D. Sokrat

5. Abu Nasr Farobiy “Fanlarning kelib chiqishi” risolasida barcha mavjud bilimlarni besh katta guruhga ajratadi. Unda til haqidagi bilimni qaysi fanga qo‘shadi?

A. Alohida bo‘lim qilib ajratadi. B. Matematikaga C. Mantiqqa D. Tabiiy va diniy fanlarga

6. Tilshunoslik alohida fan bo‘lib ajralib chiqmasdan avval, unga tegishli muammolar qaysi fan tarkibida o‘rganilgan?

A. Falsafa B. Mantiq C. Semiologiya D. Metafizika

7. “Fanlar bizga qulaylik nuqtayi nazaridan emas, balki ular o‘rganadigan predmetning o‘zaro bog‘liqligi, tarixan biridan ikkinchisining kelib chiqqanligini obyektiv ravishda ko‘rsatadigan holatda joylashtirishi lozim”, degan fikr qaysi olim aytgan?

A. B. Kedrov B. L. Yelmslev C. S. Ivanov D. F. Fortunatov

8. Qaysi olimlar mantiq materiallari asosida ratsional grammatika yaratgan?

A. A. Arno va K. Landslo

B. G. Leybnis va F. Bekon C. E. Sepir va S. Lem

D. K. Xeyil va Dj. L. Treyjer

9. “Ruh fenomenologiyasi” asarining muallifi kim?

A. A. Hegel

B. V. Humboldt

C. S. N. Ivanov

D. N. S. Trubeskoy

10. Qaysi olimlar mantiqiy kategoriyalar asosida umumiy grammatika yaratish g‘oyasini ilgari surganlar?

A. F. Bekon, G. Leybnis, R. Dekart

B. F. Bekon, A. Arno, R. Landslo

C. A. Arno, R. Landslo, R. Dekart

D. G. Leybnis, A. Arno, R. Landslo

11. Tilning badiiy-estetik funksiyasini qaysi soha o‘rganadi?

A. Lingvopoetika B. Poetika C. Uslubshunoslik D. Pragmatika



12. Psixolingvistika atamasi ilk marta kim tomonidan qoʻllanilgan?

A.N.Pronko B.Dj.Keroll C.Ch.Osyud D.T.Siboyek

13. Psixolingvistika atamasi ilk marta nechanchi yil qoʻllanilgan?

A.1946 B.1976 C.1956 D.1966

14. Etnolingvistika yoʻnalish sifatida nechanchi asrda shakllandi?

A.XIX asrning 2-yarmida B.XVIII asrning 2-yarmida C.XVII asrning 2-yarmida D.XX asrning 2-yarmida

15. Tilning ijtimoiy vazifasi, tilga sotsial omillarning taʼsirini oʻrganuvchi tilshunoslik yoʻnalishi qanday nomlanadi?

A.Sotsiolingvistika B.Etnolingvistika C.Psixolingvistika  
D.Pragmalingvistika

16. Tilshunoslik va nevrologiya oraligʻidagi fan.

A.Neyrolingvistika B.Psixolingvistika C.Neyrofiziologiya  
D.Neyropsixologiya

17. Neyrolingvistika fani boʻyicha toʻliq maʼlumot beruvchi ilk kitob kim tomonidan yaratilgan?

A.A.Luriya B.A.Leontiyev C.E.Beyn. D.R.Boskis

18. «Osnovniye problemi neyrolingvistika» asarining muallifi kim?

A.A.Luriya D.A.Leontiyev D.E.Beyn. D.R.Boskis

19. 2 va koʻp til egalarining miyasi zararlanishi qaysi soha uchun material beradi?

A.Neyrolingvistika B.Psixolingvistika C.Neyrofiziologiya  
C.Pragmalingvistika

20. Neyrolingvistika nechanchi asrda shakllandi?

A.XIX asrda B.XVIII asrda C.XX asr boshlari D.XVII asrda

21. Tilshunoslikda valentlik nazariyasi qaysi fan ta' sirida shakllandi?

A.Kimyo B.Psixologiya C.Fizika D.Fiziologiya

22.Kimyo fanida atom-molekulyar ta'limot kimning nomi bilan bog'liq?

A.L.M.Lomonosov B.D.Mendeleyev C.J.Dalton D.R.Boskis

23.“Matematik kimyo elementlari” asarining muallifi kim?

A.L.M.Lomonosov B.D.Mendeleyev C. J.Dalton D.R.Boskis

24.L.M.Lomonosovning atomistik ta'limotini kim davom ettirgan?

A.J.Dalton B.L.M.Lomonosov C.D.Mendeleyev D.R.Boskis

25.Tilning ontologik tabiati qaysi fan ta' sirida shakllandi?

A.Kimyo va biologiya B.Psixologiya va kimyo C.fizika va fiziologiya

D.biologiya va fizika

26.Tilshunoslikda sistemaviy tadqiqotlar nechanchi asrda shakllandi?

A.XX asr boshlarida B.XVIII asrda C.XIX asrda D.XVII asrda

27. Qaysi atama grekcha “ ikki zamon” ma'nosini bildiradi?

A.Diaxroniya B.Sinxroniya C.Sistema D. Ontologiya

28.Til tarixiy taraqqiyotining muayyan bir davrdagi holatini o'rganish nima deb yuritiladi?

A.Sinxroniya B.Diaxroniya C.Dinamika D.Struktura

29.Valentlik nazariyasi tilshunoslikda nechanchi asrdan tatbiq etila boshlandi?

A.XX asr 40-yillaridan B.XX asr boshlaridan C. XX asr 70-yillaridan

D.XIX asr oxiridan

30. Tilshunoslikka valentlik nazariyasi kim tomonidan kiritildi?

A.S.D.Kasnelson B.V.Humboldt C.L.Tenyer D.F. de Sossyur

31. G'arbiy Yevropa tilshunosligida valentlik nazariyasini olib kirgan olim kim?

A.L.Tenyer B.S.D.Kasnelson C.V.Humboldt D.F.de Sossyur

32. "O grammatecheskoy kategorii" asarining muallifi kim?

A.S.D.Kasnelson B.L.Tenyer C.V.Humboldt D.F. de Sossyur

33. Lisoniy birliklarning qanday munosabati kimyodagi elementlarning bog'lanish qonunlariga o'xshab ko'rinadi?

A.Sintagmatik munosabat B.Paradigmatik munosabat C.Iyerarxik munosabat

D.Pog'onali munosabat

34. Tilshunoslikda invariant-variant tushunchalarining paydo bo'lishiga qaysi fanlarning o'rni bor?

A.Algebra, kimyo B.Biologiya, fizika C.Etnografiya, tarix D.Falsafa, mantiq

35. Tilshunoslikda qaysi bo'limlardagi birliklar tahlilida D.I. Mendeleev davriy sistemasi ta'sirini kuzatish mumkin. A.Fonologiya, leksikologiya B.Fonologiya, orfografiya C.Orfoepiya, orfografiya C.Morfologiya, sintaksis

36. Matematik lingvistika fani nechanchi asrda shakllangan?

A.XX asr o'rtalarida B.XIX asr oxirida

C.XX asr boshida D.XX asr ikkinchi yarmida

37. Matematik lingvistikaning asosiy vazifasi nimadan iborat?

A.Gaplarni matematik tavsiflash usullarini ishlab chiqish va o'rganish.

B. Bir qancha to'g'ri matnlarni va qonuniyatlarini tavsiflash.

C. So'zlarning nutqda qo'llanish miqdori, foiz nisbati haqida ma'lumot beradi

D. Tilshunoslikda matn tarkibidan tushib qolgan ayrim birliklarning nima ekanligini taxminlash va hk.

38. Qaysi jarayon asosida tilshunoslikda matn tarkibidan tushib qolgan ayrim birliklarning nima ekanligini taxminlash mumkin bo'ladi?

A. Markov jarayoni asosida

B. Nisbiylik nazariyasidan foydalangan holda

C. Kodlar yordamida

D. Matematik atamalar yordamida

39. Qaysi fan sintetik fan sanaladi va u matematika, fizika, mantiq, psixologiya, tilshunoslik ma'lumotlarini sintezlashtiradi?

A. Kibernetika

B. Matematik lingvistika

C. Sinergetika

D. Glossematika

40. Qanday birlik kod hisoblanadi?

A. Axborot tashishda qo'llaniladigan signallar tizimi kod hisoblanadi.

B. U borliqdagi narsa va hodisalar haqida axborot beradi.

C. Sezgi a'zolari yordamida tashqi olam haqida turli axborot beruvchi signallarni qabul qiladi.

D. Jonli organizm bilan mashinalar o'rtasidagi aloqa, boshqarish va nazorat jarayonidagi umumiy belgilarga kod deyiladi.

41. Kibernetika haqida dastlabki g'oya kim tomonidan berilgan?

A. N. Vener B. A. Markov C. I. Kissen D. Yu. Levin

42. So'zlarning nutqda qo'llanish miqdori, foiz nisbati haqida ma'lumot beruvchi lug'at qanday nomlanadi?

A. Chastotali lug'at B. Ideografik lug'at C. Tezaurus lug'at D. Morfem lug'at

43. "Zulfiya poeziyasi tilining lug'ati" nomli chastotali lug'at mualliflari kimlar?

A. S. Karimov, R. Qo'ng'urov B. S. Rizayev, N. Bo'ronov

C. S. Muhammedov, S. Rizayev D. A. Nurmonov, B. Yo'ldoshev

44. Avtomatik tarjima birinchi marta nechanchi yil va qayerda sinab ko'rildi?

A.1954-yilda, Niyu-Yorkda B.1964-yilda, Rossiyada  
C. 1954-yilda, Fransiyada D.1950-yilda Kanadada

45. Kibernetika bilan tilshunoslikning o‘zaro mustahkam aloqasi asosida amalga oshadigan jarayon

A.Avtomatik tarjima B.Markov jarayoni C.Nisbiylik nazariyasi  
D.Statistik metod.

46.I.Pavlov qanday birlikni “signallar signali” deb ta’riflagan edi?

A.So‘zni B.Fonemani C.Grafemani D.Lingvistik belgini

47. Qanday muammo avtomatik tarjima oldida turgan eng dolzarb muammo sanaladi?

A.Ko‘p ma’nolilikka, obrazlilikka asoslangan badiiy matnlarni tarjima qilish.

B.Ilmiy-texnik va rasmiy matnlarni tarjima qilish.

C.Frazeologik birliklarni tarjima qilish.

D.Makromatnlarni tarjima qilish.

48. Qaysi olim algoritmning lingvistik asoslarini ishlab chiqqan?

A.I.Belskiy B.D.Panov C.A.Meye D.A.Markov

49. “O‘zbek matematika terminologiyasining shakllanishi va rivojlanish tarixidan” nomli tadqiqot ishi muallifi kim?

A.O.Ramazonov B.I.Yo‘ldashev C.A.Madvaliyev D. R.Doniyorov

50. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari nima deyiladi?

A.Belgi B.Kod C.Signal D.Ramz

51. ...U har qanday axborotni, insonning ichki kechinmalarini chegaralanmagan holda ifodalash imkoniyatiga ega. Gap qanday belgi haqida ketmoqda?

A.Lingvistik belgi B.Shartli belgi C.Indeks belgi D.Sanam belgi

52. Qaysi belgi kishilarning obyektiv olam haqidagi bilimlarini boshqalarga uzatish vazifasini bajarish bilan birga soʻzlovchining mazkur axborotga munosabatini, ayni paytda, tinglovchiga taʼsir qilish vazifasini ham bajaradi?

A.Lingvistik belgi B.Shartli belgi C.Indeks belgi D.Sanam belgi

53. Belgilarni uch katta guruhga ajratgan olim kim?

A.Ch.Pirs. B.Ch. Morris C.R.Yakobson D.F.de Sossyur

54. Bunday belgilar ifodalovchi maʼlum darajada ifodalanmish bilan oʻxshashlikka ega boʻladi (masalan, hayvonlarning tasvir belgisi sifatida aks ettirilishi). Gap qanday belgi haqida ketmoqda?

A.Sanam belgi B.Lingvistik belgi C.Shartli belgi D.Indeks belgi

55. Bunday belgilarda ifodalovchi ifodalanmish bilan sabab-natija yoki boshqa munosabat (yaqinlik, makon va zamondagi bogʻliqlik va h.k.) orqali bogʻlanadi. Gap qanday belgi haqida ketmoqda?

A.Indeks belgi B.Sanam belgi C.Lingvistik belgi D.Shartli belgi

56. Bunday belgilarda ifodalovchi bilan ifodalanmish oʻrtasida shartli, konvensional, motivlanmagan munosabat mavjud boʻladi. Bu munosabat erkin va maʼlum qoida asosida vujudga keladi. Gap qanday belgi haqida ketmoqda?

A.Simvol belgi B.Sanam belgi C.Lingvistik belgi D. Indeks belgi

57. Sintaktik, semantik, sigmatik, pragmatik tomonlar qaysi belgi tomonlari sanaladi?

A.Lingvistik belgi B.Sanam belgi C.Indeks belgi D.Simvol belgi

58. Belgi xususiyati aks etmagan qatorni toping.

A.Moddiy emas. B. Maʼlum axborot tashiydi. C.Moddiylikka ega. D.Obyektiv borliqni ifodalaydi.

59. Belgi nazariyasi boʻyicha filologlardan tashqari yana qaysi soha egalari shugʻullanganlar?

A.Faylasuflar va ruhshunoslar B. Matematiklar va fiziklar  
C. Adabiyotshunoslar va tarixchilar D. Mantiqshunos va faylasuflar

60. Til - belgilar tizimidir. Bunda birdan–bir muhim narsa mazmun bilan akustik obrazning birikishi hisoblanadi. Shu bilan birga, belgining bu ikki elementi teng mohiyatli psixik hodisalardir. Ushbu fikr kimga tegishli?

A.F.de Sossyur B.Ch. Morris C.R.Yakobson D.Yu. S.Maslov

61. Belgi - bu idrok qilinadigan narsa bo‘lib, idrok qiluvchiga o‘zi haqida va ushbu belgidan tashqarida bo‘lgan boshqa narsa haqida ma’lumot beruvchi vositadir. Ushbu fikr kimga tegishli?

A. Yu. S.Maslov B. F.de Sossyur D.Ch. Morris D.R.Yakobson

62. Nutq organiga havoning bergan zarbi bilan o‘lchanadi. Bu nutq tovushining (akustik jihatdan) qanday xususiyati hisoblanadi?

A.Tovush kuchi deyiladi. B. Tovush balandligi deyiladi.

C. Tovush cho‘ziqligi deyiladi. D.Tovush tembri deyiladi.

63. O‘pkadan kelgan havoning nutq organiga urilishi natijasida hosil bo‘lgan tebranishning sekundlik miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Bu nutq tovushining qaysi xususiyatiga tegishli?

A.Tovush balandligiga B.Tovush cho‘ziqligiga C.Tovush tembriga D.Tovush kuchiga

64. Tovush hosil bo‘lish kechimidagi havo tebranishi nima bilan o‘lchanadi?

A.gs(gers) bilan B.Detsibal bilan C.msek.( sekundning mingdan bir bo'lagi) bilan

D.Planimetr bilan

65.Intonografik metod, pnevmatik metod, rentgenografik metod tilning qaysi birliklarini o‘rganishda qo‘llaniladi?

A.Fonetik birliklarni B.Leksik birliklarni C.Morfologik birliklarni D.Sintaktik birliklarni

66. Tovush choʻziqligi nima bilan oʻlchanadi?

A. Oʻpkadan kelgan havoning nutq organiga urilish davomiyligi bilan oʻlchanadi.

B. Nutq organiga havoning bergan zarbi bilan oʻlchanadi.

C. Zarbdan hosil boʻlgan tebranishning har bir silqinishidagi zarb yoʻnalish boʻyicha borib qaytish oraligʻi bilan belgilanadi.

D. Tovush hosil boʻlish kechimidagi havo tebranishi bilan oʻlchanadi.

67. Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi maʼno asosida maʼlum paradigmalariga birlashuvi tilshunoslikda qanday nazariyani vujudga keltirdi?

A. Maydon nazariyasini B. Valentlik nazariyasini C. Verbosentrik nazariyani

D. Morfosentrik nazariyani

68. Lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi maʼno asosida maʼlum mazmuniy uyalarga birlashtirib oʻrganish dastlab qayerda rivojlangan edi?

A. Sharqda B. Gʻarbda C. Yevropada D. Amerikada

69. “Leksikani mazmuniy maydon asosida oʻrganish muammolari” nomli risola muallifi kim?

A. Sh. Iskandarova B. A. Nurmonov C. H. Neʼmatov D. R. Rasulov

70. Oʻzbek tilshunosligida maydon nazariyasiga oid tadqiqotlar oʻtgan asrning nechanchi yillaridan boshlandi?

A. Yetmishinchi-saksoninchi yillaridan B. Elliginchi-oltmishinchi yillaridan

S. Qirqinchi – elliginchi yillaridan D. Saksoninchi-toʻqsoninchi yillaridan



71. O‘zbek tilshunosligida qaysi nazariya rivojiga A.Nurmonov, H.Ne‘matov, R.Rasulov, E.Begmatov, M.Abduvaliyev, T.Mirzaqulov, Sh.Iskandarovalar o‘z qarashlari va tadqiqotlari bilan hissa qo‘shdilar?

A.Maydon nazariyasi B.Valentlik nazariyasi C.Verbosentrik nazariya D. Morfosentrik nazariya

72. Qanday lug‘atlarda so‘zlar mavzu qatorlari asosida joylashadi?

A.Ideografik lug‘atlarda B.Chastotali lug‘atlarda C.Konkordans lug‘atlarda

D.Izohli lug‘atlarda

73. “O‘zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati” nomli tadqiqot ishi muallifi kim?

A.F.Safarov B.Y.Hamroyeva C.H.Hojiyeva D.T.Mirzaqulov

74. Bosh miyaning shikastlanishi natijasida nutqni to‘liq yoki qisman yo‘qotishga nima deb ataladi?

A.Afaziya B.Afoniya C.Alaliya D.parafaziya

75. Inson miyasidagi Broka markazi shikastlanishi natijasida paydo bo‘ladigan afaziya turi...

A.Motor afaziya B.Akustik-mnestik afaziya C.Optik-mnestik afaziya D.Amnestik afaziya

76. Miya nutq zonasining zararlanishi va buning natijasida nutqiy faoliyatning buzilishi masalasi qaysi bobokalonlarimiz asarlarida qayd etilgan?

A.Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy

B. Abu Ali Ibn Sino, M.Zamaxshariy

C. Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy

D. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy

77. Agar miyadagi nutqiy zonalarning hammasi shikastlansa, afaziyaning qanday ko‘rinishi yuzaga keladi?

A. Total afaziya

B. Akustik afaziya

C. Optik-mnestik afaziya

D. Amnestik afaziya

78. Bu holat bosh miyaning yuqori chakka miyasida joylashgan Vernika markazi shikastlanganda yuzaga keladi. Bunday holda bemor gapira oladi, lekin nutqni tushunmaydi, unda “fonematik eshitish qobiliyati” buziladi. U so‘zlarni tushunib bo‘lmaydigan shovqindek qabul qiladi, ma’nosiga tushunmaydi. Ushbu ta’rif qaysi afaziyaning qaysi turiga nisbatan qo‘llaniladi?

A. Akustik afaziya D. Optik-mnestik afaziya C. Amnestik afaziya  
D. Motor afaziya

79. Nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta’lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o‘rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fan nima deyiladi?

A. Logopediya B. Deontologiya C. Neyrolingvistika D. defektologiya

80. Bola necha oylik paytida tovushlarning tonini ajrata boshlaydi?

A. uch-to‘rt oylik paytida B. ikki-uch oylik paytida

C. besh-olti oylik paytida D. bir-ikki oylik paytida

81. Tovush apparatining patologik o‘zgarishlari oqibatida fonatsiyaning yo‘q bo‘lishi yoki zaiflashuviga nima deyiladi?

A. Disfoniya B. Bradilaliya C. Taxilaliya D. Dislaliya

82. Nutq apparati mushaklarining va ixtiyoriy pay tortishish natijasida sur‘at-ohangning buzilishiga nima deyiladi?

A. Duduqlanish B. Bradilaliya C. Taxilaliya D. Dislaliya

83. Nutq talaffuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bogʻliq holdagi buzilishiga nima deyiladi?

A. Tili chuchuklik B. Duduqlanish C. Gunglik D. Nutqning buzulishi

84. Nutqiy buzilishning bir koʻrinishi boʻlib, u aqli raso, eshitish qobiliyati bekam-koʻst boʻlgan bolalarda nutqning boʻlmasligi yoki nutqning juda kech paydo boʻlishi bilan tavsiflanadi. Ushbu taʼrif qaysi hodisaga nisbatan qoʻllaniladi?

A. Alaliya B. Afaziya C. Bradilaliya D. Taxilaliya

85. Nutq harakat analizatori bosh miya qobigʻining chap peshana qismida joylashgan boʻlib, Broka markazi deb ataladi. Bu qism nutqning qaysi jihatida vazifa bajaradi?

A. Bu qism ogʻzaki nutqning paydo boʻlishida qatnashadi.

B. Begona nutqni qabul qilish jarayoni roʻy beradi.

C. Yozma nutqni oʻzlashtirish uchun xizmat qiladi.

D. Nutqni tushunishda katta rol oʻynaydi.

86. Bola hayotining nechanchi yiliga kelib, nutqning grammatik tomoni shakllana boshlaydi?

A. Uch yoshdan

B. Ikki yoshdan

C. Toʻrt yoshdan

D. Besh yoshdan

87. Bolalar necha yoshda qoʻshimcha savollarsiz hikoya va ertaklarni aytib berish qobiliyatiga ega boʻladilar?

A. Besh yoshda B. Olti yoshda C. Toʻrt yoshda D. Yetti yoshda

88. Mos hodisalarning u yoki bu aʼzosi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas kartasidagi chiziq nima deyiladi?

A. Izoglossa B. Til landshafti C. Mos hodisa D. Lingvistik karta

89. Muayyan bir til uchun maʼlum boʻlgan izoglossalar yigʻindisi va ularning shu til hududida joylashish xarakteri nima deyiladi?

A. Til landshafti B. Mos hodisa C. Lingvistik karta D. Izoglossa

90. Lingvistik geografiya nechanchi asrda shakllandi?

A.XIX asrning 70 – 80-yillarida B.XX asr boshlarida

C. XIX asrning boshlarida D.XIX asrning o‘rtalarida

91. “Fransiya lingvistik kartasi” kim tomonidan yaratildi?

A. J.Jilyeron va E.Edmon B.P.Meyer, G.Paris

C.M.Bartoli, Dj.Viddassi D.A.Meye, V.Piza

92.Tilni tarixiy taraqqiyotda, rivojlanishda ekanini e‘tiborga olib o‘rganish nima deyiladi?

A.Diaxroniya B.sinxroniya C.Sinergetika D.Glossematika

93.Quyidagi olimlardan qaysi biri o‘zbek tilini areal nuqtayi nazardan o‘rganishning nazariy asoslarini belgilab bergan?

A.A.Jo‘rayev B.V.Reshetov C.Sh.Shoabdurahmonov D.A.Shermatov

94.Intonograf nima?

A.Elektroakustik tadqiqotlar uchun mo‘ljallangan asboblardan biridir.

B.Tilning fonologik tizimini eksperimental (tajribaviy) usulda tadqiq etish yo‘llaridan biridir.

C.U yordamida unli va undosh tovushlar o‘rganiladi.

D.Eksperimental-fonetik kuzatishlar olib boriladi.

95.Tabiiy fanlar bo‘yicha atamalarni me‘yorlashtirishda, bu fanlarga xos atamalar izohli lug‘atini tuzishda yordam bergan va yordam berayotgan olimlar...

A.R.Doniyorov, H.Jamolxonov, A.Madvaliyev, Z.Mirahmedova

B. S.Karimov, R.Qo‘ng‘urov, S.Rizayev, N.Bo‘ronov

C. A.Nurmonov, B.Yo‘ldoshev, R.Doniyorov, H.Jamolxonov

D. S.Ibrohimov, O.Ramazonov, I.Yo‘ldashev, N.Mahkamov

94. Dialektik mantiq qachon shakllandi?

A.XIX asr oxirlarida B.XIX asr boshlarida C. XX asr boshlarida D. XX asr o'rtalarida

95. XIX asrning yetmishinchi yillarida Shimoliy va Markaziy Amerikadagi Indus qabilalarining tili, madaniyati, urf-odatlarini o'rganishning kuchayishi bilan qaysi soha rivojlandi?

A.Etnolingvistika B.Sotsiolingvistika C.Psixolingvistika  
D.Neyrolingvistika

96. Til materiallarini yoshini aniqlash bo'yicha Morris Svodesh tomonidan tavsiya etilgan metod...

A.Leksikostatistik metod B. Distributiv tahlil metodi C.Struktur metod  
D.Differensial tahlil metodi

97. Morris Svodesh til materiallarini yoshini aniqlash bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida qaysi fan metodlariga tayanadi?

A.Biologiya B.Arxeologiya C.Tarix D.Kibernetika

98.Lisoniy birliklar valentliklarning yuzaga chiqish zarurligi yoki zaruriy emasligi belgisiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

A.Majburiy va fakultativ B.Faol va nafaol C.Shakliy va mazmuniy  
D.Leksik va sintaktik

99. Tilshunoslikda valentlik bog'lanuvchi elementlardan qaysi biri biriktirib oluvchi, qaysi biri birikuvchi ekanlik belgisiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

A. Faol va nafaol B.Majburiy va fakultativ C.Shakliy va mazmuniy  
D.Leksik va sintaktik

100. Fizikaning akustika qismiga tegishli ma'lumotlar tilshunoslikning qaysi bo'limida muhim ahamiyat kasb etadi?

A.Fonetika B.Leksikologiya C.Morfologiya D.Sintaksis

## Adabiyotlar:

1. Aliqoriyev N.S. va b. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent, 1999.
2. Aliqulov Z., Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2010. – 96 b.
3. Abdulla A’zam. Fan va din: munosabat dialektikasi. – Tafakkur, 1999. №1. –B.42
4. Belikov V., Krisin L. Sotsiolingvistika. – M., 2001.
5. Berdialiyev A. O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi (darslik-qo‘llanma). – Xo‘jand, 2015.
6. Grigorev V.P. Poetika slova. – Moskva: Nauka, 1979.
7. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent, 1977.
8. Zokirov K., Jamolxonov H. O‘zbek botanika terminologiyasi. – Toshkent, 1966.
9. Zokirov H. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Andijon, 2008.
10. Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): f.f.d....diss.avtoref. – Toshkent, 1999.
11. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – Toshkent: Fan, 2007.
12. Ismoilov G‘. O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi: f.f.n....diss.avtoref. – Toshkent, 2011.
13. Yuldashev I. O‘zbek kitobchilik terminologiyasi shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish: f.f.d....diss.avtoref. – Toshkent, 2005.
14. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 160 b.

15.Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007.

16. Karimov S. Oʻzbek tilining badiiy uslubi. –Samarqand: Zarafshon, 1992

17.Cedric Boeckx / Massimo Piatelli-Palmarini language as a natural object- linguistics as a natural science // The Linguistic Preview/. Volume 22, Issue 2-4, 447-466.

18.Kedrov B.M. O sovremennoy klassifikatsii nauk // Voprosi filosofii. 1980. №10. – B.85.

19.Lingvisticheskaya ensiklopediya. – Moskva, 1990. – S.116

20.Luriya A.R. Osnovniye problemi neyrolingvistiki. – Moskva, 1975.

21. Madvaliyev A. Ximiya terminologiyasida dubletlik va uni minimumga keltirish masalasi // Oʻzbek terminologiyasida leksik variantlar. – Toshkent, 1979. – B.80-103.

22.Mirahmedova Z. Hozirgi oʻzbek tilining anatomik terminologiyasi:  
f.f.n....diss.avto-ref. –Toshkent, 1994.

23.Mirtojiyev M.M. Oʻzbek tili semasiologiyasi. –Toshkent: Mumtoz soʻz, 2010. –B.236-281.

24. Mirtojiyev M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent, 2004.

25. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili fonetikasi. –Toshkent: Fan, 2013.

26.Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent : Oʻzbekiston, 1992.

27.Nurmonov A., Yoʻldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: Sharq, 2001.

28. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
29. Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. – Andijon, 1992.
30. Normo‘minov Sh.T. O‘zbek tili so‘z turkumlari tizimidagi yadro-periferiya aloqalarining funksional-semantik tadqiqi: fil.fan.f.d(Phd)...diss – Samarqand, 2019.
31. Normo‘minov Sh. Til tizimi va so‘z so‘z turkumlari paradigmasi yadro-periferiya munosabatlari haqida// SamDU Ilmiy axborotnoma. №6. 2016. –B.112-116.
32. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. – Urganch, 2019.
33. B.Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. – Budapesht, 2006.
34. Rasulov I. Falsafa. – Toshkent, 1998. – B.142.
35. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2006.
36. Ramazonov O. O‘zbek matematika terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixidan: f.f.n....diss.avtoref. –Toshkent, 1973.
37. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. –Toshkent, 2011.
38. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi. –Andijon, 2012.
39. Rizayev S. Kibernetika va tilshunoslik. – Toshkent, 1976.
40. Rizayev S. O‘zbek bolalar adabiyoti tilining chastotali lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1980.



41. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. –Toshkent: Ma’naviyat, 2003
42. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya., 1993.
43. Fayzixo‘jayeva D. Mantiq. Darslik. –Toshkent, 2017.
44. Xayrullayev M., Haqberdiev M. Logika. – Toshkent. 1984.
45. Shamuratova Z. Logopediya: me’yoriy talaffuzga o‘rgatish. – Toshkent, 2012.
46. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? –Toshkent, 1981.
47. Shermuxamedova N. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. – Toshkent, 2008.
48. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek tilining dialektologik atlasini // O‘zbek tili va adabiyoti. 1969. №3.
49. Eltazarov J.D. So‘z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabati // O‘zbek tili va adabiyoti, 3-son, 2006.
50. Eltazarov J.D. So‘z turkumi paradigmasidagi o‘zaro aloqa va ko‘chish hollari. – Toshkent: O‘ZME, 2006.
51. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tom. 1-tom. –Moskva: Rus tili, 1981.
52. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tom. 2-tom. –Moskva: Rus tili, 1981.
53. Qo‘ng‘urov R., Karimov S. Zulfiya poeziyasi tilining lug‘ati.– Toshkent, 1981.
54. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.– Toshkent: O‘zME, 2002.

## Mundarija:

Kirish.....	3-4
I BOB. Tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan munosabati.....	5-54
Fan va uning paydo bo'lishi. Fan tushunchasi. Fanlar sistemasi. Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o'rni.....	5-15
Tilshunoslik va falsafa. Kognitiv tilshunoslik.....	16-21
Tilshunoslik va mantiq. Mantiqiy kategoriyalarning tilshunoslikka tatbiq etilishi. Til birliklari va mantiqiy birliklar.....	21-28
Tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan munosabati. Tilshunoslik va tarix. Tilshunoslik va etnografiya.....	29-33
Tilshunoslik va sotsiologiya. Sotsiolingvistika.....	33-39
Tilshunoslik va madaniyatshunoslik. Lingvokulturologiya.....	39-44
Tilshunoslik va psixologiya. Psixolingvistika.....	44-47
Tilshunoslik va adabiyot. Lingvopoetika.....	47-50
<b>II BOB. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.....</b>	<b>54-136</b>
Tilshunoslik va biologiya. Nutq tovushining biologik aspekti.....	54-64
Tilshunoslik va logopediya. Tovushlarning me'yoriy talaffuzi. Me'yoriy talaffuzga o'rgatish.....	64-83
Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati. Neyrolingvistika.....	84-91
Tilshunoslikning kimyo bilan munosabati. Atom-molekulyar ta'limot va tilshunoslik.....	91-99
Valentlik nazariyasi va tilshunoslik.....	99-107
Tilshunoslikning fizika bilan munosabati. Akustika va tilshunoslik.....	107-112
Fizikada maydon nazariyasi va uning tilshunoslikka ta'siri. Tilshunoslikda maydon nazariyasi.....	112-117
Yadro-periferiya tushunchasi. Tilshunoslikda yadro-periferiya munosabatining tatbiq etilishi.....	117-123
Tilshunoslikning matematika bilan munosabati. Tilni o'rganishda statistik metodlardan foydalanish.....	123-127
Tilshunoslik va semiotika.....	128-132
Tilshunoslik va geografiya. Areal lingvistika.....	132-136
Xulosa.....	137-138
Glossariy.....	139-154
Nazorat savollari.....	155-158
Testlar.....	159-173
Adabiyotlar.....	174-178

*Yusupova Orziboni Sunnatovna*

# TILSHUNOSLIK VA TABIIY FANLAR

(O‘quv qo‘llanma)

Muharrir  
Musahhah  
Texnik muharrir

O. Sharapova  
N. Isroilov  
B. Egamberdiyev

**ISBN 978-9943-6645-5-5**

2021-yil 16 dekabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.  
2021-yil 21 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.  
Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. “Times New Roman” garniturasini.  
Offset qog‘ozini. Shartli bosma tabog‘i – 11, 25.  
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 599

---

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.  
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



